

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI**

**MA'NAVIYAT VA UNING JAMIYAT
TARAQQIYOTIDA TUTGAN O'RNI.
MURABBIYLAR ISHINING
SAMARADORLIGINI OSHIRUVCHI
OMILLAR**

O'quv-uslubiy qo'llanma

Toshkent – 2017

UDK 378:37

BBK 74.58

Ma’naviyat va uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni. Murabbiylar ishining samaradorligini oshiruvchi omillar. O‘quv-uslubiy qo‘llanma.

Atamurotov M., Isayeva M.R.– T.: ToshDTU, 2017. 118 b.

O‘quv yurtlarida tarbiyachilik faoliyatini amalga oshiruvchi murabbiylar uchun o‘quv-uslubiy qo‘llanma sifatida tavsiya etiladi.

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-uslubiy kengashi qaroriga muvofiq chop etildi

Taqrizchilar:

Samarov R. – ToshDTU professori, f.f.d.

Akramova F. – TDIU dotsenti

© Toshkent davlat texnika universiteti, 2017

KIRISH

Mustaqillik O‘zbekistonda tub o‘zgarishlar davrini boshlab berdi. Xalqning, ayniqsa, yoshlarning o‘z kuch-qudratiga ishonchini uyg‘otdi. Ularning tashabbusi, ijodi va iste’dodiga yo‘l ochdi. Istiqlol sharofati tufayli mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy sohalarda amalga oshirilib kelinayotgan islohotlar va odamlarda yashirinib yotgan ijodiy fikr va tuyg‘ularni ro‘yobga chiqarish imkoniyatlarini vujudga keltirdi. O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, bu imkoniyatlardan unumli foydalanib, yurtimizda bo‘layotgan islohotlarni talabalar ongiga chuqurroq singdirish, shuningdek, ularning mamlakatimizda bo‘layotgan o‘zgarishlar haqidagi fikr-mulohazalarini o‘rganish va yoshtar intellektual salohiyatini Vatan, millat ravnaqi tomon yo‘naltirish, ularni yangi O‘zbekistonning yetuk, kamol topgan fuqarosi etib shakllantirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalardan biridir.

Ma’naviy-ma’rifiy va mafkuraviy targ‘ibot ishlari hech qachon hozirgidek dolzarb vazifaga aylanmagan. Ma’naviy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lgani, mafkuraviy tahdid va axborot xuruji kuchayib borayotgani, odamlar ongi va qalbini egallash yo‘lidagi kurash davom etayotgani, hayotning barcha jabhalari, ishlab chiqarishning hamma sohalari, aholining har bir qatlami, ayniqsa, yoshtar orasida ma’naviy-ma’rifiy va mafkuraviy targ‘ibotni yangi bosqichga ko‘tarish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik, millatparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usini kuchaytirish, iymon, vijdon, singari xislatlarni shakllantirish, har bir fuqaroni mustaqillikning ongli fidoyisiga aylantirish – qisqa qilib aytganda, talaba-yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashda har taraflama sog‘lom, fidoyi, barkamol avlodni voyaga yetkazish hozirgi kundagi ma’naviy-ma’rifiy tarbiya ishining asosiy maqsadi ekanligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur o‘quv-uslubiy qo‘llanmada yoshlarni komil inson etib tarbiyalash borasida bir qator masalalar yoritilgan. Tarbiyaning rang-barang shakllari, uslub va vositalari bo‘yicha talaba-yoshlarning qalbi va ongiga yetib boradigan, tarbiya jarayonida yoshtar ma’naviy dunyoqarashini, ma’naviy-axloqiy tuyg‘ularini shakllantirishdagi imkoniyatlardan foydalanish usullari ko‘rsatilgan. Talaba-yoshlarning

huquqiy ongini yuksaltirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ayni paytda o‘zining fuqarolik huquqi va burchlarini chuqur anglash haqida atroflicha tushuncha berilgan. Shuningdek, o‘zbek xalqining qutlug‘ merosidan yoshlarimizning muntazam va to‘laqonli bahramand bo‘lishiga, ularning mana shunday ma’naviyat muhitida kamol topishiga, talaba-yoshlarning komil inson bo‘lib buyuk kelajak sari intilishlariga yo‘llanma berilgan hamda jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sishning nazariy tamoyillari ochib berilgan.

O‘quv-uslubiy qo‘llanma soha mutaxassislari, tadqiqotchilar, o‘qituvchilar va keng jamoa ommasiga mo‘ljallangan bo‘lib, uning asosiy maqsadi – pedagoglar, ustozlar, murabbiylar va ta’lim-tarbiya maslahatchilariga, ularning talabalar bilan tarbiyaviy ishlarni tashkil etishiga uslubiy jihatdan yordam berishdan iborat.

I-BO'LIM

1.1. Ma'naviyat va ma'rifat sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirish va samaradorligini oshirish omillari

Istiqlol sharofati bilan mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohalarda amalga oshirilib kelinayotgan keng islohotlar insonlarda yashirinib yotgan ijodiy fikr va tuyg'ularni ro'yobga chiqarish imkoniyatlarini vujudga keltirdi. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, bu imkoniyatlardan unumli foydalanib, yurtimizda bo'layotgan islohotlarni talabalar ongiga chuqurroq singdirish, shuningdek, ularning mamlakatimizda bo'layotgan o'zgarishlar haqidagi fikr-mulohazalarini o'rganish va yoshlarning intellektual salohiyatlarini Vatan, millat ravnaqi tomon yo'naltirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

Ma'naviy-ma'rifiy va mafkuraviy targ'ibot ishlari hech qachon hozirgidek dolzarb vazifaga aylanmagan edi. Ma'naviy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lgani, mafkuraviy tahdid va axborot xuruji kuchayib borayotgani, odamlar ongi va qalbini egallash yo'lidagi kurash davom etayotgani, hayotning barcha jabhalari, shuningdek, aholining har bir qatlami, ayniqsa, yoshlar orasida ma'naviy-ma'rifiy va mafkuraviy targ'ibotni yangi bosqichga ko'tarish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Ma'naviy-ma'rifiy va mafkuraviy targ'ibot ishlari qanday dastur va yo'nalish va kimlar tomonidan olib borilayotgani g'oyat muhim masaladir.

Oliy ta'lif muassasalarida talabalarni o'z yurtining fidoyisi, milliy istiqlol g'oyasining ongli tarafdori, tanlagan sohasining yuqori malakali ustasi bo'lib yetishishida tarbiya sohasida tarkib topgan samarali shakl va usullardan keng foydalanish, ularni rivojlantirish, yangi tarbiyaviy texnologiyalarni joriy etish bugungi kun zamon talabidir. Talaba-yoshlarni yetuk va barkamol insonlar qilib tarbiyalash, ona Vatanga muhabbat, tarixiy va milliy urf-odatlarimizga, an'analarimizga va umuminsoniy qadriyatlarga yuksak hurmat ruhida tarbiyalash, ularni ma'naviy-ma'rifiy jihatdan yuksaltirish, insonlarga bo'lgan mehrmuruvvatni yanada mustahkamlash, yoshlarning jamoat ishlaridagi faolliklarini oshirish va ularning bo'sh vaqtlarini unumli va mazmunli o'tkazishni tashkil etish, milliy-ma'naviy qadriyatlarni ular ongiga

singdirish har bir tarbiyachining Vatan ravnaqi yo‘lidagi muqaddas burchidir.

Bugungi kunda yoshlarni ilmli qilib tarbiyalash, o‘qitish, ularga ta’lim berish, o‘z fikrlarini erkin bayon etish xususiyatlarini shakllantirish, milliy mafkuraning targ‘ibot va tashviqoti ma’naviy-ma’rifiy ishlar oldida turgan muhim masalalardan biridir. Yurtimizning buyuk kelajagini ta’minlashda yoshlarmizni ma’naviy-ma’rifiy jihatdan har tomonlama tarbiyalash, milliy istiqlol g‘oyasi, mafkurasini shakllantirish va qalblariga Vatanga muhabbat tuyg‘usini singdirish davrimizning eng dolzarb masalalaridan sanaladi. Ma’naviyat va ma’rifatni targ‘ib qilish har bir ziyoli mutaxassis va tarbiyachining vijdoniy burchi va ishidir. Bugungi kunda erkin fikrga ega bo‘lgan, mustaqil o‘z ishini o‘zi boshqara oladigan, zamonning ilg‘or talablariga javob beradigan vatanparvar, g‘ayrat-shijoatli, mard, insof-diyonatli yoshlarni tarbiyalash hozirgi kunda barchamizning oldimizda turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Hech qanday davlat, jamiyat va millat tafakkursiz, tarbiyasiz yashay olmaydi. Chunki har bir davlat, millat va jamiyatning o‘ziga xos, o‘ziga mos keladigan, uning barcha xususiyatlarini hisobga oladigan, uning maqsad va manfaatlarini himoya qiladigan mafkurasi bo‘lishi lozim.

Ayni damda keng jamoatchilikning, ilg‘or fikrli ziyolilarning tajribasi, bilimi, salohiyatiga tayangan holda jamiyatning har bir a’zosining yurt tinchligi, el saodatiga xizmat qiladigan intilish, izlanish va tashabbuslarini qo’llab-quvvatlash orqali kuchli davlatdan kuchli jamiyat yaratish tamoyilini muntazam targ‘ib va tashviq etishni uyushtirish, ro‘yobga chiqarish ma’naviyatning bosh vazifasidir. Bundan oly ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan ko‘p ming sonli talabalar ham mustasno emas.

Yangilanayotgan fikr, o‘zgarayotgan zamon, poklanayotgan jamiyat ma’naviy-ma’rifiy tarbiyaning yetakchi bo‘lishini istaydi. Ta’lim-tarbiyaning qamrovini kengaytirish bilan emas, balki uni chuqurlashtirish yo‘li bilan kutilgan natijalarga erishish mumkin. Ta’lim-tarbiya jarayoni talabalar uchun hayotga tayyorgarlik bosqichi emas, balki hayotning o‘zi bo‘lishi kerak. Talaba-yoshlari ma’naviy-ma’rifiy tarbiya talabiga ko‘ra hayotga o‘rgatilishi kerak emas, balki haqiqiy hayotda chinakamiga yashamog‘i lozim. Oliy ta’lim muassasasida yoshlarning ruhiyatiga xos sifatlarni atroflicha o‘rganish,

tizimlashtirish va muayyan xulosalar chiqarish taqozo etiladi. Ma'rifiy ishlarda xalq tarbiyashunosligi tajribalarini g'oyat sinchkovlik bilan o'rganib, umumlashtirish lozim bo'ladi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchining tabiiy moyillariga, imkoniyatlariga tayangandagina maqsadga erishadi. Inson tabiatidagi kamolotga, takomillashuvga, rivojlanishga bo'lgan moyilliklar oqar suvga o'xshash xususiyatga egadir. Suvga oqishni o'rgatish shart emas, uni boshqarish, oldining to'silib qolishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Xuddi shuningdek, inson fe'l-atvoriga ezgu insoniy fazilatlar ham tashqaridan keltirilmaydi, kamolotga moyillik, avvalo, inson tabiatining o'zida mavjud bo'lishi kerak.

Asrlar davomida xalqning ma'naviy ehtiyoji, talabi asosida yaratilgan qadriyatlarda ilgari surilgan ilg'or g'oyalarni o'z ongida yaxlit shakllantirgan, ularning mohiyatini amaliy faoliyatida namoyon qila oladigan, oila, xalq va jamiyatning ma'naviy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan shaxs ma'naviy madaniyatli hisoblanadi. Milliy va umuminsoniy ma'naviyat va qadriyatlardan to'la bahramand bo'lмаган, ona tilini yaxshi bilmagan, jamiyatning har tomonlama rivojlanishiga ongli ravishda hissa qo'shmagan inson ma'naviy qashshoqdir. Ma'naviy qashshoqlik esa, xalqni, millatni, umuman jamiyatni tanazzulga olib boradi. Ma'naviy madaniyat manbalarini o'rganish, ularda ilgari surilgan g'oyalarga amal qilish, ularni kelgusi avlodlar ongiga singdirish jamiyat har bir a'zosining Vatan oldidagi muqaddas burchidir. Ma'naviy qadriyatlarning talaba-o'quvchilar ma'naviy madaniyatini shakllantirishdagi ustuvorligi shundaki, ma'naviy qadriyatlар insonlarning talab va ehtiyojlari asosida aql-zakovat bilan yaratilgan, ularning tafakkuri, orzuistagi, e'tiqodi, axloq qoidalarini o'zida mujassam etgan, amaliy hayotda sayqal topgan ma'naviy boylik bo'lib, tarbiyaning tayanch vositasi hisoblanadi.

Talaba-o'quvchilarning ma'naviy madaniyatini yuksaltirish, mustaqil fikrlesh jarayonini shakllantirish metodologiyasi ma'naviy ong va tafakkurni, milliy mustaqillikni amalga oshirish va rivojlanirish jarayonini ta'minlovchi asosiy omil bo'lib, hayot jarayonidaadolat, insonparvarlik, o'z-o'zini anglashni va jahon ijtimoiy-madaniy taraqqiyotini, umuminsoniy, milliy, madaniy, ma'naviy qadriyatlarni uyg'un holda o'zlashtirish mahoratini shakllantirishga xizmat qilmog'i darkor.

Yangicha yondashuv asosida o‘quvchilarning ma’naviy madaniyatini shakllantirishda asosiy yo‘nalish beruvchi metodologiya asosida ish olib borilsa, berilayotgan ta’lim-tarbiya o‘z samarasini beradi.

Bunda quyidagilarga e’tibor berish kerak:

- har bir talaba-o‘quvchining xatti-harakatida, xulq-atvorida umuminsoniy, milliy-ma’naviy qadriyatlarni tarkib toptirish, talaba-o‘quvchini mustaqil fikrlashga o‘rgatgan holda ularga milliy, umumbashar yo‘llanma berish, talaba-o‘quvchining madaniy qadriyatlarni orqali jahon miqyosidagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jarayonlarga intilishini ta’minlashda to‘g‘ri yo‘llanma berish;
- yoshlar o‘zligini chuqur anglashini, mustaqillikning qadrini tobora teran tushunishini, milliy tafakkurning kengayishi va takomilini, tarixiy hurlik, mustaqillik ruhining uyg‘onishini ta’minlash ma’naviyat sohasidagi siyosatimizning asosiy maqsadiga aylanishiga erishish;
- mamlakat aholisini istiqlol g‘oyalariga cheksiz sadoqat, ona diyorga mehr-muhabbat, ozod va obod Vatan barpo etishdek ulug‘ va oljanob maqsadga e’tiqod, jasurlik va fidoyilik ruhida tarbiyalashga mo‘ljallangan targ‘ibot-tashviqot ishlarining strategiyasini belgilash shuningdek, harakat uslublari ustida ishlash va amalga oshirish;
- barcha ta’lim-tarbiya muassasalari, aholi turar joylari va ishlab chiqarish sohalarida ma’naviy-ruhiy muhitning ahvolini, ommaving kayfiyatini, intilish va muddaolarini hisobga olgan holda ijobiy an’ana va tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash, mavjud muammolarni, ularning ijtimoiy-siyosiy muhitga ta’sirini tahlil qilish va bartaraf etish choralarini hayotga tatbiq etish;
- ma’rifiy targ‘ibot ishlarining shaklan va mazmunan uyg‘unligi, muntazamliligi, haqqoniylikka asoslanishini ta’minlash, ya’ni ma’ruza, suhbat, bahs-munozara, seminar va konferensiyalar o‘tkazish, ommaviy axborot vositalarida faol ishtirok etish yo‘li bilan mamlakatda amalgalash oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy islohotlarning, qabul qilinayotgan farmonlar, qarorlar va qonunlarning mohiyatini keng jamoatchilikka tezkorlik bilan yetkazish va kundalik faoliyat dasturiga aylantirishga rahbarlik qilish;
- o‘zbek xalqining ulug‘ mutafakkirlari qutlug‘ merosidan butun xalqimiz, jumladan, yoshlarimizning ham muntazam va to‘laqonli bahramand bo‘lishiga, ularning mana shunday ma’naviyat muhitida kamol topishiga sharoit yaratish;

- milliy mafkuraning asosiy maqsadlarini xalqqa, yoshlarga sodda, haqqoniy va tushunarli tarzda yetkazish uchun el-yurt orasida obro‘-e’tibor qozongan, yuksak saviyali, ko‘pni ko‘rgan, jonkuyar, otashin, eng muhimi haqqoniy so‘zi, yorqin fikri bilan yoshlari qalbi va ongiga yo‘l topa oladigan fidoyi insonlarni safarbar etish;
- o‘zbek xalqining boy tarixi, ilmiy-falsafiy, madaniy va axloqiy merosiga milliy o‘zligini tanish orqali yuksaltirish yo‘lini bosib o‘tgan peshqadam davlatlarning tajribasiga tayangan holda milliy istiqlol g‘oyalarini ommaning ongi va qalbiga teran singdirish. Mustaqillik mafkurasini umummillat mafkurasiga, g‘oyaviy, ruhiy va ma’naviy kuch-qudrat manbaiga aylantirish;
- yosh avlodning dunyo va mamlakat miqyosidagi siyosiy jarayonlarga mustaqil va ongli muhabbatini shakllantirish, faol fuqarolik va fidoyi vatanparvarlik tuyg‘usini kamol toptirish;
- mamlakat ozodligini himoya etish, bosqinchilarga qarshi kurashdagi buyuk ajdodlarning ibrati, o‘tmish saboqlari, mustaqillik davrida erishilgan zafarlar tahlili asosida jamiyatning har bir a’zosi qalbida milliy g‘urur tuyg‘usini uyg‘otish va tarbiyalash;
- har bir xonadonda kattalarga hurmat-ehtirom, kichiklarga izzat-e’tibor ustuvor bo‘lgan sog‘lom ma’naviy muhitni yaratilish;
- "Sog‘lom ona – sog‘lom bola", "Sog‘lom bola – sog‘lom kelajak" tushunchasini har bir oila, ota-onaning, yigit va qizlarning qalbiga singdirish orqali yaxshi oilaviy farovonlikka erishish;
- Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko‘zda tutilgan asosiy maqsadlarni, milliy dasturning har bir fuqaro, oila taqdiri, kelajagi bilan chambarchas bog‘liqligini ta’minlash, erishilgan yutuqlarni ommaga yetkazish;
- jahon fani, madaniyati, jamiyatda ilg‘or andazalarga intilishlarini rag‘batlantirish orqali milliy fan va madaniyatning zamona viy taraqqiyot cho‘qqisiga ko‘tarilishiga yordam berish;
- xorijiy mamlakatlarning hayotida ro‘y berayotgan hodisalarning mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish, fuqarolarning loqayd tomoshabindan faol mushohada va teran idrok etuvchi zamon va makon farzandiga aylantirishga imkon yaratish;
- O‘zbekistonning tashqi va ichki siyosatida erishilayotgan yutuqlarni, bu yutuqlarning bugun va keljak uchun ahamiyatini

anglatish orqali milliy iftixor tuyg‘usini tarbiyalash, faol fuqarolik munosabatini rivojlantirish;

- talaba-yoshlarning huquqiy ongini yuksaltirish yo‘li borasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunlariga hurmat hissini tarbiyalash, ayni paytda o‘zining fuqarolik huquqi va burchini chuqr anglagan holda yashashi, jamiyat hayotida faol ishtirok etishi va ishlashiga ko‘maklashish;

- jamiyatda diniy va aqidaparastlikning barcha ko‘rinishlariga, yurtning tinchligi, osoyishtaligiga rahna soladigan, vatandoshlarimizning iymon-e’tiqodi va ishonchiga putur yetkazadigan har qanday g‘oyalar, nazariyalar va tushunchalarga nisbatan ayovsiz kurashuvchanlik ruhi va ma’naviy muhitni yaratish;

- jamiyatda yashayotgan barcha millatlarning o‘ziga xos jihatlari va mushtarak maqsadlarini hisobga olgan holda millatlararo o‘zaro hurmat, totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlash;

- fikrlar xilma-xilligi zaminida paydo bo‘lgan ilg‘or ijtimoiy fikrlar, tashabbuslarni ommalashtirish;

- xalqning tarixiy an‘analari, xususiyatlari, milliy ong va turmush tarzining hayotiy tamoyillariga asoslangan holda demokratik jarayonlarni chuqlashtirish, jamoatchilikning ta’sir kuchini jamiyat axloqiy-ma’naviy hayotining mezoniga aylantirish;

- ma’naviy meros va diniy qadriyatlarni chuqr o‘zlashtirish, millatimizning o‘z-o‘zini anglashiga erishish, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini izchillik bilan mustahkamlash;

- mustaqillik sharoitida milliy g‘oya va milliy mafkurani shakllantirish hamda ularni xalqimiz dunyoqarashiga aylanishiga erishish;

- ta’lim tizimini isloh qilish, kadrlar tayyorlashning milliy dasturini amalga oshirish asosida barkamol avlodni shakllantirish, sog‘lom avlod dasturini amalga oshirish borasida jismonan baquvvat, ruhi, fikri sog‘lom, iymon-e’tiqodi butun, bilimli, ma’naviyati yuksak, mard va jasur vatanparvar avlodimizni shakllantirish;

- milliy-ma’naviy salohiyatimizning jahon sivilizatsiyasidagi o‘rnini tiklash va bugungi kunda ma’naviyat, ma’rifat, fan, texnika, texnologiya yutuqlarini chuqr o‘zlashtirish asosida hozirgi zamon umumjahon ma’naviyati tizimi rivojiga hissa qo‘shish;

- ekologik tarbiyani ijtimoiy-siyosiy ma’naviy tarbiyaning uzviy va uyg‘un qismi darajasiga ko‘tarish.

Shaxsning ma’naviy madaniyatini shakllantirishga qo‘yiladigan hozirgi zamon talablarini amalga oshirish muammolari ijtimoiy tuzum taraqqiyoti bilan bog‘liqdir. Jamiyat taraqqiy etgan sari ma’naviy madaniyatning shakli, qamrovi, ta’sir kuchi o‘zgarib boradi. Bunday o‘sishda jamiyat rivojlanishining tezlanishi, ijtimoiy munosabatlarning holati talab etiladi. Jamiyat taraqqiyotining obyektiv talabiga binoan tarixiy jarayonda shaxsning ma’naviy o‘sishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga nisbatan tezroq amalga oshadi, chunki muayyan davrning ma’naviy madaniyatida har bir ijtimoiy hodisada bo‘lgani singari, uning qoloq tomonlari va ayni vaqtda, shu davrning umumiyligi tafakkur darajasidan o‘zib ketadigan ilg‘or fikrlar, qarashlar va nazariyalar ham bo‘ladi. Faylasuf olimlarning fikrlaricha, shaxs ma’naviy madaniyatini shakllantirishga ta’sir etuvchi manbalar fan, adabiyot, san’at, pedagogika va din bo‘lib, ular o‘zaro aloqadorlikda uning ongi va faoliyatiga ta’sir etadi.

Oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar sog‘lom va izchil metodologiya asosida tashkil etilmasa, jamiyat a’zolarining ma’naviyatida yuksalish ro‘y bermaydi. Ma’naviyati yuksalmagan jamiyat esa tanazzul girdobidan chiqa olmaydi. Har qanday jamiyatning kuchi fuqarolarining ma’naviy fazilatlari darajasi bilan belgilanadi. Jamiyatni qudratli qilgan o‘lchamlar iqtisodiy ko‘rsatkichlar, ishlab chiqarish hajmi, hatto odamlarning farovonlik darajalari ham bo‘lmay, muayyan jamiyatda yashayotgan kishilarning insoniy fazilatlari, shakllantirgan va amal qilayotgan qadriyatlaridir. Ma’naviy fazilatlar qandayligi jamiyatning qandayligini belgilaydi. Uning iqtisodini taraqqiy ettirish, siyosatini takomillashtirish, ijtimoiy tuzumini yuksaltirish darajasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri fuqarolarning ma’naviyat darajalariga bog‘liqdir.

Muayyan jamiyat undagi ustuvor ma’naviy, siyosiy, iqtisodiy, axloqiy, huquqiy va boshqa qadriyatlar hamda talablarga jamiyat a’zolari og‘ishmay amal qilgan taqdirdagina sobit taraqqiy eta oladi. Jamiyatning tarixiy, iqtisodiy, jo‘g‘rofiy, mafkuraviy o‘ziga xosliklari tufayli maydonga kelgan qadriyat va me’yorlarga fuqarolarning ochiq yoxud yashirin amal qilmay qo‘yishi, ulardan bo‘yin tovashi mazkur jamiyatning tanazzulidan dalolatdir. Insoniyat tafakkuri va amaliyoti

tarixidagi abadiy kategoriyalardan biri bo‘lmish ma’naviy-ma’rifiy tarbiya hamisha jamiyatdagi yetakchi axloqiy qadriyatlar bilan ularning odamlar tomonidan bajarilishi o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga yo‘naltiriladi. Jamiyatning ustuvor qadriyatlari qanchalik umuminsoniy bo‘lsa, shunchalik umrboqiylik kasb etadi. Qadriyatlар tizimidagi o‘zgarishlar ijtimoiy tuzumni o‘zgartirishga olib kelganidek, uning tarbiya tizimini ham o‘zgarishga majbur qiladi.

Ma’naviy-ma’rifiy tarbiya yoshlarda shakllantiriladigan ma’naviy qadriyatlар tor, milliy qobiqqa o‘ralib qolmasligi, balki umuminsoniylik tabiatiga ega bo‘lishi lozimligini ko‘zda tutadi. Jahon ayvonida o‘zgalar bilan birgalikda yashashga, hamkorlikda faoliyat ko‘rsatishga, sherik-chilikda kamolot sari borishga o‘zida na ishonch, na kuch topa biladi. Mustaqil yurtimizning ma’naviyati dunyoviy asoslarga tayangan holda insoniyat tarbiyaviy tajribasining eng umrboqiy va umuminsoniy qadriyatlarni tanlash va o‘zlashtirish yo‘llarini ishlab chiqishga safarbar etilishi lozim. Umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish alohida olingan millat va uni tashkil qilgan har bir alohida odamni dunyodagi boshqa millat va odamlarga yaqinlashtiradi. O‘zgani tushunmaslik, o‘zi yaxshi bilmaydigan va tanimaydigan kishilarga ishonchsizlik ma’rifatsiz hamda ma’naviyati qashshoq jamoaning xususiyatidir. Atrofdagilardan faqat yomonlik kutish, hammaga dushman deb qarash, o‘zini alohida fazilatlar sohibi hisoblab, o‘zgalardan nafratlanish o‘sha millatning ma’naviyatini ham izdan chiqaradi. Yuksak ma’naviyat hamisha umuminsoniy fazilatdir. Umuminsoniy bo‘lмаган axloqiy sifatlar ezgu xulq sanalmaydi.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturini bosqichma-bosqich amalgalashda, yurtimizning buyuk kelajagini ta’minlashda talaba-yoshlarimiz o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yanada takomillashtirish, milliy istiqlol g‘oyasi, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, o‘quv jarayonini isloh qilish, ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirish, oliy ta’lim muassasalarining kadrlar tayyorlash sifatini jahon andozalari darajasiga ko‘tarish, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish sohalari uchun raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash vazifalarini qo‘ydi. Bu dolzarb vazifalarni amalgalashda hozirgi kunda ta’lim tizimi jarayonida yoshlarni tegishli mutaxassisliklar bo‘yicha yetuk kadr etib tayyorlash bilan bir qatorda,

ularning umumiy dunyoqarashlarini milliy istiqlol g‘oyalari bilan shakllantirish, Vatan va millat manfaatlari yo‘lida fidoyi bo‘la oladigan, ilm-fan asoslarini, zamonaviy texnika, kompyuter va axborot texnologiyalarining sirlarini mukammal egallagan, fidoyi va ma’naviy barkamol inson sifatida kamol toptirish va tarbiyalash sohalariga asosiy e’tiborni qaratish lozim, chunki ma’naviyati yuksalmagan jamiyat tanazzul girdobidan chiqqa olmaydi. Har qanday oliy o‘quv yurtidagi muhit talabalar ma’naviy fazilatlari darajasi bilan belgilanadi. Ta’lim, fan va ishlab chiqarish samarali integratsiyalashuvini ta’minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablaridan kelib chiqqan holda yondashilishi maqsadga muvofiqdir. Talaba-o‘quvchilarning ma’naviy madaniyatini yuksaltirish, mustaqil fikrlash jarayonini shakllantirish metodologiyasi ma’naviy ong va tafakkurni, milliy mustaqillikni amalga oshirish va rivojlanirish jarayonini ta’minlovchi asosiy omil hayot jarayonidaadolat, insonparvarlik, o‘z-o‘zini anglashni va jahon ijtimoiy, madaniy taraqqiyotini, umuminsoniy, milliy, madaniy, ma’naviy qadriyatlarni uyg‘un holda o‘zlashtirish mahoratini shakllantirishga xizmat qilmog‘i darkor. Biz qurayotgan yangi jamiyat, hayotimizga kirib kelayotgan yangilanish jarayonlari, islohotlarning taqdiri va kelajagi yoshlarimizning bu o‘zgarishlarning qo‘llab-quvvatlashiga, ularning dunyoqarashi, ong-u tafakkurining yuksalishiga bog‘liq. Yoshlarning ong-u tafakkuri esa bir kunda o‘zgarmaydi. Ularning dunyoqarashi o‘zgarishi va kengayishiga vaqt kerak. Yoshlar amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar ularga nima berayotganini, qanday naf keltirayotganini ko‘rishi va iqror bo‘lishi darkor. Shu sababli ham biz bosqichma-bosqich rivojlanish yo‘lini tanlaganmiz. Biz demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish yo‘lini tanlagen ekanmiz, demokratianing asosiy prinsiplarini, ya’ni jamiyatimizda xalq irodasining to‘la hukm surishi, inson huquq va erkinliklarini qaror toptirish masalalari bugun hayotimizda qay darajada o‘z aksini topmoqda va shu talablarga to‘liq javob berish uchun biz yana nimalarga e’tibor qaratishimiz lozim, degan savollarni oldimizga qo‘ygan holda ta’lim-tarbiya ishlarini olib borishimiz shart.

Jamiyatni yangilash, hayotimizni hech kimdan kam bo‘lmaydigan darajaga ko‘tarish yo‘lida biz ustoz va murabbiylar yosh avlodni har tomonlama yetuk, komil inson etib tarbiyalashimiz, bir yoqadan bosh chiqarib Vatanimizning mavqeい va obro‘yini dunyoda munosib darajaga

ko‘tarish hammamizning muqaddas burchimiz ekanligini anglashimiz lozim. Mustaqillik yillari mohiyatan yurtimiz tarixida sharaqli va o‘ta mas’uliyatli davrni tashkil etdi. Har birimizning hayotimizda, mamlakat taqdirida muhim va keskin o‘zgarishlar yuz berdi. Turmush tarzimiz o‘zgarib bormoqda. Milliy g‘oyamiz bizning iymonimiz mezoniga aylanib, qaramlik, boqimandalik kayfiyatidan ozod bo‘la boshladik va kelajak taqdirimiz o‘z faoliyatimizga bog‘liq ekanligiga ishonch hosil qilmoqdamiz. Yoshlar – yurt qanoti, mamlakat tayanchi. Navqiron avlodga e’tibor kelajakka qo‘yilgan mustahkam poydevordir. Shuni unutmasligimiz kerakki, irodasi kuchli, iymoni mustahkam yoshlar tashqi ta’sirlarga osonlikcha berilmaydilar. Mustaqillikni asrash uni qo‘lga kiritishga nisbatan og‘irroq vazifadir. Bu esa bizdan doimo mustaqillikni asrab-avaylash, ogoh bo‘lish, ilm va kasb egallab, jamiyatga munosib hissa qo‘sib yashashni talab etadi. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Mamlakatimiz bugungi kunda totalitar tuzum hukmronligidan ozod bo‘lib, demokratik jamiyatni qurish sari dadil qadam tashlamoqda. Tabiiyki, jamiyat bir bosqichdan ikkinchisiga o‘tish, yana boz ustiga zo‘ravonlik asosida qurilgan jamiyatdan ma’rifatli, inson manfaatlari, shaxs erkinligi va kamolotiga xizmat qiluvchi demokratik jamiyatga o‘tish oson kechmaydi, chunki eski tuzum illatlari hali saqlanib turadi. O‘z umrini uzaytirish uchun jon-jahdi bilan qarshilik ko‘rsatadi, yangi jamiyat esa qisqa muhlatda qurilmaydi, balki ma’lum vaqtini, unda yashayotgan barcha insonlarning fidoyilik bilan mehnat qilishlarini talab etadi. Xuddi mana shu jarayonda yuzaga kelgan muammolarni hal qilish uchun yuksak ma’naviy e’tiqod va sabr-toqat bilan odamlarni uyushtirish, ular dunyoqarashida yangi jamiyat tafakkurini shakllantirish muhim vazifa darajasiga ko‘tariladi.

Ma’naviyatning inson va millat kamoloti, jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini aniq bilib olish hamda shu asosda uni rivojlantirish uning mohiyati va mazmunini ilmiy tahlil qilishni taqozo etadi. Avvalo, shuni ta’kidlash lozimki, sobiq sho‘rolar tizimi sharoitida ma’naviyat bugungi holatda o‘rganilmagan. U ma’naviy madaniyatning tarmog‘i sifatida yoki olimlar asarlarida tilga olingan, xolos. Bu juda murakkab masalaga shu darajada «e’tiborsizlik» ataylab qilingan. Chunki u shaxs va millatning ichki ruhiy salohiyati bilan bog‘liq bo‘lgan omildir, shuning uchun shaxsning ruhiy olamiga kirib borish, uni mustaqil fikr yuritishga,

millatning esa ma’naviy-ruhiy olamini yuzaga chiqarish, uning o‘zini o‘zi anglashga, o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritish va o‘zi xohlagan taraqqiyot yo‘lidan borishiga yo‘l qo‘ymaslik davlatning rasmiy siyosati darajasiga ko‘tarilgan edi.

O‘zbek xalqi 130 yilcha mustamlakachilik istibdodi ostida yashadi. Bu davr mobaynida uning milliy-ma’naviy merosi poymol etildi. Xalqimizning ongi sal bo‘lmasa ijtimoiy adolatsizlik, ma’naviyatsizlik, nopolik va yovuzlikka qarshilik ko‘rsatolmay yashashga ko‘nikib qolgan edi. Uzoq yillar mobaynida mustamlaka iskanjasida kun kechirgan xalqimiz o‘z tarixiy-ma’naviy merosidan to‘laqonli, erkin-emin foydalanish imkoniyatidan mahrum bo‘lib keldi.

Mustaqillikka erishishimizdan avval, kim Imom al-Buxoriy, Xo‘ja Ahmad Yassaviy, Imom at-Termiziyy, Najmuddin Kubro, Abu Mansur Moturudiy, al-Marg‘inoniy, G‘azzoliy, Naqshband kabi allomalarimizning nomini tilga olar, ular qoldirgan boy ma’naviy merosni o‘rganish imkoniyatiga ega edi? Kim Qur’oni Karimni, hadislarni, din-u islomni erkin o‘qiy va o‘rgana olardi? Kim Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Bobur Mirzo singari ma’naviy madaniyatimizning yulduzlarini bo‘lgan buyuk zotlar nomini erkin-emin tilga olar edi? Kim Abdulla Qodiri, Cho‘lpon, Usmon Nosir, Fitrat, Behbudiy kabi ma’rifatparvar, millatparvar ulug‘zotlarni eslay olardi? Bu kabi savollarning son-sanog‘i yo‘q. Mana shularning o‘zi ham milliy ma’naviyatimizning naqadar toptalganligini ta’kidlovchi misollardir. Faqat mustaqillikni qo‘lga olishimiz sharofati tufayligina ma’naviy merosimizni, ko‘hna va navqiron tariximizni o‘rganish, jahon sivilizatsiyasidagi munosib o‘rnimizni tiklash va demokratik jamiyat qurishdek baxtga musharraf bo‘ldik. Mustaqillikni qo‘lga kiritganimizdan keyingi yillar ichida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy sohalarda katta muvaffaqiyatlar qo‘lga kiritildi. Mamlakatimizda siyosiy barqarorlik vujudga keltirildi, bozor munosabatlariga o‘tib bormoqdamiz, milliy ma’naviy poklanish va tiklanishimizning murakkab vazifalarini vazminlik bilan amalga oshirmoqdamiz.

Mustaqillik yillari Qur’oni Karim o‘zbek tiliga tarjima qilinib ko‘p nusxada chop etildi. Shuningdek, Imom al-Buxoriyning to‘rt jildlik hadislari, Xoja Ahmad Yassaviyning «Hikmatlar» to‘plami, ko‘plab Qur’oni Karim sharhlariga oid kitoblar ham chop etilganligini va ularidan xalqimiz bahramand bo‘layotganligining guvohi bo‘lib turibmiz. Mustaqillik tufayli milliy istiqlolimiz kurashchilarini Abdulla Qodiri,

Cho‘lpon, Fitrat, Usmon Nosir, Behbudiy va boshqalarning nomi tiklandi, asarlari chop etildi, ular tavallud topgan kunlar nishonlanadigan bo‘ldi. Bundan tashqari, o‘zbek tilining davlat tili darajasiga aylanishi borasida bir qator ijodiy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, davlat idoralarida ish yuritish, shaharlarda ko‘chalar va joylarni nomlashda tarixiy haqiqat tiklanmoqda. Ma’naviy merosimiz sanalgan ko‘plab asarlar o‘zbek tiliga tarjima etilmoqda. Xullas, mustaqillik yillarida biz uchun o‘zbek tilining xalq va davlat hayotidagi asosiy ahamiyati va o‘rnini tiklash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Shu tariqa millatning qadr-qimmati, mustaqil davlatimizning qadr-qimmati mustahkamlandi, maktablar va oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek tilini rusiyabon yoshlarning o‘rganishi uchun ham katta imkoniyatlar yaratib berilayotgani barchamizga sir emas.

Mustaqillik yillari ma’naviyatimizning muhim elementi hisoblangan ta’lim va tarbiya tizimiga milliy ruh bag‘ishlashda bir qator ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi va bevosita rahbarligi ostida «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va «Sog‘lom avlod» dasturining qabul qilinishi milliy ma’naviyatimizning yuksalishida, mamlakatimizning kelajakda rivojlangan mamlakatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi, millatimizning obro‘-e’tiborining oshib borishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

1.2. Milliy-ma’naviy qadriyatlar tushunchasi

Qadriyat tushunchasi – juda keng tushuncha bo‘lib, uning bir qismi ma’naviy qadriyatlardir. Milliy-ma’naviy qadriyatlar – «milliylik», «ma’naviyat» va «qadriyat» tushunchalari kesishgan nuqtada jamlangan ijtimoiy hodisalarini o‘z ichiga oladi. «Milliy-ma’naviy qadriyatlar» tushunchasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin: *Muayyan millat, shu millat vakillari uchun zarur va ahamiyatli, aziz va ardoqli bo‘lgan, uning manfaati va maqsadlariga xizmat qiladigan ma’naviy boyliklar, amallar va tamoyillar, g‘oyalalar va me’yorlar milliy-ma’naviy qadriyatlardir.* Har bir xalqning o‘zi uchun e’zozli, qimmatli bo‘lgan ma’naviy boyliklari bo‘ladi. Bular asrlar davomida avloddan-avlodga o‘tib kelgan, hozirgi kunda ham o‘zining ahamiyati va qadrini yo‘qotmagan, shu xalqning iftixon manbaiga aylangan durdonalardir.

Masalan, qirg'iz xalqi «Manas» dostoni bilan, misrliklar qadimiy piramidalar, fransuzlar Parijdagi Luvr saroyi, o'zbeklar Samarqandu Buxoro va Xiva bilan haqli ravishda faxrlanadilar.

Millat va elatlarning o'ziga xos tarixiy merosi, san'ati va adabiyoti bilan bir qatorda ularning urf-odat va marosimlari, madaniy munosabat va axloqiy fazilatlari ham ma'naviy qadriyatlar tizimiga kiradi. Bular xalqning o'ziga xosligini saqlab qolishda, yosh avlodni tarbiyalashda, shaxsning ijtimoiylashuvida muhim rol o'ynaydi. Milliy-ma'naviy qadriyatlarda xalqning dunyoqarashi va hayotga munosabati, ichki tabiatni va turmush tarzi o'z ifodasini topadi. Bularda millatning ruhiy olami va tafakkur tarzi, orzu-umidlari va ideallari, vijdoni va or-nomusi aks etadi. Ma'naviyat jamiyat taraqqiyoti, millat kamoloti va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi, chunki ma'naviyat rivojlangandagina jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik vujudga keladi hamda mamlakat va millat taraqqiy etadi.

Ma'naviyat tushunchasi va uning rivojlanish xususiyatlari

Ma'naviyat ko'proq inson qalbiga, botiniy tomoniga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Shu ma'noda ma'naviyat inson qalbidagi ilohiy bir nur sanaladiki, bu ilohiy nur hech bir jonzotda yo'q. Ma'naviyat shunday sehrli tilsimki, uni tugal yechishga bashar qudrati yetmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ma'naviyat – **insonning ruhiyatini, uning o'z-o'zini anglashi, didi, farosati, adolat bilan razillikni, yaxshilik bilan yomonlikni, go'zallik bilan xunuklikni, vazminlik bilan johillikni ajrata bilish qobiliyatini, aql-zakovatini, yuksak maqsad va g'oyalarni qo'ya bilish, ularni amalga oshirish uchun harakat qilish va intilish salohiyatidir**, – deya ta'rif berish o'rnlidir.

Ma'naviyat inson tug'ilishida ona suti, uning allasi, mehri, ajdodlar qadriyatları ta'siri ostida shakllanadi. Uning shakllanishida oiladagi muhit, jamiyatdagı hamjihatlik, davlat olib boradigan siyosatdagı adolatparvarlik va insonparvarlikning qay darajada amal qilinishi asosiy o'rinni egallaydi. Ma'naviyatning moddiy kuchga aylanishi har bir insonning xatti-harakatlarida, o'z oilasi, millati va Vataniga bo'lган munosabatlarida namoyon bo'ladi. Yuqorida aytganimizdek, uning shakllanishida ota-onasi, inson yashayotgan atrof-muhit, milliy, diniy

qadriyatlar, jamiyatdagi insonparvarlik va adolatparvarlik siyosati muhim ahamiyatga ega.

Odam ota-onadan tug‘iladi, ammo uning axloqi, odob borasidagi fazilatlari, ya’ni ma’naviy dunyosi jamiyatda, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy munosabatlar ta’sirida shakllanadi. Insonning ma’naviy olami, asosan, ijtimoiy taraqqiyotning mahsuli bo‘lsa ham, u o‘z navbatida, jamiyat taraqqiyotiga nihoyatda katta ta’sir ko‘rsatadi, uni belgilab beradigan omillardan biri sanaladi. Odamlarda axloq, odob, iymon, vijdon, halollik, mehnatsevarlik, baynalmilalchilik, insonparvarlik e’tiqodi, vatanparvarlik, milliy va insoniy g’urur tuyg‘usi, burch va mas’uliyatni his qilishi qanchalik kuchli, yuqori bo‘lsa, jamiyat taraqqiyotining zaminlari ham kengayishiga, tinchlik, osoyishtalik, hamjihatlik barqaror bo‘lishiga olib keladi.

Jamiyat taraqqiyotining har bir yangi bosqichi kishilarning ma’naviy kamolotida ham yangi davrning yuzaga kelishidir. Ma’naviyatsiz adolatli, yuksalish imkoniyatiga ega bo‘lgan jamiyat bo‘Imaganidek, jamiyatsiz ma’naviyat ham rivojlanmaydi. Jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalarida mavjud bo‘lgan muammolarini ma’naviyatni rivojlantirish, unga tayanish orqali hal etish mumkin.

Ma’naviyat millatni taraqqiyotga yetaklovchi, davlatning qudratini oshiruvchi muhim omil sanaladi. Chunki qayerda, qaysi mamlakatda ma’naviyat yuksak darajada bo‘lsa, o’sha mamlakatda johillik, hasadgo‘ylik, beparvolik, xudbinlik, yalqovlik, manmanlik, tekinxo‘rlik, g‘iybat qilishlik, ko‘rolmaslik, yovuzlik, tuhmat qilish kabi salbiy illatlar, ma’naviyatsizlik ko‘rinishlariga o‘rin qolmaydi.

Ma’naviyat har doim ma’rifat bilan uyg‘un holatda rivojlanib boradi. Ma’rifat “bilish, bilim, tanish va ma’lumot” degan ma’noni anglatadi. Insoniyatning bir jamiyatdan ikkinchi jamiyatga, bir tarixiy davrdan ikkinchi bir yangi tarixiy davrga o‘tishi ma’rifatparvarlikdan boshlanadi. Zamonaning, millatning eng yetuk, ongli, oq-qorani tanigan, fidoyi, elim, yurtim deb yashovchi, uzoqni ko‘zlovchi ma’naviyatli kishilari ma’rifatparvarlik bilan shug‘ullanganlar. Chunki, ma’rifat ma’naviy qaramlik, qo‘rquv va hadikni bartaraf etadi, insonga beqiyos ilohiy qudrat, mislsiz salohiyat baxsh etadi. Mamlakat, millatning ozodligi uning ma’rifiy uyg‘oqligidadir. Odamzod naslining ulug‘ligi esa bilimdandir.

Bilingki, bilim va ma'naviyat o'ylab ko'rilsa, misoli bir jilov. U insonlarni barcha yomon ishlardan, ya'niki ma'naviyatsizliklardan tiyib turadi. Shu tufayli ota-bobolarimiz, avlod-ajdodlarimiz doimo ma'rifat va ma'naviyatga intilib yashaganlar. Ular ma'naviyat va ma'rifat chiroqlarini mash'ala singari yoqqanlar. Ma'naviyatli odamlarning hammasi ham doimo ma'rifatli, ilmli kishilar bo'lavermaganlar. Shuning uchun xalqimiz: «Olim bo'lma – odam bo'l», – iborasini ishlatib kelgan. Bu ma'naviyat va ma'rifat bir-birini inkor etadi degani emas. Aksincha, ma'naviyat va ma'rifat bir-biriga chambarchas bog'liqdir. Ular bir-birini quvvatlab, o'zaro ta'sirlanib rivojlanib boradi.

Zaminimizda kamol topgan, el-yurtga tanilgan buyuk zotlar, komil insonlar o'zlarida ma'naviyat va ma'rifatni yuksak darajada mujassam etgan allomalar bo'lganlar. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, hozirgi davrda milliy kamolot yo'li komil insonni, sog'lom avlodni voyaga yetkazish yo'lidir. Ma'naviyat va ma'rifat xalqimizning, millatimizning kelajagi uchun suv va havoday zarur.

Ma'naviyat ham o'zining bir qator kategoriyalariga, tushunchalariga va rivojlanish qonuniyatlariga egadir. Uning tushunchalariga shaxsning o'z-o'zini anglashi, bilimdonlik, qalbi tozalik, saxiylik, samimiylilik, xayrixohlik, iymonlilik, halollik, e'tiqodlilik, diyonatlilik, poklik, mehr-shafqatlilik, vijdonlilik, rostgo'ylik, adolatparvarlik, ota-onaga hurmat, oilaga sadoqat, milliy o'z-o'zini anglash, milliy g'urur, millatparvarlik, vatanparvarlik, millat taqdiriga nisbatan mas'uliyatni, milliy manfaat ustuvorligini his etish, milliy til, milliy tarix, adabiyot, san'at, urfodatlar, an'analar, qadriyatlar, davlat qonunlariga hurmat va itoatkorlik, vazminlik, o'z kasbining mohir ustasi bo'lish, mamlakat ichki va tashqi faoliyatidan xabardor bo'lish va uni qo'llab-quvvatlash, mamlakat ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotida faollik va boshqalar kiradi.

Ma'naviyatning yuqorida keltirilgan tushunchalaridan ko'rilib turibdiki, ma'naviyat har bir insonning millat, jamiyat, davlat hayoti, insonlararo bo'ladigan va ijtimoiy hayotga nisbatan bo'ladigan munosabatlarini o'z ichiga oladi.

Yuqoridagilardan tashqari, ma'naviyatning boshqa bir qator tushunchalari ham bor. Bu yerda gap ularning hammasi ustida to'xtash haqida emas, balki ma'naviyatning ko'p qirrali, keng qamrovli ekanligi, u inson ongi, ruhiyati, ichki dunyosining salohiyati, xatti-harakatlari

kabi bir qator masalalarni o‘z ichiga olishini tushunib yetish haqida bormoqda. Ma’naviyatni chuqur tahlil qilishda ana shu ko‘rsatilgan tushunchalarni uyg‘un holda tahlil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ma’naviyat rivojlanishi ham ma’lum qonuniyatlargacha tayanadi. Garchand bunday qonuniyatlar bir necha yo‘nalish va jarayonlarni o‘z ichiga olsa ham, ularni yirik guruhlarga ajratish mumkin. Birinchi guruhga shaxs, millat yoki jamiyatning ichki salohiyati bilan bog‘liq bo‘lgan qonuniyatlar kiradi. Ya’ni shaxs, millat yoki jamiyatning ichki salohiyati mustahkam, zaminlari chuqur bo‘lishi ma’naviyat rivojlanishining asosini tashkil qiladi.

Agar ichki salohiyat nochor bo‘lsa, shaxs barkamollik darajasiga, millatning bir butunligini saqlashga va ayni paytda jamiyatning yuksak taraqqiyot pog‘onasiga erishishiga salbiy ta’sir qiladi. Yana ham aniqroq qilib aytildigan bo‘lsa, ichki salohiyat asosiy tayanch va obyektiv zaruriyatdir. Ichki salohiyatning darajalari esa obyektiv va subyektiv omillar bilan bog‘liq bo‘ladi. Uning rivojlanishi ularning uyg‘un holatda bo‘lishini taqozo etadi. Ichki salohiyatning mustahkam bo‘lishi, tarixiy taraqqiyot bosqichi yoki shaxs shakllanish jarayoni qanday murakkab bo‘lmisin, baribir zaruriy sharoitlar yuzaga kelgan paytda shaxs ma’naviy kamolotini va millatning yuksalishini ta’minalashga xizmat qilaveradi. Ikkinchchi guruh qonuniyatlariga shaxslar va millatlarning o‘zaro munosabatlari jarayonida sodir bo‘ladigan «o‘zaro ta’sir» va «o‘zaro boyitish» orqali namoyon bo‘ladigan jarayonlar kiradi. Ya’ni shaxs ma’naviy kamoloti onadan tug‘ilishi bilan yuzaga kelmaydi. Xuddi shuningdek, millat ham tarixiy taraqqiyotning ma’lum bosqichlarida boshqa xalqlar, millatlar bilan hamkorlik natijasida yuzaga keladi. Hech qachon shaxs, inson o‘zgalarsiz yashay olmaganidek, millat ham boshqa millatlar, xalqlar bilan aloqa qilmasdan taraqqiy qila olmaydi, boz ustiga bugungi kunda dunyoda «sof» millat borligiga hech kim guvohlik yoki kafolat bera olmaydi. Jamiyat ham xuddi ana shu qonuniyat asosida rivojlanadi. Ma’naviyat ana shu o‘zaro munosabatlar va «ta’sirlar» asosida rivojlanib boradi. Bu jarayonda bir tomon ikkinchisiga nimanidir «beradi» va nimanidir «qabul» qiladi. Shunday qilib, ma’naviyat rivojlanishidagi «ta’sir» va «aks ta’sir» qonuniyati mavjud bo‘lib, u ma’naviyatning rivojlanib borishini ta’minalashga xizmat qiladi. Yuqorida ma’naviyatning jamiyat, shaxs va millat hayotidagi muhim o‘rni haqida fikr yuritildi. Ammo uni real hayotga

qanchalik tatbiq qilish yo qilmaslik davlat olib borayotgan siyosat bilan bog‘liq.

1998-yilning 24-iyulida Vazirlar Mahkamasi «Ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» qaror qabul qildi. Yuqorida qayd etganimizdek, Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasida ham jamiyat ma’naviyatini yanada yuksaltirish, islohotlarni amalga oshirishda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi ekanligi yana bir bor qayd etildi. Bu sohadagi muhim vazifalar, oldimizda turgan muammolar va ularni kechiktirmay hal etish zarurligiga xalqimiz e’tibori qaratildi.

II-BO‘LIM **Murabbiy faoliyatining mazmuni**

Talabalar guruhining hayotiy faoliyatida murabbiyning tutgan roli

Murabbiy birinchi kurs talabalarining oliy ta’lim muassasasidagi muhit, yangicha ta’lim olish sharoitlariga ko‘nikishi, o‘quv fanlarini qay tarzda yaxshiroq o‘zlashtirib olish mumkinligini anglab yetishiga yordam beradi. Yuqori kurslarda esa ularga maslahatchilik qiladi, vaqt kelib ilmiy maslahatchi-ustoz bo‘lishadi va shu tarzda talabalarning universitetdagi ta’lim tizimining eng maqbul yo‘llarini tanlashiga ko‘maklashib, yoshlarni to ular oliy o‘quv yurti auditoriyalarini tark etadigan vaqtgacha, kelgusida oliy ma’lumot egasi bo‘luvchi mutaxassislar sifatida mustaqil hayot kechirishga o‘rgatib boradi.

Ijodiy barkamol, yuksak ma’naviyatli shaxsnı voyaga yetkazishdan iborat teran ilmiy yondashuv murabbiyning tarbiya beruvchilik jarayonini tashkil etishdagi asosiy yo‘nalish hisoblanishi kerak. Shu sababli tarbiyaviy ish o‘z shakli, mazmuni va uslublariga ko‘ra, asosan, individual tusga ega bo‘lishi va talabalarning o‘zini-o‘zi rivojlantirishi hamda o‘z qobiliyatlarini namoyon etishlariga qaratilishi lozim.

2.1. Murabbiyning vazifalari

Murabbiyning vazifalari:

- ✓ axborot berishlik;
- ✓ guruhning hayoti va psixologik iqlim barqarorligini tashkillashtira olish;

✓ talabalarning o‘qish faoliyati bilan bog‘liq qiyinchiliklarini hal eta bilish;

✓ talabalar guruhining oliy o‘quv yurtining ichki intizomiga rioya etishini ta’minlash.

ToshDTU murabbiylari – talabalarni ta’lim olayotgan kishilar sifatida pedagogik jihatdan qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq kasbiy vazifani bajaradilar.

Universitet talabalari murabbiylar tomonidan nazorat qilinadi va sirtdan boshqarib turishni talab etadi.

Guruhsda tarbiyalanayotgan talabalarning kamolga yetishi hamda yuksak ma’naviyatli bo‘lishi ko‘p jihatdan pedagog-murabbiyning kommunikativ vakolatliligi va pedagogik mahoratiga bog‘liq. Murabbiy nafaqat tilni yaxshi bilishi, qachonki talabalarni fanga ishontira olsagina tarbiyaviy jarayonga yetarli ta’sir ko‘rsatish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Murabbiy tarbiyachi sifatida o‘z kuch-g‘ayratlarini talabalarda quyidagi his-tuyg‘ularni hosil qilishga qaratadi:

- vatanparvarlik, o‘z xalqi bilan faxrlanish hislari;
- o‘z Vatanining madaniyati va ma’naviyati bilan faxrlanish hislari;
- o‘zining yetakchi ilmiy mакtablaridan biriga, mansubligini his etish va bu bilan faxrlanish hislari;
- qonunga, jamiyat hayotining boshqa normalariga hurmat, fuqarolik va ijtimoiy mas’uliyat hislari;
- yuksak madaniy va ma’naviy qadriyatlarga ehtiyoj hislari.

Tarbiyaviy jarayon murabbiy rahbarligida murabbiy shaxsining o‘zi orqali amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan ma’naviy negiz urug‘larini tarqatishi lozim. Katta mas’uliyat va o‘z rolini anglash bilan qo‘yiladigan va hal etiladigan muammolargina intellektual va uslubiy yechimini topishi mumkin. Yuksak kamolga erishgan murabbiygina o‘zining butun teran ma’naviy yo‘nalishlariga suyanib, pirovard oqibatda hozirgi zamon pedagogikasining konseptual va uslubiy maqsadlarini amalga oshirishi, ya’ni har tomonlama barkamol, kelgusida mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis bo‘lishga qodir talabani tarbiyalashi lozim.

2.2. Murabbiylar faoliyati bosqichlari

Murabbiylar faoliyati texnologiyasi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Tashxis qilish;
2. Rejalashtirish;
3. Murabbiylik faoliyatini tashkil qilish va muvofiqlashtirish;
4. Ish natijalarini tahlil qilish va baholash.

Umuman tarbiyaviy jarayon yoki uning ayrim bosqichlari o‘z maqsadiga erishgan yoki erishmaganligini qanday bilish mumkin? Tabiiyki, buning uchun tarbiyaning loyihalashtirilgan va real natijalarini solishtirib ko‘rish lozim. Qanday oraliq va pirovard natijalarga erishilganligini bilmasdan turib, tarbiyaviy jarayonni rejalashtirish va boshqarish mumkin emas. Tarbiyaviy jarayonning natijalari deganda shaxs yoki jamoaning erishgan tarbiyalanganlik darajasi tushuniladi. Bunday daraja loyihalashtirilgan darajaga muvofiq bo‘lishi va undan farq qilishi ham mumkin. Muvofiqlik darajasini aniqlash uchun tashxis – vaziyatni oydinlashtirish, tarbiyalanganlikning haqiqiy darajasini aniqlashga qaratilgan baholash rusum-qoidalari yordam beradi. Tashxisli o‘rganish ma’lumotlari tarbiyalanganlikning asosiy (boshlang‘ich) tavsifnomalari bilan qiyoslanadi, boshlang‘ich va pirovard natijalar o‘rtasidagi farq tarbiyaviy jarayonning samaradorligini belgilaydi.

Tarbiyalanganlik mezonlari shaxs (jamoada har xil xususiyatlarning shakllanishi darajasining nazariy jihatdan ishlab chiqilgan ko‘rsatkichlaridir. Agar xususiyatlarning namoyon bo‘lishi darajasiga shartli miqdoriy baholar beriladigan bo‘lsa, unda natijalarni qiyoslash va hisoblab chiqish, tarbiyalanganlik darajalarini xuddi ta’limda erishilgan yutuqlarni testdan o‘tkazish orqali aniqlashdagi kabi sonlar bilan ifodalash mumkin.

Tarbiyalanganlik natijalarining belgilanishi ham aynan testdan o‘tkazishga o‘xshaydi, faqat bunda shunday farq mavjud: bu holda nazariy topshiriq emas, balki tarbiyalanuvchining muayyan vaziyatdagi amaliy fe’l-atvori, uning talab qilinadigan harakatlarni ushbu shaxsda muayyan xususiyatlarning borligi yoki yo‘qligidan dalolat beruvchi tarzida bajarishi test bo‘lib xizmat qiladi.

Tarbiyalanganlik mezonlarini shartli ravishda “qat’iy” va “silliq” mezonlarga bo‘lish mumkin. “Qat’iy” mezonlar pedagogikada nisbatan

kam ishlataladi; keyingi yillarda bunday mezonlarni qo'llashda aniqlanadigan muammolar (aniqrog'i, tarbiyasizlik) haqida ko'p ham gapirilmas edi.

Ko'plab tarbiyalanganlik mezonlari orasidan ularning ikki guruhini: *mazmuniy* va *baholash* mezonlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Mazmuniy mezonlar o'rganilayotgan xususiyatga adekvat bo'lган ko'rsatkichlarning ajratilishi, baholash mezonlari esa tashxis qilinayotgan xususiyatning namoyon bo'lishi intensivligini ko'proq yoki kamroq darajada aniq qayd qilish imkoniyati bilan bog'liq.

Pirovard natijalarni – shaxs yoki jamoaning erishilgan tarbiyalanganlik darajasini tashxis qilish uchun yana *umumiy mezonlar* va ayrim xususiyatlar, belgilar va sifatlarning hosil qilinishi bilan bog'liq oraliq natijalarni tahlil etish uchun *xususiy mezonlar* ham qo'llaniladi. Umumiy mezonlar maqsadda ifodalangan talablarni, xususiy mezonlar esa tarbiyaviy jarayonning aniq natijalarini aks ettiradi.

Tarbiyalanganlik mezonlari yo'nalishi, usuli va qo'llanish joyiga qarab shartli ravishda ikki guruhga bo'linadi: 1) tarbiya natijalarining tashqi shaklda – shaxsning fikrlarida, baholarida, amallarida, xattiharakatlarida namoyon bo'lishi bilan bog'liq va 2) tarbiyachining nigohdan yashiringan voqeа-hodisalar – motivlar, e'tiqodlar, rejalar, yo'nalishlar bilan bog'liq mezonlar.

Tarbiyalanganlik natijalarining namoyon bo'lishini baholash uchun ishlatalidigan ayrim amaliy tashxis qilish uslublarining mazmunini ochib beramiz. Tarbiyanuvchilarning fe'l-atvor normalari va qoidalari haqidagi tasavvurlari, ularning tarbiyachini qiziqtiradigan boshqa barcha masalalar haqidagi fikrlari, hukmlari, baholari ular yordamida o'rganiladi. Amaliyotda ko'pincha: "Halollik nima?", "Kishilarga ma'naviyat nima uchun kerak?" kabi va boshqa shunday savollar to'g'ridan-to'g'ri qo'yiladi.

Bunday savollarga javoblar tarbiyachiga va tarbiyanuvchining o'ziga turli xususiyatlarni yaxshiroq bilib olish, ular haqida fikr yuritishga yordam beradi. Tarbiyanuvchilarning u yoki boshqa dalillar, harakatlar, hodisalarga qanday munosabatda bo'lishini aniqlash uchun: "Sen qaysi kasblarni eng nufuzli kasb deb bilasan?" kabi og'zaki yoki yozma shakldagi maxsus savollar beriladi. Bunday savollar erkin dalillangan javobni talab qiluvchi ochiq savollar yoki muqobil

javoblardan birini tanlashni nazarda tutadigan yopiq savollar bo‘lishi mumkin.

Baholovchi hukmlarni tashxis qilish uchun berilgan mavzu bo‘yicha yoziladigan: “Mening idealimdagи zamondoshim”, “Sahovatpeshalikni men qanday tushunaman” kabi va boshqa mavzulardagi insholar ham keng qo‘llaniladi. Bunday ishlarning qimmati shundaki, ular shaxsning ichki pozitsiyalarini, ularning shubha-gumonlari, o‘zgarishlari va fikrlarini aks ettiradi. Biroq keyingi paytda yoshlarning ichki pozitsiyasi bilan ushbu pozitsiyaning ifodalanishi o‘rtasidagi tafovut kuchaydi, insholarda ravshan fikrlash kamaydi, shuning uchun ularning diagnostik vosita sifatidagi qimmati ham pasaydi. Lekin yoshlar o‘z fikrmulohazalarini og‘zaki shaklda dadil ayta oladi.

Tarbiyalanuvchilarning bir qismi qo‘yilgan savollarga to‘g‘ri javob berishdan bo‘yin tovlash, neytral yoki murosasizlik pozitsiyasini tutishdan iborat intilishlarini tavsiflaydigan “jimjitlik” pozitsiyasi ham diagnostik ahamiyatga ega. Tarbiyalanuvchilarning fe’l-atvori va ularni ifodalash usullarini kuzatuvlar shaxsiy suhbatlarda tekshiriladi va, albatta, shu tarzda o‘zgartiriladi: jumladan sotsiometrik, ichki pozitsiyani aniqlash uslublari qo‘llaniladi. Faqat tashxisiy uslublar majmuigina zarur xususiyatlarning shakllantirilishi darajasi haqida tasavvur hosil qilishga imkon beradi.

Shaxsning ichki hissiyotining fe’l-atvorida namoyon bo‘lib, inson olgan tarbiyasiga muvofiq holda amal qiladi. Pedagogika fe’l-atvorni tashxis qilishning samarali usuli, tarbiyalovchi vaziyatlar uslubini qo‘llashidir. Bu uslub bir vaqtda ikki vazifani:

1) Talab qilinadigan xususiyatlarning rivojlanganlik darajasini tashxis qilish;

2) Bunday xususiyatlarni tarbiyalash vazifalarini hal etadi.

Tarbiyalovchi vaziyat qayd qilib o‘tilganidek, bu tabiiy yoki oldindan ataylab yaratilgan vaziyat bo‘lib, tarbiyalanuvchi unda harakat qiladi va o‘z amallari bilan unda muayyan xususiyatlarning shakllanganligi darajasini namoyon etadi.

Keyingi yillarda ilg‘or pedagogika amaliyoti muammoli tarbiyalovchi vaziyatlarni yaratishga ko‘proq intilmoqda. O‘quvchilar qo‘yilgan muammolarni hal etishi, tarbiyachi esa jamoa va uning har bir a’zosi ayni shu bosqichda qanday holatda ekanligini baholaydigan, tarbiyaviy jarayonni to‘g‘ri quradigan vaziyat sun’iy ravishda yaratiladi.

Vaziyatlarning quyidagi: 1) tekshiruvchi; 2) tarbiyalovchi; 3) nazorat qiluvchi; 4) mustahkamlovchi; 5) tarbiyachi nazarda tutmagan, lekin unga yordam beradigan; 6) tarbiyachi nazarda tutmagan, unga xalaqit beradigan yoki zararli turlari ajratib ko'rsatiladi.

Tarbiyadagi muammoli vaziyat butun jamoa uchun va alohida shaxs uchun ham yaratilishi mumkin. Lekin har ikkala holatda ham u faqat yechimi tarbiyalanuvchilar uchun juda qiziqarli bo'lgan vazifalar ko'rib chiqilganida ijobiy natija beradi. Bunday qiziqish tarbiyalanuvchilarga ta'sir qilish, binobarin, ijobiy ma'naviy fazilatlarni tarbiyalashga imkoniyat yaratadi.

Shuni esda tutish kerakki, tarbiyalanganlik darajasini baholash uchun shaxsning ayrim xususiyatlari emas, balki uning umumiyligi ma'naviy yo'naltirilganligi asos qilib olinishi lozim. Shaxsning ayrim xususiyatlarini fe'l-atvor motivlari bilan bog'liq holda ko'rib chiqish zarur, chunki motivga sababchi bo'lgan qilmish yoki harakat tarbiyalanganlik darajasini adekvat tavsiflay olmaydi. Ma'lumki, ba'zan kishining tarbiya ko'rganligidan dalolat beradigan insonparvarlik amallari ham aslida eng yaxshi niyatlar asosida kelib chiqmasligi mumkin. Boshqacha sharoitlarda, o'zgacha vaziyatlarda fe'l-atvor o'zgarib ketishi ham mumkin.

2.3. Murabbiy faoliyatining rejalashtirilishi

Tarbiyaviy ishlarning rejalashtirilishi, murabbiy faoliyatining pedagogik modellashtirilishidir. Rejalashtirish nafaqat pedagogik vaziyat rivojidagi noaniqlikni kamaytirishga, shu bilan birga, bugungi va ertangi harakatlarning davomiyligini ta'minlash, shuningdek, talabalarga ta'lim berish va tarbiyalash jarayonlari kechishini tartibga solishga imkon beradi. Chunki reja tadbirlarning oldindan belgilangan tizimi bo'lib, u ushbu tadbirlar tartibi, izchilligi, bajarish muddatlari va nazarda tutiladigan mas'ullarni (talabalar, pedagoglar,murabbiylarni) nazarda tutadi.

Reja quyidagilarni bajarishga imkon beradi:

- tarbiya maqsadi, strategik va taktik vazifalarni aniq idrok etish;
- tarbiyaviy ishlar mazmunini aniq maqsadni ko'zlab ishlab chiqish, vositalar va tashkiliy shakllarni tanlash;

- o‘z faoliyati natijalarini prognoz qilish, bunda jamoa va har bir shaxs rivojidagi olg‘a qo‘yilgan harakatlarni rejalashtirish va o‘zgartirish.

Rejalashtirish talabalar bilan ishslash davrida hech tugamaydigan, faqat tarbiyaviy ish rejasini tuzish bilan cheklanib qolmaydigan ijodiy jarayondir. Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish pedagog, murabbiy talabalar jamoasi va oliy o‘quv yurti ma’muriyatining hamkorligiga, ularning bирgalikdagi faoliyatidagi maqsadlari va vazifalarini idrok etishiga, talabalar hayotini yanada qiziqarli, foydali, ijodiyot bilan shug‘ullantirishga rag‘batlantirish istagiga asoslanadi.

Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishdan oldin quyidagi ishlar bajariladi:

- hozirgi davrda tarbiya sohasidagi vazifalarni belgilaydigan davlat hujjatlari bilan tanishish;

- talabalar guruhining yoshi, rivojlanish darajasi, tarbiya shart-sharoitlari, tarbiyachining shaxsiy salohiyati asosida maqsadlar va vazifalarni belgilash;

- tarbiya dasturi bilan tanishish, istiqboldagi ishlarni pedagoglar bilan muhokama qilish va kelishish;

- o‘tgan yildagi ishlarni tahlil etish;

- kelgusi o‘quv yilidagi taqvimiylar muhim sanalarni o‘rganish, o‘quvchilarni tarbiyalash uchun xizmat qiladigan eng qiziqarli va foydali sanalarni tanlab olish.

Tarbiya dasturi pedagoglarning berilgan tarbiyaviy maqsadga doir natijaga erishish bo‘yicha zarur va yetarli kasbiy faoliyati mazmunidir. Uni tuzish uchun aniq ifodalangan tarbiyaviy maqsad asos bo‘ladi. Faoliyatning dasturiy mazmunining bajarilishi qo‘yilgan maqsad sari harakatga aylanib, unga erishish sur’atlari va choralar muayyan ta’lim muassasasining aniq vaziyatlariga bog‘liq bo‘ladi.

Tarbiyaviy jarayon mazmunining belgilanishi tarbiya dasturini, qanday kasbiy faoliyat uchun majburiy bo‘lgan va har qanday kasb sohibiga tegishli hujjatdir.

Pedagog, murabbiy talabalar bilan tarbiya dasturi bo‘yicha ishni tashkil qilar ekan, tarbiyalanuvchilarning madaniy turmush qadriyatlarini bosqichma-bosqich ijtimoiy-psixologik va umumiylar ma’naviy o‘zlashtirishi va egallashini uyushtiradi. Murabbiy o‘z ishini talabaning rivojlanish darajasiga muvofiq ravishda olib borishi uchun butun tarbiya dasturini bilishi lozim. Tarbiya dasturida pedagogika

strategiyasi asos qilib olingan bo‘lib, taktikani murabbiy o‘z imkoniyatlari va tarbiyalanuvchilarning kuchiga qarab individual ravishda tanlaydi.

O‘quv dasturlaridan farqli tarzda tarbiya dasturini oliy o‘quv yurtining hamma pedagoglari bilishi shart. Pedagogning ish rejasi tarbiyaga nisbatan madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan yondashuvining amalga oshirilishiga misol bo‘ladi. U yo‘riqnomha ham, tavsiyanoma ham, me’yoriy farmoyish ham emas. Ish rejasi faqat tarbiyani tashkil etish muammosi yechimining amaliy hal etilishi variantlaridan biriga misol bo‘ladi.

Faoliyatning rejalarshirish murabbiyning yil davomida bajaradigan ishlari yuzasidan individual rejani ishlab chiqishi asosida amalga oshirilishi mumkin.

Rejalarshirishdan maqsad akademik o‘quv guruhida har bir talabaning ma’naviy salohiyatini rivojlantirishga, bilishga oid qiziqishlarini rag‘batlantirishga ko‘maklashadigan hamda atrofdagi ba’zi ijtimoiy doiralarning talaba ruhiyatiga ehtimoliy salbiy ta’sirlardan xoli eta oladigan alohida ijtimoiy-psixologik muhitni tashkil etishdir.

Qo‘yilgan maqsadga erishishda muloqot, munozaralar, muammolashtirish usullari qo‘llaniladi. Faqat murabbiy ana shu qo‘yilgan muammolarning yechimidan chinakamiga manfaatdor bo‘lganida ular yuksak samara keltirishi mumkin. Faqat murabbiyning samimiyligi, boshqa kishilar bilan haqiqiy oshkora mushohada yuritishi talabalarda ishonch hissini hosil qilishi mumkin.

Bunday maqsadga erishish vositalari: tabiat obyektlari, san’at asarlari, oshkora shaxslararo munosabatlardan iborat bo‘ladi. Murabbiy faoliyatini amalga oshirish shakllari quyidagilardir: hamkorlik, muvofiglashtirish, guruhning va yakka shaxslarning ishlarini birgalikda olib borish. Qo‘yilgan maqsadga yuqorida bayon qilingan ish uslublari, vositalari va shakllari yordamida erishish imkoniyatini hisobga olib, guruhda o‘tkaziladigan tadbirlarning aniq rejasi tuziladi. Talabalarning taqvimiylar, joriy, an’anaviy va yangi voqealari munosabati bilan amalga oshiradigan faoliyati bunday rejaning asosiy qismini tashkil etadi. Rejalarshiriladigan sayohatlar, qiziqarli shaxslar bilan bo‘ladigan uchrashuvlar va shu kabilarni ham ushbu rejaga kiritish kerak bo‘ladi.

Murabbiy faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirish bosqichlari

Ushbu bosqich ikki yo‘nalishda bajariladigan ishlarni nazarda tutadi:

1. Aniq tadbirlarni o‘tkazish bo‘yicha keng miqyosli rejalarini ishlab chiqish va talabalarning bu rejani amalga oshirishiga doir faoliyatini muvofiqlashtirish;

2. Tarbiyaviy ishlarning yagona konsepsiyasini ishlab chiqish uchun dekanat, jamoat tashkilotlari, zarur bo‘lganida ota-onalar bilan aloqalarni o‘rnatish.

Ish yakunlarini tahlil qilish va baholash usullari hamda vositalari

Murabbiy bajaradigan ishlar davrining ushbu yakunlovchi bosqichi o‘quv yili tugallanganidan keyin jamoadagi shakllangan bir xillilik darajasi, shaxslararo munosabatlarning holatini aniqlash, shuningdek, murabbiyning kasbiy vakolatlari va uning tarbiyachi sifatida kamolga yetganligi to‘g‘risida xulosa chiqarishga imkon beradigan so‘rovnomalar, testlar va kuzatuvlarning o‘tkazilishini nazarda tutadi.

2.4. Murabbiy faoliyati sifatini belgilovchi mezonlar

Murabbiy faoliyatini aniq maqsadga yo‘naltirilganlik, motivatsiyaga ega bo‘lishlik, mahsuldarlik tavsiflaydi. Murabbiy faoliyati natijalariga muvofiq keladigan mahsuldarlik asosiy tavsifnomadir.

Muayyan ta’lim muassasasidagi tarbiya tizimi samaradorligini o‘rganishning diagnostik vositalari umumiylar xususiyatlarga va ushbu muassasaning o‘ziga xos xususiyatlari, betakrorligi, tevarak-atrofdagi ijtimoiy va tabiiy muhit, tarbiyaviy munosabatlarni o‘rnatish tusiga qarab alohida xususiyatlarga ham ega bo‘lishi kerak.

Masalan, quyidagi mezonlar ham qo‘llanilishi mumkin:

- talaba shaxsining o‘zini-o‘zi faollashtirganligi;
- talaba shaxsining ma’naviy yo‘naltirilganligini shakllantirish;
- ta’lim oluvchilarining kreativ qobiliyatları rivojlanganligi;
- tarbiyalanuvchilarining oliy o‘quv yurtidagi hayotiy faoliyatdan qoniqishi;
- jamoa a’zolarini tushunishda bilimdonligi.

Quyidagi dastur hamkorlik pedagogikasi asoslarini amalgam oshiruvchi oliy ta’lim muassasasidagi tarbiyaviy jarayonni tahlil etish rejasи tuzilmasи haqida tasavvur beradi.

Tarbiyaviy jarayon samaradorligini tahlil qilish dasturi.

1. Tarbiyaviy jarayonning ma’naviy va ijodiy jihatdan aniq maqsadga yo‘naltirilganligi:

- talabalarning harakatlari, faoliyat natijalari va munosabatlari tahlili;
- talabalarning ijodiy fazilatlarini rivojlantiruvchi tadbirlarni rejalashtirish va o‘tkazish.

2. Guruhdagi demokratik o‘zaro munosabatlar:

- bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, oliy o‘quv yurti qoidalariga rioya qilish;
- talabalar huquqlarini hisobga olish, baholash taktikasi, yutuqqa erishish vaziyatini ta’minlash;
- majburlashni yo‘qotish, o‘zaro ishonchni nazorat qilish;
- talabalar qiziqishlarini rivojlantirish.

3. Talabalarning qiziqishlari va ehtiyojlarini o‘rganish, ota-onalar bilan hamkorlik asosida talaba shaxsini loyihalashtirish:

- pedagogik kartalar yordamida talaba shaxsini o‘rganish va uning xususiyatlarini baholash;
- individual maslahatlar va tarbiyalovchi mashg‘ulotlar.

4. Ijodiy faoliyatning yetakchi roli:

- jamoa shaklidagi ijodiy ishlarni tashkil etish;
- tarbiya mashg‘ulotlarida va tadbirlardagi ijodiy vaziyatlar hamda topshiriqlar;
- individual ijodiy ishlar.

5. Hayotiy faoliyat madaniyatining kompleks tarbiyalanishi:

- tarbiyaning jamoachilik, guruhli va individual shakllarini oqilona qo‘sib olib borish;
- sog‘lom turmush tarzini tarbiyalash;
- fe’l-atvor madaniyati qoidalarini o‘rganish va bajarish;
- umumiyl madaniyatni tarbiyalash;
- ekstremal vaziyatlardagi fe’l-atvor qoidalarini tarbiyalash;
- ijtimoiy muammolarni hal etishga o‘rgatish;
- kasbiy yo‘naltirish.

6. Talabalarning jamoadagi hayotini o‘zini-o‘zi boshqarishi asosida ularning ijtimoiy ijodkorligi:

- pedagogik xarita yordamida akademik guruhni rivojlantirish muammosini tahlil etish va o‘zgartirish;
- guruhdagi o‘zini-o‘zi boshqarishni tashkil etish va rivojlantirish;
- guruhda an’analarni yaratish va rivojlantirish;
- ijtimoiy ahamiyatga ega ishlarni o‘tkazish.

2.5. Murabbiyning kasbiy xususiyatlari

Murabbiyning muhim kasbiy fazilatlari:

- ✓ umumiyligi va pedagogik bilimdonlik;
- ✓ amaliy va diagnostik fikrlash;
- ✓ pedagogik intuitsiya;
- ✓ pedagogik kuzatuvchanlik;
- ✓ optimizm;
- ✓ pedagogik topqirlilik;
- ✓ pedagogik sezgirlik, uzoqni ko‘ra olish;
- ✓ pedagogik refleksiya.

Murabbiyning kasbiy roli uning individual, shaxsiy, subyektiv xususiyatlari tizimini nazarda tutadiki, ularning shularga mos bo‘lishi ushbu kasbiy vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishiga yordam beradi va murabbiyning o‘z rolini ijro etishi uslubiga ta’sir ko‘rsatadi.

Murabbiyning kasbiy qobiliyatiligi

Murabbiyning kasbiy qobiliyatiligi darajalarining tavsifnomalari:

1. Samarasizlik

Murabbiy talabalarni qiziqtiradigan masalalar yuzasidan o‘zi tashabbuskorlik va manfaatdorlik namoyon qilmay, ularga murojaat qilishni talabalarning o‘zlariga havola etadi.

2. Kam samaradorlik

Murabbiy talabalarni qiziqtiradigan masalalar yuzasidan ularga yordam ko‘rsatish, o‘zi ham tashabbuskorlik namoyon qilishni xohlaydi, lekin bunday vaziyatni psixologik jihatdan tahlil etish va talabalarning ehtiyojlarini tushunish, keskin masalalar va nizolarni hal

etish uchun uning o‘z bilimlari har doim ham yetarli bo‘lavermaydi. Ba’zan u o‘z intuitsiyasiga tayanib, vaziyatga mutanosib ravishda muvaffaqiyatli ish yuritishi ham mumkin.

3. O‘rtacha mahsulli

Murabbiy ayrim tashkilotchilik usullari va talabalar yoshlarining psixologik-fiziologik xususiyatlari va ularning ehtiyojlari hamda tahsil olish usullari, ayrim nizoli vaziyatlarni hal etishning o‘ziga xos xususiyatlari sohasidagi yaxlit tizimsiz bilimlarga ega bo‘ladi. Lekin u o‘zining bu sohalardagi to‘liqsiz va yaxlit tizimga ega bo‘lmagan bilimlarini yanada boyitishga urinmaydi.

4. Samaradorlik

Murabbiy zarur bilimlarga ega bo‘ladi, vujudga keladigan chigal vaziyatlarni hal qilishda bunday bilimlarning asqotishini yaxshi tushunib, ularni amalda qo‘llaydi va ularni izchil boyitib borishga intiladi. Rasmiy vazifalari doirasidan chetlashmasdan ish yuritadi.

5. Yuksak samara

Murabbiy murakkab vaziyatlarni talabalarni va o‘zini o‘zi rivojlanirishga doir vazifa sifatida ko‘rib chiqadi. U nafaqat o‘z bilimlarini amalda qo‘llash maqsadida har doim boyitib boradi, shu bilan birga vujudga keladigan vaziyatlarga nisbatan ijodiy nuqtayi nazardan yondashadi, ko‘pincha uning o‘zi talabalarning rivojlanishiga yordam beradigan vaziyatlarni hosil qiladi.

Murabbiylar toifalari

Murabbiylar o‘zlari uchun belgilanadigan vazifalar doirasiga qarab ularning quyidagi bir necha turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

➤ “**Axborotchi**” – **murabbiy**. U talabalarga zarur axborotlarni (qandaydir tadbirlar va boshqalar haqidagi) o‘z vaqtida yetkazishni yagona vazifasi deb hisoblaydi. U talabalarni yetuk yoshdagi va mustaqil kishilar deb hisoblab, guruh hayotiga aralashishga ehtiyoj sezmaydi.

➤ “**Tashkilotchi**” – **murabbiy**. U guruh hayotini qandaydir o‘quv jarayonidan tashqari tadbirlar (kechalar, teatrga tashriflar va shu kabilar) yordamida uyushtirish kerak, deb hisoblaydi. U guruh yetakchisini saylashda ishtirok etishni vazifasiga kiradi deb biladi, guruhda yuz

beradigan shaxslararo nizolar uchun mas’uliyat hissini sezadi va ularning yechimiga aralashishga harakat qiladi.

➤ “**Psixolog**” – **murabbiy**. Talabalarning shaxsiy muammolari uchun astoydil qayg‘uradi, ularni dil so‘zlarini oshkor etishga undaydi va mutlaqo jiddiylik bilan tinglaydi, o‘z maslahatlari bilan yordam berishga urinadi. Talabalarni psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash uchun vaqtini ayamaydi, o‘zaro yaqin aloqalarni o‘rnatadi va kechakunduz talabalar muammolari ustida bosh qotirib yurishi sababli biroz emotSIONAL tanglikni ham boshidan kechirishi mumkin.

➤ “**Ota-onasifatidagi**” – **murabbiy**. Talabalarga nisbatan ularning ota-onalari rolini bajarishni o‘z zimmasiga oladi. U talaba yoshlarni haddan ortiq nazorat qiladi, ba’zan tashabbus ko‘rsatishga qo‘ymaydi. Talabalarning oilaviy va shaxsiy ishlarini hal qilish yuzasidan ularga psixologik jihatdan yordam berish nuqtayi nazaridan emas, balki qat’iy nazorat qiladigan, o‘ziga so‘zsiz bo‘ysunishni talab etadigan ota-onasifatida yondashadi. Ular ko‘pincha katta yoshdagi kishilar toifasiga kirib, talabalar bilan munosabatlarida hayotiy tajribalarini asos qilib keltiradilar.

➤ “**Og‘ayni sifatidagi**” – **murabbiy**. Talabalar guruhi boshdan kechirayotgan tashvish-u muammolar uni ham birdek qiziqtiradi, u ham guruhning ko‘plab tadbirlarida ishtirok etishga harakat qiladi. Talabalar murabbiyga nisbatan guruhning bir a’zosi sifatida munosabatda bo‘ladilar, uni hurmat qilishadi, lekin u kerak bo‘lganida muayyan talablar bilan o‘zaro oraliqda biroz masofa qolishi kerakligini anglamaydi. Ko‘pincha yosh o‘qituvchilar yoki murabbiylik vazifasini bajarayotgan aspirantlar shunday toifani tashkil qiladi.

➤ “**Beg‘am talaba sifatidagi**” – **murabbiy**. Biror vazifani bajarish zaruratini his qilmaydi, o‘z vazifalari doirasini aniq bilmaydi. U o‘zini faqat rasmiy jihatdan murabbiy deb hisoblaydi va ko‘pincha hatto o‘z tasarrufidagi talabalar guruhining qandayligi va uning qanday hayot kechirishini ham yaxshi anglamaydi.

➤ “**Ma’muriyatchi**” – **murabbiy**. Talabalarning darslarga kelmayotganligi haqida ma’muriyatni xabardor qilib turish, davomatni hisobga olib borish, dekanatning talabalarini talabalarga yetkazib turishni asosiy vazifasi deb hisoblaydi. Asosan, nazorat qiluvchilik funksiyasini bajaradi, lekin “ota-onasifatidagi” murabbiydan farqli ravishda u

bunday funksiyani rasman, shaxsiy manfaatdorliksiz va talabalar guruhining qiziqishlarini anglamasdan turib ijro etadi.

2.6. Murabbiyning kasbiy layoqatliligi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- talabalarning ruhiy sog‘lomligi va shaxsining rivojlanishini qo‘llab turish qobiliyati;
- zaruratga qarab ruhiy tashxis o‘tkazish; moslashish jarayonida talabalarga yordam ko‘rsata olish;
- talabalar va pedagoglar jamoalarida qulay ijtimoiy-ruhiy muhitni shakllantirishga ko‘maklashish;
- kuchli emotsional zo‘riqish, ziddiyat, muammoli stress holatidagi talabalarga psixologik yordam bera olish;
- sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, talabalar o‘rtasidagi jamiyatga zid hodisalarning oldini olishda qatnashish;
- talabalarda ijtimoiy yetuklik va kasbiy ahamiyatli sifatlarini rivojlantira olish;
- iqtidorli talabalarni topish va ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantira olish;
- o‘z kasbiy bilimlari va malakalarini bir tizimli asosda oshirib borish.

Tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar

Quyidagilar gumanistik tarbiyaviy tizim sharoitida guruh murabbiyi faoliyatining samarador bo‘lishiga yordam beradi: jamoa shaklidagi pedagogik faoliyatni tashkil etish; talabalar va professor-o‘qituvchilar uchun psixologik qulaylik muhiti, ular o‘rtasidagi hamkorlik munosabatlari; o‘qituvchilarning tarbiyaviy tizimni takomillashtirishda ongli ravishdagi ishtiroki; har bir oliy o‘quv yurtida talabalar guruhlari murabbiylarini o‘qitish va ularni uslubiy ta’minlash tizimining mavjudligi.

Tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish va olib borish umuminsoniy qadriyatlarga yo‘naltirilgan bo‘lishi, har bir mamlakat, har bir xalq tajribasida mavjud narsalarni inkor qilmay, aksincha bunday tajribani

har tomonlama faollashtirishi kerak. Ana shu ko'rsatmaga muvofiq o'quv-tarbiyaviy jarayon maqsadlari ham o'zgartirilishi lozim. Murabbiylarning tarbiyaviy sohadagi sa'y-harakatlari va tashkiliy chora-tadbirlari ta'lim oluvchining faolligi va tashabbuskorligini uyg'otish, talabalarga nisbatan pedagogika va hamkorlikning asosiy tamoyillarini qo'llanishini nazarda tutadi. Pedagogikaning asosiy tamoyillari murabbiy tayanadigan asosiy mezonlar bo'lishi lozim. Insonning kamolga yetishi ichki va tashqi, boshqariladigan va boshqarilmaydigan ijtimoiy va tabiiy omillar ta'sirida uning shaxsini shakllantirish jarayonidir. Keng ma'noda tarbiya shaxsning intellekti, uning jismoniy va ma'naviy kuchlarini shakllantirish, uni hayotga, kasbiy faoliyatda faol ishtirok etishga tayyorlashdan iborat aniq maqsadni ko'zlaydigan jarayondir. Tor ma'noda tarbiya tarbiyachining tarbiyalanuvchilarda kishi va tevarak olamdagи hodisalarga murosali munosabatini shakllantirish maqsadida ularga bir tizimli va aniq maqsadli ta'sir etishdir.

Tarbiyaviy jarayon ko'p jihatdan aniq maqsadga qaratilgan tusga ega. U tarbiyaviy kuch-g'ayratlarning muayyan yo'nalishini, ularning pirovard maqsadlarini idrok etishni nazarda tutadi, shuningdek, bunday maqsadlarga erishishning mazmuniy jihatni va vositalarini o'z ichiga oladi. Tarbiya jarayoni talabalarning axloqiy, aqliy, ma'naviy, fuqarolik, huquqiy, ijodiy jihatdan shakllanishlariga ta'sir ko'rsatadi.

Murabbiyning tashkiliy va tarbiyaviy faoliyati tarbiya uslublarini tanlashni taqozo etadi. Tarbiya uslubi (grekchadagi "metodos" yo'so'zidan) – bu tarbiyaning berilgan maqsadiga erishish yo'lidir.

Tarbiya uslublari o'z tusiga ko'ra ishontirish, mashq qilish, rag'batlantirish va jazolashga bo'linadi. Ushbu holda "uslub tusi" uslubning yo'naltirilganlik, qo'llaniluvchanlik, o'ziga xoslik va boshqa jihatlarini o'z ichiga oladi. Tarbiya umumiylarining tusini ancha umumiylarini talqin etuvchi yana bir tizimi ana shu tasnifga juda yaqin keladi. U ishontirish, faoliyatni tashkil etish, fe'l-atvorni rag'batlantirish uslublarini o'z ichiga oladi. Ayrim tadqiqotchilarining tasniflashida tarbiyalash uslublarining izohlovchi reproduktiv, muammoli-vaziyatli guruhlari, o'rgatish va mashq qilish, rag'batlantirish, to'sib qo'yish, rahbarlik qilish, o'zini- o'zi tarbiyalash uslublari ham qayd qilingan.


Tarbiyalanuvchiga ta'sir ko'rsatish uslublarini ularning natijalariga qarab ikki sinfga bo'lish mumkin:

1. Ma'naviy ko'rsatmalar, munosabat bildirish motivlarini yaratishga, tasavvurlar, tushunchalar, g'oyalarni shakllantiruvchi ta'sirlar.

2. Odatlarni yaratuvchi, fe'l-atvorning u yoki boshqa turini belgilovchi ta'sirlar.

Hozirgi vaqtda tarbiya uslublarini yo'naltirilganlik – integrativ tavsifnomada asosidagi tarbiya vositalarining maqsadli, mazmuniy va protsessual jihatlarini yaxlit holda o'z ichiga oladigan tasniflash eng obyektiv va qulay usuldir. G.I.Shchukina tomonidan tavsiya etilgan ushbu tavsifnomaga muvofiq tarbiya uslublarining uch guruhi ajratib ko'rsatiladi:

1. Shaxs ongini shakllantirish uslublari;
2. Faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy fe'l-atvor tajribasini shakllantirish uslublari;
3. Fe'l-atvor va faoliyatni rag'batlantirish uslublari.



2.7. Pedagogik boshqaruv uslublari


Murabbiy talabalar guruhiga rahbarlik qilish uslubini tanlashda yetakchilikning: avtoritar, demokratik va o‘zibo‘larchilik turlari haqidagi bilimlarga asoslanishi kerak.

1. Liberal (loqayd) uslubida ish kam bajariladi va uning sifati ham yomon bo‘ladi. Talabalar mashg‘ulotlardan zavqlanmaydi, ular o‘rtasidagi munosabatlar o‘zgarishsiz qolaveradi.

2. Demokratik uslub birmuncha samarali. Talabalar birlashuvi, do‘stlashishi, o‘qishni mustaqil nazorat qilishi mumkin. Umumiylar yutuqlar uchun faxrlanish hissi, o‘ziga ishonch, yaxshiroq ishlashga istak paydo bo‘ladi. Ishni bajarish sifati va o‘ziga xosligi oshadi. Biroq miqdoriy natijalar avtoritar uslubdagiga nisbatan kam bo‘ladi.

3. Avtoritar uslubda o‘zaro munosabatlarda dushmanchilik, shuningdek, bo‘ysunmaslik va xushomadgo‘ylik hollari ko‘payadi. Ish ko‘proq bajariladi-yu, lekin u qoniqish keltirmaydi.

2.8. Murabbiyning funksiyalari. Murabbiy faoliyatining mazmuni



Murabbiyning funksiyalari:

- axborot berishlik;
- tashkilotchilik;
- kommunikatsion;
- nazoratchilik (ma'muriy);
- ijodiy.

Axborot berishlik funksiyasi – murabbiy talabalarning o‘zlarini ham ishtirok etishi lozim bo‘lgan o‘quv va o‘qishdan tashqari tadbirlarga taalluqli zarur axborotlarni o‘z vaqtida olishlarini nazarda tutadi.

Tashkilotchilik – murabbiyning talabalar guruhining o‘qishdan tashqari hayotini (birinchi kurs talabaligiga bag‘ishlov, guruhning kuni, guruh ichidagi an'analar va hokazolar) unda ishtirok etuvchilar bilan birgalikda uyushtirishni nazarda tutadi.

Kommunikatsion – o‘zi murabbiylik qiladigan guruhda eng yaxshi psixologik muhitni ta’minlash va tutib turish; guruh ichidagi munosabatlarni uyushtirish; guruh hayotida rasmiy yetakchi sifatida bevosita ishtirok etish; talabalar bilan oliv o‘quv yurtining kafedralari, dekanati, ma’muriyati o‘rtasida vositachi bo‘lish.

Nazorat – ayniqsa, quyi kurslarda talabalarning davomati va o‘zlashtirishi, guruh yetakchisining o‘z funksiyalarini bajarishi, uning saylanishi va qaytadan saylanishini nazorat qilishni ko‘zda tutadi.

Murabbiyning ijodkorligi – uning individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga muvofiq tarzda o‘z faoliyatini kengaytirishini nazarda tutadi.

Murabbiylik soati uchun taklif qilinadigan mavzular:

- ✓ «Vatan tuyg‘usi» ;
- ✓ «Mening kasb tanlashimga nima ta’sir qilgan» ;
- ✓ «Men nima bilan faxrlanaman» ;
- ✓ «His-tuyg‘ularni tarbiyalash» ;
- ✓ «Kasbiy lavozimlarda o‘sish va uning tarkibiy jihatlari» ;
- ✓ «Sog‘lom turmush tarzi» ;
- ✓ «Mening hayotimdagи qadriyatlar» ;
- ✓ «Shaxsning kamolga yetishi» ;
- ✓ «Muvaffaqiyat formulasisi» ;
- ✓ «Kasbiy jihatdan layoqatlilik» ;
- ✓ «Zamonamiz qahramonlari» ;
- ✓ «Hayotimizdagи zo‘riqishlarning namoyon bo‘lishi» ;

- ✓ «Shaxsning intellektual va ijodiy salohiyati» ;
- ✓ «Xulq madaniyati – hayot madaniyati».

Baholash mezonlari

Qoniqarsiz – alohida belgilari amalga oshirilgan.

Tanqidiy – ayrim tamoyillar va ulardagi alohida belgilari amalga oshirilgan.

Qoniqarli – tamoyillarning bir qismi va ulardagi belgilarning ko‘pchiligi amalga oshirilgan.

2.9. Murabbiyning tashqi qiyofasi

Pedagog-murabbiyning madaniyati o‘zi kiyadigan kiyim-boshni to‘g‘ri tanlashga qanday munosabatda bo‘lishni ham o‘z ichiga oladi. Kiyinish madaniyatining puxta o‘ylanganligi, oliy o‘quv yurtidagi etiketga mos bo‘lish pedagogning nazokati va ziyoliligi darajasini ko‘rsatadi. U dars mashg‘ulotiga nimani kiyib kelish mumkin-u, nimani kiyib kelish mumkin emasligini his qilishi va tushunishi kerak. Murabbiy va umuman pedagogning har doim eng nozik hakamlar o‘z tarbiyalanuvchilarining ko‘zi o‘ngida bo‘lishidan iborat alohida ijtimoiy funksiyalari, uning tashqi ko‘rinishiga nisbatan muayyan talablarni qo‘yadi.

Pedagog modadan orqada qolmasligi va unga zid ish tutmasligi ham kerak, chunki bunday holda uning tashqi ko‘rinishi, kiyinishi o‘z talabalari o‘rtasida noxush gap-so‘zlar kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin. U, avvalo, yoshiga muvofiq tarzda kiyinishi lozim. Pedagog-murabbiy o‘zini yaxshi tarbiya ko‘rgan ziyoli kabi tasavvur hosil qilishi zarur. Yaxshi tarbiya ko‘rgan ziyoli kishi eski rusumlarga ko‘ra o‘zi bo‘lgan joyda shaxsi haqida yaxshi taassurot qoldiradigan darajada kiyangan bo‘lishi kerak.

Pedagog-murabbiyning kiyim-boshi moda uchun asos bo‘ladigan klassik uslubga yaqinlashtirilgan bo‘lishi kerak. Klassik uslub – chiziqlardagi qat’iy oddiylik, yaxshi bichim, buyumning ancha jiddiy tusidir. Klassik uslubdagi buyumlar ko‘zga yarq etib tashlanmaydi, o‘zining sifati, ishonchliligi bilan e’tiborni tortadi. Ular o‘z egasini qiy nab qo‘ymaydi, bir necha mavsum davomida ham har xil

raqobatlarga chidash beradi. Ularni yangicha, zamonaviy modaga muvofiq guruhlarga ajratish mumkin. Klassik uslubdagi kiyimlar kostyumlardir.

Xushbichim, qat'iy fasonli kiyim-bosh auditoriyada akademik muhit hukm surishi, bilimlarni egallashga intilish kayfiyatini tug'dirib, o'quv jarayonidan chalg'itmaydi, o'zini bir maromda qat'iy tutishga undaydi. Yaqqol ajralib turadigan, beo'xshov kiyim-bosh, odatda, boshqalarning diqqatini bo'ladi. Mabodo professor - o'qituvchi didsiz kiyangan, ochiqchasiga eskirgan modaga rioya qiladigan bo'lsa, unda u hayotdan orqada qolib ketgan kishidek bo'lib ko'rinishi mumkin.

Shaxs ongini shakllantirish metodlari

To'g'ri tashkil etilgan tarbiyaning birinchi bosqichi – tarbiyalanuvchining tarbiya jarayonida shakllantirilishi lozim bo'lган fe'l-atvor normalari va qoidalarini bilishdan iborat. Avvalo, biror-bir xususiyatning ahamiyatini aniq-ravshan tushunib yetmasdan turib, bunday xususiyatni tarbiyalash qiyin. Qarashlar, tushunchalar, e'tiqodlarni shakllantirish uchun ongni shakllantirish uslublari qo'llaniladi. Ongni shakllantirish usullariga: hikoya qilish, tushuntirish, etik mavzudagi suhbat, munozara, misol keltirish kiradi.

Faoliyatni tashkil etish metodlari

Ikkinci bosqich – ishontirish asosida fe'l-atvorning talab etiladigan turini shakllantirishdir. Nafaqat tushunchalar, ishontirishlar, shu bilan birga ishlar, qilmishlar ham shaxsning tarbiyalanganligini tavsiflaydi. Shu munosabat bilan faoliyatni tashkil etish va jamiyatdagi fe'l-atvor tajribasini shakllantirish tarbiyaviy jarayonning o'zagi sifatida ko'rib chiqiladi.

Ushbu guruhdagi barcha metodlar tarbiyalanuvchilarning amaliy faoliyatiga asoslanadi. Pedagog, murabbiylar bunday uslublarni tarkibiy qismlarga – aniq harakatlar va qilmishlarga, ba'zan esa yanada kichikroq qismlarga – operatsiyalarga bo'lish orqali ushbu faoliyatni boshqarishi mumkin. Tarbiyaviy jarayon shundan iboratki, pedagog operatsiyalarni boshqarishdan harakatlarni boshqarishga, so'ngra esa – tarbiyalanuvchilar faoliyatini boshqarishga o'tadi.


Rag‘batlantirish metodlari

Uchinchi bosqich – o‘zgartirishdir. Bu bosqichda rag‘batlantirish uslublari – rag‘batlantirish va jazolash qo‘llaniladi. Ba’zida bellashuv uslubi ham qo‘llaniladi.

Rag‘batlantirishni tarbiyalanuvchilar harakatlarining ijobiy baholanishining ifodasi deyish mumkin. U ijobiy malaka va odatlarni mustahkamlaydi. Uni: ma’qullash, tashakkur bildirish, mukofotlash shaklida o‘tkazish mumkin.

Jazolash – pedagogik ta’sir qilish uslubi bo‘lib, u keraksiz qilmishlarning oldini olishi, ularni to‘xtatishi, o‘zi va boshqa kishilarning oldida aybdorlik hissini uyg‘otishi kerak.

Bellashuv tarbiyalanuvchilarning raqobatlashuvga bo‘lgan tabiiy ehtiyojlarini yo‘naltirish va kerakli xususiyatlarni tarbiyalashga ustuvor ahamiyat beradigan uslubdir.



Tarbiya metodlarini tanlash

Tarbiya uslublarini tanlash yuksak san'atdir. U, albatta, fanga tayanuvchi san'at hisoblanadi.

Tarbiya uslublarini tanlashni belgilovchi **umumiylabablar** (shartlar, omillar). Birinchi navbatda, quyidagilar hisobga olinishi kerak, ya'ni:

1. Tarbiya maqsad va vazifalari. Maqsad nafaqat uslublarni oqlaydi, shu bilan birga ularni belgilaydi ham. Maqsad qanday bo'lsa, unga erishish uslublari ham shunday bo'lishi lozim.

2. Tarbiya mazmuni. Shuni nazarda tutish kerakki, ayni bir xil vazifalar turlicha ma'noga ega bo'lishi mumkin. Shuning uchun uslublarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq bir ma'no bilan bog'lash juda muhimdir. Uslublarning mazmuniy tavsifnomasi g'oyat muhim bo'lgani sababli u tasniflashda ham hisobga olinadi.

3. Tarbiyalanuvchilarning yoshga oid xususiyatlari. Ayni bir xildagi vazifalar tarbiyalanuvchilarning yoshiga qarab turlicha uslublar bilan hal etiladi. Qayd qilinganidek, yosh bu oddiy bir yashab o'tilgan yillar soni emas. Uning orqasida orttirilgan ijtimoiy tajriba, psixologik va ma'naviy xususiyatlarning rivojlanish darajasi turadi. Aytaylik, mas'uliyat hissini maktabdagagi kichik, o'rta, katta yoshlarda, talabalik yoshida ham shakllantirish kerak, lekin bunda tarbiya uslublari o'zgarishi lozim.

4. Jamoaning shakllanganlik darajasi. O'zini o'zi boshqarishning jamoachilik shakllari rivojlanishiga qarab, pedagogik ta'sir ko'rsatish uslublari ham o'zgaradi: bizga ma'lumki, boshqaruvning qayishqoqligi tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan muvaffaqiyatli hamkorligining zaruriy shartidir.

5. Tarbiyalanuvchilarning individual va shaxsiy xususiyatlari. Umumiylabablar, umumiylabablar tarbiyada o'zaro ta'sir ko'rsatish negizidir. Ular individual va shaxslarga qarab o'zgartirilishi zarur. Insonparvar tarbiyachi har bir shaxsga o'z qobiliyatlarini rivojlantirish, o'z individualligini ehtiyyot qilish, o'z "men"ini amalga oshirishga imkon beradigan uslublarni qo'llashga intiladi.

6. Tarbiya shart-sharoitlari. Ularga ilgari ko'rib chiqilgan – moddiy, psixofiziologik, sanitariya-gigiyena shart-sharoitlaridan tashqari yana jamoada qaror topadigan munosabatlar: jamoadagi muhit,


pedagogik rahbarlik qilish uslubi va boshqalar ham kiradi. Ma'lumki, mavhum shart-sharoitlar bo'lmaydi, ular har doim aniq bo'ladi. Ularning birga qo'shib olib borilishi aniq holatlarni tug'diradi. Tarbiyada amalga oshiriladigan holatlar pedagogik vaziyatlar degan nom olgan.

7. Tarbiya vositalari. Tarbiya uslublari tarbiyaviy jarayonning tarkibiy qismlariga aylanganida vositalar bo'ladi. Uslublardan tashqari yana tarbiyaning boshqa vositalari ham mavjud bo'lib, uslublar ular bilan o'zaro bog'liq va yaxlit holda qo'llaniladi. Masalan, ko'rgazmali qo'llanmalar, tasviriy va musiqiy san'at asarlari, ommaviy axborot vositalari uslublarni samarali qo'llanishi uchun zaruriy negizdir. Shuningdek, faoliyatning har xil turlari (o'yinli, o'quv, mehnatga oid), pedagogik texnika (nutq, imo-ishoralar, harakatlar va hokazolar) ham tarbiya vositalariga kiradi.

8. Pedagogik malaka darajasi. Tarbiyachi faqat o'zi biladigan, o'zi egallagan uslublarni qo'llaydi. Ko'plab uslublar murakkab bo'lib, katta kuchni talab qiladi: manfaatdor bo'lmagan pedagog murabbiylar atarsiz ish yuritishni xush ko'rishadi. Oqibatda tarbiyaning samarasi ancha past bo'lib, agar turli maqsadlar, vazifalar va shart-sharoitlarga adekvat bo'lgan uslublar qo'llanilganida bunday samara ko'proq bo'lardi.

9. Tarbiya vaqt. Vaqt kam bo'lib, katta maqsadlar qo'yilganida tarbiyaning "kuchli ta'sir qiluvchi" uslublari, qulay shart-sharoitlarda "avaylaydigan" uslublari qo'llaniladi. Uslublarning kuchli ta'sir qiluvchi va avaylaydigan uslublarga bo'linishi shartlidir: kuchli ta'sir qiluvchi uslublar jazolash va majburlash bilan bog'liq, avaylaydigan uslublar esa pand-nasihatlar va sekin-asta o'rgatishdir. Kuchli ta'sir qiluvchi uslublar odatda fe'l-atvorning salbiy andozalarini imkoniboricha qisqaroq vaqt ichida yo'qotish kerak bo'ladigan qayta tarbiyalash chog'ida qo'llaniladi. Ayrim pedagoglarning fikricha, ularga ajratilgan vaqt yetarli emas, shuning uchun ular kuchli ta'sir qiluvchi uslublarga murojaat etishadi. Har nima bo'lganida ham tarbiya uslublarini loyihalashtirishda vaqt omili juda muhim bo'lib qolaveradi.

10. Kutiladigan natijalar. Tarbiyachi uslub(lar)ni tanlashda muvaffaqiyatga erishishiga ishonchi komil bo'lishi kerak. Buning uchun u uslubni qo'llash qanday natijalar berishini oldindan ko'ra bilishi lozim.



2.10. Tarbiya metodlarini tanlash qoidalari

Tarbiya usullarini tanlashning umumiy tamoyili pedagog murabbiylarning tarbiyalanuvchilarga munosabatidagi insonparvarlikdir. Insonparvarlarcha yondashuv ruhidagi tarbiya uslublari o‘z tarbiyalanuvchilari taqdiriga beparvo bo‘lgan kishilar qo‘lidagi sof kasbiy vositalar turkumi emas, tirik kishilarning jonli munosabatlaridir. Usul elastiklik, qayishqoqlik, hatto nazokatni taqozo etadi – unga tarbiyachi shunday xususiyatlarni beradi. Yuqorida ko‘rib chiqilgan uslublarni tanlashning umumiy shart-sharoitlari yirik o‘zaro bog‘liqliklarni belgilaydi, lekin tarbiyaviy jarayonda boshqa yana ko‘plab nozik belgilarni hisobga olish kerak.

Boshlovchi tarbiyachilar bizning doimo uslublarning yaxlit tizimi bilan ish ko‘rshimizni va tizimdan uzib olingan har qanday alohida

vositaning muvaffaqiyat keltirmasligini unutmasligi lozim. Shuning uchun hayotda, amaliyotda har bir uslub yoki usulni boshqa bir uslub yoki usul bilan to‘ldirishi, rivojlantirishi yoki tuzatishi va aniqlashtirishi mumkin.

Uslublarning tanlanishi tayyorlangan bo‘lishi va ularni amalgaloshirish uchun real shart-sharoitlarni nazarda tutishi lozim. Mazkur sharoitda qo‘llab bo‘lmaydigan uslubni tanlash mumkin emas. Erishib bo‘lmaydigan istiqbollarni belgilamaslik kerak. Bu shunday ham ravshan. Lekin ko‘plab yosh pedagog, murabbiylar ushbu oddiy qoidani ko‘pincha buzadilar.

Pedagogning har qanday oqilona va tayyorlangan harakati nihoyasiga yetkazilishi lozim, uslub mantiqiy tugallanishni talab etadi. Bu qoidani shuning uchun ham bajarish kerakki, faqat shunday holda tarbiyalanuvchilar ishni oxirigacha yetkazishdan iborat foydali odatni orttirishadi, tarbiyachi esa o‘z tashkilotchilik nufuzini mustahkamlaydi.

Uslubni tanlash pedagogik munosabatlar uslubiga bog‘liq. O‘rtoqlarcha munosabatlarda bir uslub ta’sirchan bo‘lsa, neytral yoki salbiy munosabatlarda o‘zaro ta’sirning boshqa yo‘llarini tanlashga to‘g‘ri keladi. Uslub u qo‘llaniladigan faoliyat tusiga bog‘liq. Tarbiyalanuvchini yengil yoki yoqimli ish bilan shug‘ullanishga majbur qilish – boshqa narsa-yu, uning jiddiy va odat bo‘lmagan ishni bajarishiga erishish – boshqa gap.

Tarbiya uslublarini loyihalashtirishda tarbiyalanuvchilarning uslub qo‘llaniladigan paytdagi psixik holatini oldindan ko‘ra bilish lozim. Bu tarbiyachi uchun hamisha ham hal qilinadigan vazifa emasligiga qaramasdan, tarbiyalanuvchilarning loyihalashtirilayotgan uslublarga nisbatan umumiy kayfiyati, munosabatini oldindan hisobga olish zarur.

Jamoani pedagogik boshqarish

Jamoani rivojlantirish jarayoni tabiiy jarayon bo‘lmay, balki pedagogik boshqariladigan jarayondir. Boshqaruva samaradorligi uning rivojlanish qonuniyatlarining qay darajada tadqiq qilinganligi, tarbiyachining vaziyatni qanchalik to‘g‘ri tashxis qilishi va pedagogik ta’sir ko‘rsatish vositalarini tanlashiga bog‘liqdir. Talabalar jamoasini boshqarish uning faoliyat yuritish jarayonini boshqarish, jamoanining rivojlanish bosqichini hisobga olib, undan tarbiya vositasi sifatida

foydalish demakdir. Jamoaning o‘ziga xos xususiyatlari va uning o‘zini - o‘zi boshqarish imkoniyatlari qanchalik to‘laroq hisobga olinsa, boshqaruв shunchalik samarali bo‘ladi. Talabalar jamoasini boshqarish ikkita o‘zaro bir-biriga bog‘liq jarayon sifatida amalga oshiriladi:

1) talabalar jamoasi va uning tarkibidagi talabalar haqidagi axborotlarni yig‘ish;

2) uning holatiga adekvat bo‘lgan, jamoani takomillashtirish va uning har bir alohida talaba shaxsiga ta’sirini optimallashtirishni maqsad qilib qo‘yadi.

Bu tarbiyachi zimmasiga qanday vazifalarni yuklaydi? Bu holat tarbiyachi zimmasiga jamoa a’zolari o‘rtasidagi shaxsiy, sherikchilik va motivatsiya munosabatlarini do‘stona birlashtirish, muloqot qilish, hamkorlik jarayonida uyg‘unlashib ketadigan jamoatchilikning o‘zaro ta’sirini tashkil etish vazifasini yuklaydi. Bunga erishish oson emas, jamoa a’zolarining bir-biriga nisbatan tanlab munosabatda bo‘lishi har doim ham bo‘ladi. Donishmand tarbiyachi-murabbiy boshqalarning kamchiliklariga chidam bilan munosabatda bo‘ladi, nomaqlu harakatlarni, yetkazilgan xafagarchiliklarni kechiradi.

1. Jamoatchilik munosabatlari tizimida talabalarning noxush ahvolga tushib qolishining sabablaridan biri – ular bajaradigan rollarning real imkoniyatlarga mos kelmasligidir. Agar doimiy yoki vaqtinchalik topshiriqlar ularning qiziqishlari yoki imkoniyatlariga yordam bermasa, unda ular bu topshiriqlarni formal bajaradi yoki umuman bajarmaydi. Bunday holda ular jamoatchilik munosabatlari tizimidan umuman chiqib ketadi. Shuning uchun individual topshiriqlarni ishlab chiqishda nafaqat jamoaning ehtiyojlariga, shu bilan birga tarbiyalanuvchilarining o‘z imkoniyatlari va qiziqishlariga ham qarash kerak. Shunda jamoatchilik munosabatlari tizimida har bir shaxsning ahvoli ancha yaxshi bo‘ladi.

2. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, talabalar o‘z jamoasidagi boshlang‘ich davridayoq qulay yoki noqulay holatni egallaydi va keyinchalik bunday holat ko‘pchilik uchun barqaror bo‘lib qolaveradi. Bunday jarayonga rahbarlik qilish samarali bo‘lishi uchun talabaning jamoa ichida tabiiy qaror topadigan munosabatlar tizimidagi holatiga ta’sir etadigan omillarni nazorat etish zarur. Bunday omillarga quyidagilar kiradi: talabaning o‘ziga xos xususiyatlari (o‘zini tutishi, emotsionalligi, dilkashligi, optimizmi, jozibasi va hokazolar); uning ma’naviy qiyofasini tavsiflaydigan xususiyatlari (o‘rtoqlariga nisbatan


e'tiborli munosabati, adolatliligi va hokazolar); jismoniy belgilari (kuchi, husni, epchilligi va hokazolar).

3.Talabaning jamoadagi holati, shuningdek, jamoada qabul qilingan munosabatlar normalari va andozalari, jamoadagi qadriyatlar yo'nalganligiga ham bog'liq. Aynan bir talaba bir jamoada qulay, boshqa jamoada esa noqulay holatga tushib qolishi mumkin. Shuning uchun vaqtinchalik jamoalarini tashkil etish, noqulay holatdagi talabalarni o'zlariga yaxshiroq maqom olishi mumkin bo'lgan jamoaga o'tkazish kerak.



4.Jamoadagi faoliyat tusining o'zgarishi ham talaba holatiga sezilarli ta'sir qiladi. Ana shunda o'z vakolatliligi sababli yetakchi holatni egallaydigan va bu bilan o'z nufuzini oshiradigan yangi yetakchilar paydo bo'ladi. Puxta o'ylaydigan murabbiy har doim jamoadagi faoliyat tusi va turlarining talabalarni yangicha munosabatlarga kirishadigan qilib o'zgartirishi haqida o'ylanishi lozim.

Murabbiy shaxsi



III-BO‘LIM

3.1. Talabaning oliy o‘quv yurtidagi qadriyatlarga moslashishining psixologik xususiyatlari

Oliy o‘quv yurtidagi qadriyatlar, avvalo, uning ma’muriyati tomonidan belgilangan tashkiliy madaniyat, qoidalar, an’analardir. Talabaning qabul qilingan marosimlar, an’analar, belgilangan qoidalarni bajarish yordamida singib borishi uning oliy o‘quv yurti hayotiga moslashish va keyinchalik o‘zini ulkan bir guruh, hamjamiyatning bir qismi sifatida his qilishiga ko‘maklashadi. Lekin talabaning oliy o‘quv yurtida bo‘lishidagi asosiy vazifasi va maqsadi nafaqat ta’lim olish, bilimlarni egallash va diplom olish, shu bilan birga kasbiy jihatdan yaroqli vakolatli mutaxassis maqomini ham egallahdir.

Oliy o‘quv yurtidagi ta’lim jarayoni davrida ustunlik qiladigan bilimlar qadriyatları – eng asosiy, ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. Murabbiy tarbiyaviy ishlarni shu nuqtayi nazardan o‘tkazishi, oliy o‘quv yurtidagi kundalik hayotning qoidalari, tartiblari, o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntirib borishi kerak. U shaxsnинг psixologik tuzilishini, talabalarning shu yoshdagi fe’l-atvorining psixik modellarini yaxshi bilishi zarur. Faqat ana shundagina u samara olish maqsadida talabalarni ko‘niktirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishga kirishishi kerak.

Murabbiy oliy o‘quv yurtida ta’lim olish davrining shaxsiy xususiyatlar shakllanishining murakkabliklari bilan farqlanadigan yoshlikning ikkinchi bosqichiga yoki yetuklikning ilk davriga mos kelishini bilishi zarur. Bu yoshda fe’l-atvor ongli motivlarining kuchayishi ma’naviy rivojlanishning xarakterli xususiyati hisoblanadi.

Maktab, litsey va kollejlarda to‘la miqyosda yetishmagan xususiyatlar – aniq maqsadga intilish, qat’iyatlilik, tirishqoqlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, o‘zini tuta bilish kabi xususiyatlar sezilarli tarzda mustahkamlanadi. Axloqiy muammolarga (maqsadlar, turmush tarzi, burch, muhabbat, sadoqat va boshqalarga) nisbatan qiziqish oshadi.

Oliy o‘quv yurtiga o‘qishga kirganlik fakti talabaning kuchi va qobiliyatiga ishonchini yanada mustahkamlaydi, to‘laqonli va qiziqarli hayotga umidni paydo qiladi. Shu bilan birga II va III kurslarda

ko‘pincha oliy o‘quv yurtini, ixtisoslik, kasbni tanlaganlikning to‘g‘riliqi haqidagi masala ko‘ndalang bo‘ladi. III kursning oxiriga borib kasbiy jihatdan o‘zini o‘zi belgilash haqidagi masala uzil-kesil hal bo‘ladi. Biroq shunday ham bo‘ladiki, bu paytga kelib kelgusida ixtisoslik bo‘yicha ishlamaslik to‘g‘risida ham qarorlar qabul qilinadi.

Ko‘pincha talabalarning kayfiyatlarida oliy o‘quv yurtidagi tahsilning birinchi oyalaridagi zavq-u shavq va quvnoqlikdan to bu yerdagi o‘qish tartibi, o‘qitish tizimi, ayrim professor-o‘qituvchilardan norozi bo‘lishgacha bo‘lgan darajadagi o‘zgarishlar yuz beradi. Ko‘pincha kishining kasbni tanlashi tasodifiy omillarga bog‘liq bo‘ladi. Ayniqsa, oliy o‘quv yurtiga o‘qishga kirishda bunga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi, chunki bunday xatolar jamiyat va shaxsning o‘ziga ancha qimmatga tushadi.

Oliy ma’lumot kishining ruhiyatiga, uning shaxsining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Oliy o‘quv yurtida ta’lim olish paytida qulay shart-sharoitlar mavjud bo‘lganida talabalarda ruhiyatning hamma darajalarida rivojlanish yuz beradi. Ular kishi aqlining yo‘nalishini belgilaydi, ya’ni shaxsning kasbiy yo‘nalishini tavsiflaydigan fikr yuritish tarzini shakllantiradi.

Oliy o‘quv yurtida muvaffaqiyatli ravishda bilim olish uchun umumiyligi intellektual rivojlanish, jumladan idrok etish, tasavvurlar, xotira, tafakkur, diqqat-e’tibor, bilimdonlikning yuksak darjasini, bilishga oid keng miqyosdagi qiziqishlar, mantiqiy operatsiyalarning muayyan doirasini egallaganlik darjasini zarur bo‘ladi. Bunday daraja biroz pasayganida uni o‘quv faoliyatidagi motivatsiya yoki ishga qobiliyatilik, qunt, ziyraklik va batartiblikni oshirish hisobiga qoplash mumkin.

Talabalarning muvaffaqiyatli ta’lim olishi ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, talabalarning aqliy faoliyati va diqqat-e’tiborining ko‘rsatkichi sifatidagi intellektual rivojlanganligi – bilish faoliyatini tartibga solish vazifikasi ular ichida eng muhimlaridan biri hisoblanadi. Ta’limning maktab, litsey va kollejlardagiga nisbatan butunlay boshqacha tarzda tashkil etilganligi, mustaqil ishlashga ko‘p vaqt ajratilishi, oiladan ajralgan holdagi mustaqil hayotning o‘ziga xos xususiyatlari, talabalar jamoasining yangicha me’yorlari – bunday omillarning hammasi talabaning o‘zi uchun yangicha bo‘lgan oliy o‘quv yurtidagi hayot shart-sharoitlariga ko‘nikishi jarayoniga juda kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Kechagina maktab, litsey va kollejda o‘quvchi bo‘lgan yoki, ayniqsa, “olisdan kelib” bugungi kunda o‘z oilasidan ajralgan holda yashab, o‘qiyotgan talabaning ta’lim olish sifati ana shunday davrni qanday boshidan kechirishiga bog‘liq.

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, birinchi kurs talabalari har doim ham bilimlarni muvaffaqiyatlil o‘zlashtira olmaydilar. Bu ularning maktab, litsey va kollejda sust tayyorlanishidan emas, balki ularda shaxsga xos ta’lim olishga tayyorlik, mustaqil ta’lim olish qobiliyati, o‘zini o‘zi nazorat qilish va baholash, o‘zining bilishga oid faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlariga egalik, ish vaqtini mustaqil tayyorlanish uchun to‘g‘ri taqsimlay bilish qobiliyati kabi xususiyatlarning hali shakllanib ulgurmagani sababli yuz beradi.

Maktab, litsey va kollejda har kuni nazorat ostida bo‘lib kelgan va bugungi kunda birinchi kurs talabasi bo‘lib qolgan yoshlarning ayrimlari oddiy qarorlarni ham qabul qilishga qodir bo‘lmaydi. Ularda o‘z bilimini o‘zi orttirish va o‘zini o‘zi tarbiyalash malakalari yetarli darajada tarbiyalanmagan bo‘ladi. Ma’lumki, oliy o‘quv yurtidagi ta’lim uslublari maktab, litsey va kollej ta’limidan keskin farq qiladi, chunki o‘rta maktab, litsey va kollejdagi o‘quv jarayoni shunday qurilganki, u o‘quvchini mashg‘ulotlarga qatnashishga undaydi, uni muntazam tarzda ishlashga majbur qiladi, aks holda tez orada hamma baholar “ikki”ga aylanib ketishi mumkin.

Kechagina maktab, litsey va kollej o‘quvchisi bo‘lib, bugungi kunda oliy o‘quv yurti talabasi bo‘lgan yoshlar boshqacha vaziyatga: ketma-ket ma’ruzalar o‘qiladigan vaziyatga tushadi. Seminarlar boshlanganida ularga ham har doim o‘z vaqtida tayyorlanib bo‘lmashigi ma’lum bo‘lib qoladi. Umuman olganda, har kuni ham nimanidir o‘qish, hal etish, yodlab qolish zarurati bo‘lmaydi. Buning natijasida birinchi semestrda ko‘pincha oliy o‘quv yurtida o‘qishning go‘yoki yengilligi haqidagi fikr paydo bo‘ladi, hamma narsani yakuniy nazorat arafasida o‘qib, o‘zlashtirib olaman-ku, degan ishonch hosil bo‘ladi, o‘qishga nisbatan beg‘amlik munosabati paydo bo‘ladi.

Ko‘pchilik birinchi kurs talabalari o‘qishning ilk bosqichlarida o‘quv ishlarini mustaqil bajarish borasidagi malakalari yo‘qligi sababli katta qiyinchiliklarni boshdan kechirishadi. Ular ma’ruzalarni konspekt qilib yozib olish, darsliklar bilan ishlash, boshlang‘ich manbalardan kerakli bilimlarni qidirish va topib olish, katta hajmdagi axborotlarni tahlil

etish, o‘z fikrlarini aniq va burro bayon qilishni bilishmaydi. Talabalarning o‘quv jarayoniga ko‘nikishi (ruhiyatning tartibga soluvchilik funksiyasini o‘rganish ma’lumotlariga ko‘ra) 2-o‘quv semestri oxiri yoki 3-o‘quv semestri boshlariga borib yakun topadi.

Ko‘pgina talabalarda hali maktab, litsey va kollejda o‘qib yurgan paytidayoq o‘ziga xos “uch baho olish psixologiyasi”, “hech narsa o‘qimasdan ham o‘qiyverish”ga intilish shakllangan bo‘ladi. Ularning bunday kayfiyati oliy o‘quv yurtiga ham yetaklashib keladi. “Uch” baho olib o‘qiganda ham baribir haqiqiy mutaxassis bo‘lib chiqishga ishonch kursdan-kursga orta boradi.

Rasman olganda talabalarning o‘qishida maktab, litsey va kollejdagi kabi har kunlik qat’iy tekshirish tizimi, o‘qituvchi oldida “qaltirab turishlik”, har kuni dars tayyorlash zarurati bo‘lmaydi. Ayrim talabalar o‘qishga kirishdagi murakkab va qiyin test sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tib olgach, keyinchalik o‘qishga nisbatan mas’uliyat bilan yondashish kerakligiga tayyor bo‘lmay qoladi, mashg‘ulotlarni esdan chiqarib yuboradi. Oliy o‘quv yurtidagi nazorat tizimi ishni bir xil sur’atda bajarmaslik, ko‘pincha oraliq va yakuniy nazorat arafasida bir yo‘la hama qilish yo‘li bilan muammolarni hal etish mumkinligi ehtimoliga ham yo‘l qo‘yadi.

Talabaning ijtimoiy-psixologik qiyofasini belgilaydigan va ko‘p jihatdan ta’lim olishning muvaffaqiyatiga ta’sir qiladigan omillarni ikki toifaga bo‘lish mumkin: talaba oliy o‘quv yurtiga kelganida unda mavjud bo‘lgan omillar – ularni faqat e’tiborga olib qo‘yish mumkin ta’lim olish jarayonida hosil bo‘ladigan omillar – ularni boshqarish mumkin bo‘ladi.

Birinchi toifaga quyidagilar kiradi: tayyorgarlik darajasi, qadriyatlar tizimi, o‘qishga munosabat, oliy o‘quv yurtidagi voqeliklar haqidagi xabardorlik, kelgusidagi kasbi haqidagi tasavvurlar.

Birinchi guruhga kiradigan omillarning ta’siri sekin-asta susayib boradi va ikkinchi guruhdagi omillar hal qiluvchi rol o‘ynay boshlaydi. Ularga: o‘quv jarayonining tashkil etilishi, o‘qitish darajasi, professor-o‘qituvchi bilan talabaning o‘zaro munosabatlari turi va shu kabilarni kiritish mumkin.

Talabaning kasbiy va ruhiy qiyofasini boshlang‘ich daraja emas, balki ko‘p jihatdan ayni shu narsalar belgilaydi. Murabbiy shuni esda tutishi kerakki, oliy o‘quv yurtiga turlicha ko‘rsatmalar va turli

“boshlang‘ich shart-sharoitlar”ga ega mutlaqo turlicha kishilar kirib kelishadi. Uning eng asosiy vazifasi – shuni idrok etish va tarbiyachilik faoliyatini ularning ruhiy o‘ziga xos xususiyatlarini tushunish asosida qurish, ta’lim olishga motivatsiyani kuchaytirishdir.

Talabalar shaxsining psixologik toifalari

Talabalarning oliy o‘quv yurtlarida muvaffaqiyatli ta’lim olishiga yana boshqa omillar: ularning moddiy ahvoli, salomatligining holati, yoshi, oilaviy ahvoli, oliy o‘quv yurtigacha bo‘lgan tayyorgarlik darajasi, o‘z faoliyatini (avvalo o‘qishdagi) o‘zi tashkil etish, rejalashtirish va nazorat qilish malakalarini egallaganligi ham ta’sir qiladi.

Oliy o‘quv yurtini tanlash, oliy o‘quv yurtidagi ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi ilk tasavvurlarning adekvatligi, professor-o‘qituvchilarning malaka darajasi, oliy o‘quv yurtining nufuzliligi, va nihoyat, talabalarning individual psixologik o‘ziga xos xususiyatlari ham katta ahamiyat kasb etadi. Barcha murabbiylar bunday o‘ziga xos xususiyatlarni tahlil qila bilishi, ularga baho berish va o‘quv-tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshirish maqsadida ularni hisobga olish usullarini egallagan bo‘lishlari kerak.

Nima uchun ayrim talabalar bilimlarni egallahash va kasbiy mahoratni oshirish ustida ko‘p va astoydil mehnat qilishib, yuzaga keladigan qiyinchiliklarni qo‘yilgan maqsadga erishish niyatida yengib borishadiyu, boshqa bir talabalar unchalik mehnat qilishni xohlashmaydi, qandaydir qiyinchiliklar yuzaga kelganida esa ularning faolligi keskin susayib, hatto o‘qish faoliyatidan voz kechib yuborishga ham ahd qilishadi?

Bunday muammoni izohlashda psixologlar va pedagoglar ko‘pincha ta’lim oluvchilarning **intellekti darjasini** (bilimlar, malakalar, ko‘nikmalarni egallahash va ularni vazifalarni hal etishda muvaffaqiyatli qo‘llash qobiliyati), **kreativligi** (yangi bilimlarni ishlab chiqish qobiliyati), o‘qishdagi maqsadlarga erishishda kuchli ijobiy kechinmalarni kechirishni ta’minlaydigan **o‘quv motivatsiyasi**, **yuksak darajadagi niyatlarning shakllanishiga olib keladigan o‘ziga-o‘zi yuqori baho berishlik** kabi individual-psixologik o‘ziga xos xususiyatlarni asos qilib keltiradilar.

Talabalar toifalari individual-shaxsiy tavsifnomalar bo‘yicha tasniflangan. Ularning ichidagi eng yaxshi ma’lum bo‘lganlaridan biri V.T.Lisovskiy ishlab chiqqan tasnif ancha oddiyligi sababli murabbiylarning o‘z tarbiyalanuvchilarini tashxis qilishida qulaylik tug‘diradi. Ular quyidagicha:

“Uyg‘unlik”. O‘z ixtisosligini ongli tarzda tanlagan. Juda yaxshi o‘qiydi, ilmiy va jamoat ishlarida faol qatnashadi. Rivojlangan, madaniyatli, xushmuomala, adabiyot va san’at, jamiyat hayotidagi hodisalar bilan teran va jiddiy qiziqadi, sport bilan shug‘ullanadi. Kamchiliklarga murosasiz, halol va tartibli. Yaxshi va ishonchli do‘sifatida jamoada obro‘-e’tiborga sazovor.

“Professional”. O‘z ixtisosligini ongli tarzda tanlagan. Odatda yaxshi o‘qiydi. Ilmiy-tadqiqotchilik ishlarida kam qatnashadi, chunki oliv o‘quv yurtidan keyin bajaradigan amaliy faoliyatini mo‘ljallagan. Jamoat ishlarida qatnashadi va topshiriqlarni vijdonan bajaradi. Imkoniyatiga qarab sport bilan shug‘ullanadi, adabiyot va san’at bilan qiziqadi, uning uchun asosiy narsa – yaxshi o‘qish. Kamchiliklarga murosasiz, halol va tartibli. Jamoada hurmatga sazovor.

“Akademik”. O‘z ixtisosligini ongli tarzda tanlagan. Faqat “a’lo” baholarga o‘qiydi. Magistratura va aspiranturada o‘qishni mo‘ljallagan. Shuning uchun ba’zan hatto boshqa mashg‘ulotlaridan qolib bo‘lsa-da ilmiy-tadqiqotchilik ishlariga ko‘p vaqtini sarflaydi.

“Jamoatchi”. Unga jamoatchilik faoliyatiga nisbatan yaqqol ifodalangan moyillik xos, bu ba’zan boshqa qiziqishlaridan ham ustunlik qiladi va hatto o‘quv va ilmiy faolligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Lekin ixtisosligini to‘g‘ri tanlaganiga ishonchi komil. Adabiyot va san’at bilan qiziqadi, dam olish paytlarida davralarga yetakchilik qiladi.

“San’atlar muxlisi”. Odatda yaxshi o‘qiydi, lekin ilmiy ishlarda kam qatnashadi, chunki uning qiziqishlari, asosan, adabiyot va san’at sohasiga qaratilgan. Unga yuksak estetik didlilik, keng saviyalilik, teran badiiy eruditsiya xosdir.

“Tirishqoq”. Ixtisosligini uncha anglamasdan tanlagan, lekin vijdonan o‘qiydi, ko‘p kuch-g‘ayrat sarflaydi. Rivojlangan qobiliyatlarga ega bo‘lmasa-da, odatda qarzsiz o‘qiydi. Jamoada unchalik ochilavermaydi. Adabiyot va san’atga kam qiziqadi, chunki o‘qish uning ko‘p vaqtini oladi, lekin kino, estrada konsertlari va

diskotekalarga borishni yaxshi ko‘radi. Jismoniy tarbiya bilan oliv o‘quv yurtidagi dastur doirasida shug‘ullanadi.

“O‘rtacha”. Ko‘p kuch-g‘ayrat sarflamasdan “imkon qadar” o‘qiydi. Bu bilan faxrlanadi ham. Uning prinsipi: “Diplomga ega bo‘lgach, boshqalardan kam ishlamayman”. Kasbni tanlashda unchalik bosh qotirib o‘tirmagan. Lekin “o‘qishga kirdimmi, endi shu oliv o‘quv yurtini tugallashim kerak”, degan fikri qat’iy. Yaxshi o‘qishga harakat qiladi, biroq o‘qishdan huzurlanmaydi.

“Ixlosi qaytgan”. Odatda qobiliyatli kishi, lekin tanlagan ixtisosligi unchalik ma’qul kelmagan. Lekin “o‘qishga kirdimmi, endi shu oliv o‘quv yurtini tugallashim kerak”, degan fikri qat’iy. Yaxshi o‘qishga harakat qiladi, biroq o‘qishdan huzurlanmaydi. San’at, sportda va boshqa sohalarda turli xil mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishga urinadi.

“Yalqov”. Odatda, sust o‘qiydi, “imkoni boricha ortiqcha kuch sarflamaslik” prinsipiga amal qiladi. Lekin o‘zidan ko‘ngli to‘q. O‘z kasbiy kelajagi haqida jiddiy bosh qotirmaydi. Ilmiy-tadqiqotchilik va jamoat ishlarida qatnashmaydi. Talabalar guruhi jamoasida unga “daxmaza” sifatida qarashadi. Ba’zan g‘irromlik qilish, shpargalkadan foydalanishga ham urinib ko‘radi. Qiziqish doirasi, asosan, dam olish sohasiga tegishli.

“Ijodkor”. U o‘qish yoki jamoat ishlari yoxud dam olish sohasidagi har qanday ishlarga ijodiy yondashishga intiladi. Biroq qunt-sabot, batartiblik, ijrochilik intizomi talab qilinadigan mashg‘ulotlar uni qiziqtirmaydi. Shuning uchun odatda notejis o‘qiydi, o‘qishga nisbatan “bu menga qiziqarli” yoki “bu menga qiziqarli emas” prinsipiga amal qiladi. Ilmiy-tadqiqotchilik ishlari bilan shug‘ullanganida e’tirof qilingan nufuzli mualliflar fikrini hisobga olmasdan, muammolarning o‘ziga xos mustaqil yechimini izlaydi.

“Havoyi”. Odatda nufuzli fakultetlar deb ataladigan fakultetlarda ta’lim oladi, ommaviy kasblarda o‘qiydigan talabalarga kibor bilan qaraydi. O‘ziga o‘xshagan shaxslar davrasida yetakchilik qilishga urinadi, boshqa talabalarga mensimasdan munosabatda bo‘ladi. “Hamma narsadan boxabar”, biroq uning bilimlari ancha sayoz. San’at sohasida, asosan, “moda bo‘lgan” oqimlar bilan qiziqadi. Har doim “omma”ning fikridan o‘zgacha bo‘lgan “o‘z fikriga ega”. U kafe, disko-klublar, turli urf bo‘lgan joylarda bo‘lishni maqbul ko‘radi.

3.2. Milliy-ma'naviy qadriyatlar tushunchasi

Qadriyat tushunchasi juda keng tushuncha. Uning bir qismi ma'naviy qadriyatlardir. Milliy-ma'naviy qadriyatlar «milliylik», «ma'naviyat» va «qadriyat» tushunchalari kesishgan nuqtada jamlangan ijtimoiy hodisalarni o'z ichiga oladi. «Milliy-ma'naviy qadriyatlar» tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: *Muayyan millat, shu millat vakillari uchun zarur va ahamiyatli, aziz va ardoqli bo'lган, uning manfaati va maqsadlariga xizmat qiladigan ma'naviy boyliklar, amallar va tamoyillar, g'oyalalar va me'yorlar milliy-ma'naviy qadriyatlardir.* Har bir xalqning o'zi uchun e'zozli, qimmatli bo'lgan ma'naviy boyliklari bo'ladi. Bular asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelgan, hozirgi kunda ham o'zining ahamiyati va qadrini yo'qotmagan, shu xalqning *iftixor manbaiga* aylangan durdonalardir. Masalan, qirg'iz xalqi «Manas» dostoni bilan, misrliklar qadimiy piramidalar, fransuzlar Parijjagi Luvr saroyi, o'zbeklar Samarqand-u Buxoro va Xiva bilan haqli ravishda faxrlanadilar.

Millat va elatlarning o'ziga xos tarixiy merosi, san'ati va adabiyoti bilan bir qatorda ularning urf-odat va marosimlari, madaniy munosabat va axloqiy fazilatlari ham ma'naviy qadriyatlar tizimiga kiradi. Bular xalqning o'ziga xosligini saqlab qolishda, yosh avlodni tarbiyalashda, shaxsning ijtimoiylashuvida muhim rol o'ynaydi. Milliy-ma'naviy qadriyatlarda xalqning dunyoqarashi va hayotga munosabati, ichki tabiatni va turmush tarzi o'z ifodasini topadi. Bularda millatning ruhiy olami va tafakkur tarzi, orzu-umidlari va ideallari, vijdoni va or-nomusi aks etadi.

Ma'naviyat jamiyat taraqqiyoti, millat kamoloti va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi, chunki ma'naviyat rivojlangandagina jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik vujudga keladi hamda mamlakat va millat taraqqiy etadi.

Qadriyatlar yo'nalganligi shaxs tuzilmasining ruhiy tomondan o'rganiladigan eng muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning tarkibi motivatsion, kognitiv, emotsiyonal va baholash komponentlaridan iboratdir. Ular insonning eng qayishqoq, erkin tanlab olinadigan, binobarin, har tomonlama hisobga olinadigan individual qiziqishlari va

ehtiyojlari, shaxs bilan jamiyat, uning institutlari, madaniyati, qadriyatlar o‘rtasidagi bog‘lanishdan tashkil topadi.

Qadriyatlar yo‘nalganligi roli shundaki, ular kasbiy faoliyat yo‘nalishini belgilaydi, unga muayyan mazmunga ega qadriyatlarni baxsh etadi, ma’lum pozitsiyani egallahsga imkon beradi, fe’l-atvorni tartibga soladi, o‘zini o‘zi dolzarblashtirish usullarini shakllantiradi.

Shaxsning qadriyatlar yo‘nalganligi, uning hayotdagi istiqbollari, rejalar jamiyatning ma’naviy hayotining timsoli bo‘ladi, ijtimoiy ta’sirlar ostida shakllanadi, oila, maktab, litsey va kollejlardagi ta’lim va tarbiya tizimiga, ijtimoiy munosabatlarning muayyan tuzilmasiga bog‘liq.

Individuum o‘zi va o‘zining jamiyatdagi o‘rnini qoidalar, formulalar yordamida topadi. **Umuminsoniy qadriyatlar va jamiyatning axloqiy me’yorlari** ana shunday qoida va formulalar hisoblanadi. Umuminsoniy qadriyatlar abadiy tusga ega qadriyatlardir.

Umuminsoniy qadriyatlar deganda ota-onalar, katta yoshdagি kishilar, o‘qituvchilar, do‘stlarga munosabat tushuniladi. Bu tushuncha bir-birini to‘ldiradigan ikkita ma’noni o‘z ichiga oladi. Birinchidan, umuminsoniy qadriyatlar kishilarning qandaydir bir cheklangan doirasi uchun emas, balki butun insoniyat uchun ahamiyat kasb etadigan qadriyatlardir.

Shunday qilib, murabbiy murabbiylik soatlari mavzulari ustida bosh qotirar ekan, “qadriyatlar” mezon tushunchasiga asoslanishi kerak bo‘ladi. Odatda bu individual tarzda bayramlarga bag‘ishlab bajariladi, lekin shunga qaramasdan, ularning nomlarini umuminsoniy qadriyatlarni tarbiyalash vazifasi asosida tanlab olish zarur.

Talabalarning toifalari

Qadriyatlarga oid yo‘nalishlarning muhimligini tushunish murabbiyga oliy o‘quv yurtidagi tarbiyaviy va ta’lim jarayonlarni psixologik jihatdan to‘g‘ri va obyektiv rejalashtirish, bo‘lg‘usi mutaxassislarda kasbiy munosabatni shakllantirish va o‘zgartirishga nisbatan mas’uliyat bilan yondashishga imkon beradi. Shu nuqtayi nazardan olganda, tadqiqotchi L.Xabaeva taklif etgan talabalarning qadriyatlarga yo‘nalganligi klassifikatsiyasi katta qiziqish tug‘diradi.

1. Kasbiy - samarali

Talabalarning bunday turi eng yaxshi shakllangan bo‘lib, **sermahsul hayot, ishlardagi samaradorlik, yuksak ehtiyojlar** kabi qadriyatlari bilan tavsiflanadi. Bunday talabalar hayotga yuqori talablar qo‘yishi, katta niyatlarni diliga tugishi bilan farqlanib turadi. Ular to‘g‘rilik va ziyraklik (g‘amxo‘rlik) kabi vositaviy qadriyatlarni inkor etadilar. Bunday tur uchun terminal qadriyatlar (maqsadning qadriyatlari) shakllanmagan bo‘ladi. Shunday qilib shunday xulosa chiqarish mumkinki, sinaluvchi shaxslarning bunday turi o‘zini o‘zi amalgaga oshirish borasida hayotiy faoliyatning amaliy jihatiga, kasbiylikning shakllantirilishi va kelgusidagi kasbiy faoliyatda faqat yuqoriga qarab o‘sishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Talabalarning bunday guruhi uchun an’naviy tarzda individualistik deb ko‘rib chiqiladigan, ya’ni farovonlikka intilish, amaliylik, qarashlarning xushyorligi, har doim g‘olib bo‘lishlikka intilish kabi mezonlarga yo‘nalish olishlik xosdir.

2. Bilishlik – maqsadga intiluvchanlik

Shaxslarning ikkinchi turiga oid sinaluvchilar guruhi o‘z bilimi va dunyoqarashi, umumiyligi madaniyati, intellektual rivojlanishini kengaytirish, jismoniy va ma’naviy jihatdan o‘zini o‘zi takomillashtirish imkoniyatini olishga qaratilgan. Ular inkor etadigan vositaviy qadriyatlar (qadriyatlar – vositalar): baxtiyor oilaviy hayot, ko‘ngilochishlar, moddiy ta’minlangan hayot.

Shaxs rivojlanishining bunday turi mazkur holatda maqsadga erishish motivatsiyasining ruhiy negizini tashkil etadigan bilishga oid ehtiyojlarga asoslanadi. Ustunlik qiladigan, bilishga oid motivatsiya tadqiqotchilik, izlanuvchanlik faolligi shaklida ifodalanadi va rag‘batlantirishning yangiligidagi namoyon bo‘ladi. Bilishga oid motivatsiya va tadqiqotchilik faolligi shaxsning tadqiq etilayotgan yangi holatga nisbatan yuqori darajadagi tanlovchiligidagi ifodalanadiki, bu maxsus qobiliyatlar rivojlanishining asoslaridan birini tashkil etadi.

Talabalarning bunday guruhi o‘ziga nisbatan kasbiy ta’lim sohasida alohida e’tibor berilishini talab qiladi, chunki bunday talabalarning kasbiy jihatdan o‘zini- o‘zi belgilashi jarayonida ijodiy rivojlanish, o‘zini o‘zi ifodalash, o‘zini o‘zi kashf etish kabi ichki mohiyatli kasbiy motivlar ustunlik qiladiki, bu kasbiy bilimlarni, kelgusidagi kasbiy faoliyatda asqotadigan ko‘nikmalar, malakalarni muvaffaqiyatli egallash uchun jiddiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

3. Estetik - insonparvarlik

Tabiat va san'atdagi go'zallikdan bahra olish, insoniyatning yanada rivojlanishi va takomillashuvi, ijodiy faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'lishga yo'naltirilgan. Bunday guruhdagi kishilar uchun boshqalarning qarash va fikrlariga nisbatan sabr-toqatlilik, xato va adashishlarni kechira bilish xosdir. Ular qat'iyatli iroda, o'z fikrini, o'z qarashlarini himoya qilishdagi dadillik kabi qadriyatlarni inkor etadilar.

4. Ijtimoiy - diplomatik

Bu turdagи shaxslar ijtimoiy ko'nikishga ko'maklashadigan: yaxshi va ishonchli do'stлarning mavjudligi, boshqalarning nuqtayi nazarini tushuna bilish, o'zgacha mayllar, urflar, odatlarni hurmat qilish, hayotiy quvnoqlik kabi shaxsiy xususiyatlarni juda qadrlashadi. Sihat-salomatlik, erkinlik, o'ziga ishonchlilik kabi terminal qadriyatlarni (qadriyatlar – maqsadlar) inkor qilishadi. Bunday talabalar shaxsning ijtimoiy-yo'naltirilgan kasbiy turini namoyon qilishadi. Yaxshi kommunikativ xususiyatlar yetakchilik, tashkilotchilik qobiliyatları, yuksak darajadagi faollik kabi sifatlarni birgalikda qo'shib olib borishga imkon beradi va ularni teran bilimlar bilan mustahkamlaganda faoliyatning ko'p sohalarida kasbiy o'sish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

Bu tusdagi axborotlar murabbiyning tarbiyaviy va ta'lim jarayonlarini yanada obyektivroq rejalashtirishi, oliy o'quv yurtida bo'lg'usi mutaxassislarning kasbiy munosabatini shakllantirish va o'zgartirishga ko'proq mas'uliyat bilan yondashishga imkon beradi.

3.3. Talaba motivatsiyasi – uning xulqini tushunish va bashorat qilish asosi. Ta'lim oluvchining motivlarga ega bo'lishi

Talabaning fe'l-atvorini tushunish va prognoz qilish murabbiy uchun psixologiyadagi markaziy mavzulardan birini tashkil etadigan talaba motivatsiyasini bilib olishini yengillashtiradi. Kishilar har doim turli xil faoliyat bilan band bo'lib, u yoki boshqacha fe'l-atvorni namoyon qiladilar. "Nima uchun?", "Muayyan faoliyat nima uchun bajariladi?" degan savollarga javob topish uchun psixologlar "motivatsiya" tuzilishini joriy etishgan. Motivatsiyani o'rganish kishilarni ishlashga, fe'l-atvorning u yoki boshqa variantini tanlashga nimaning majbur

qilishi, ular faoliyatini boshqarishi haqidagi savollarga javob topishga imkon beradi.

Motivatsiya – inson intiladigan maqsad, qoniqtirishi mumkin bo‘lgan predmet, harakatga yoki faollikka undaydigan fiziologik yoki psixologik ehtiyojdan kelib chiqadigan jarayondir.

Tashqi motivatsiya – fe’l-atvorga tashabbus beradigan va uni tartibga soladigan omil, shaxsning Meni yoki fe’l-atvordan tashqarida bo‘ladigan vaziyatlarda fe’l-atvorning determinatsiyasini bayon qilishdir. Tashqi motivatsiya tashqaridan rag‘batlantirishni olish maqsadida qandaydir faoliyatga undashdir.

Ichki motivatsiya – fe’l-atvorga tashabbus beradigan va uni tartibga soladigan omillar shaxsning “Meni”da va fe’l-atvorida bo‘ladigan vaziyatlarda fe’l-atvorning determinatsiyasini bayon qilish uchun xizmat qiladi. Ichki motivatsiya o‘z intilishi tufayli o‘z ishidan rag‘batlantirishni olish maqsadida qandaydir faoliyatga undashdir.

Ichki motivatsiyalashgan faoliyatlar faollikning o‘zidan boshqa rag‘batga ega bo‘lmaydi. Kishilar bunday faoliyatga qandaydir tashqi mukofotlarni olish maqsadida emas, balki ana shu faoliyatning o‘zi uchun kirishishadi. Bunday faoliyat qandaydir boshqa maqsadga erishish uchun vosita emas, balki o‘zi uchun maqsaddir.

Yutuqlarga motivatsiya – ayrim individlarni muayyan maqsadlarga erishish, qo‘yilgan vazifalarni hal etish va muvaffaqiyat pog‘onalari bo‘ylab yuqoriga ilgarilashga undashdir. Yutuqlarga erishishga yo‘naltirilgan talabalar mabodo o‘z kuch-g‘ayratlari uchun shaxsan mukofotlanishini bilishsa, unda yanada tirishqoqlik bilan o‘qishadi.

Egalilik motivi – qaysidir sohada eng yaxshi bo‘lishga intilish, yuksak natijalar va sifatga yo‘nalish olish. Vakolatlilikka yo‘naltirilgan shaxslar kasbiy mahoratni egallahsha intilishadi, murakkab muammolarni hal etishda o‘z malakalarini qo‘llay olish mahoratidan faxrlanishadi.

Vakolatlilikka yo‘naltirilgan shaxslar o‘z qobiliyatlari darajasiga alohida ahamiyat berishadi, ularni mahsulot yoki servisning yuqori sifatiga erishishni nazarda tutadigan maqsadlar o‘ziga jalg qiladi. Yoki soddarroq qilib aytganda, birinchi toifadagilar (yutuqqa erishish motivi) “Men qanchalik ko‘proq ish bajarishim mumkin?” degan shiorga, ikkinchi toifadagilar (vakolatlilik motivi) esa “Men buni qanchalik yaxshiroq bajarishim mumkin?” degan shiorga amal qilishadi.

Hokimiyat motivi – kishilarga va vaziyatning rivojiga ta’sir ko‘rsatishga intilish. Hokimiyat motivi motivlar ierarxiyasida muhim o‘rin tutadi. Ko‘pgina kishilarning harakatlariga hokimiyat motivi sabab bo‘ladi. Boshqa kishilar ustidan hukmronlik qilish va ularni boshqarishga intilish ularni faoliyat jarayonida katta qiyinchiliklarni yengib o‘tishga va ko‘p kuch-g‘ayratlarni sarflashga undaydigan motivdir. Inson o‘zini o‘zi rivojlantirish yoki o‘zining bilishga oid ehtiyojlarini qondirish uchun emas, balki ayrim kishilarga yoki jamoaga nisbatan ta’sir ko‘rsatishga ega bo‘lish uchun ko‘p ishlaydi (egotsentrik hokimiyat).

Taalluqlilik motivi – ayrim individlarning boshqa kishilar bilan ijtimoiy aloqalarni o‘rnatishga bo‘lgan intilishidir. Bu motivning mazmuni boshqa kishilar (shu jumladan, notanish yoki unchalik tanish bo‘lmagan kishilar) bilan muloqotdan iborat bo‘ladi va u keltiradigan qoniqish har ikkala tomonni o‘ziga jalb qiladi.

Talabaning o‘zini o‘zi baholashi

Talabaning o‘zini o‘zi baholashi va ta’lim muvaffaqiyatiga ta’siri.

O‘ziga o‘zi baho berish shaxsning markaziy masalalardan biridir. O‘zini o‘zi baholash ko‘p jihatdan shaxsning ijtimoiy ko‘nikishini belgilaydi, u fe’l-atvorni va faoliyatni tartibga solib turadi. Shuni esda tutish kerakki, o‘zini o‘zi baholash shaxsga avvaldan ato etilgan xos xususiyat emas. O‘zini o‘zi baholashning shakllanishi faoliyat va shaxslararo o‘zaro harakatlar jarayonida yuz beradi.

Pedagoglar yoki ota-onalar belgilab qo‘ygan tashqi andozalar o‘zini o‘zi baholashga sust ta’sir qiladi, ahamiyatli kishilar bilan bevosita muloqot, shubhasiz, ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi. Tengdoshlar guruhi o‘zini o‘zi baholash malakalarini shakllantirishda yanada ko‘proq ahamiyatga ega bo‘ladi, ajralgan ijtimoiy me’yorlar emas, balki ayni shunday guruh teskari aloqa asosida o‘zini o‘zi baholash malakalarining shakllanishi manbai bo‘ladi.


Xususiy va umumiyy o‘zini o‘zi baholash ko‘rsatkichlarini oppozitsiyalar shaklida ko‘rib chiqish qabul qilingan:

- ✓ adekvat – noadekvat,
- ✓ barqaror – beqaror,
- ✓ yuqori – past,

✓ anglash – anglamaslik.

O‘zini o‘zi baholash ikki sababga ko‘ra past bo‘lishi mumkin. Inson o‘zining zaif xususiyatlarini boshqalarning xuddi shunday, lekin kuchliroq sifatlari bilan qiyoslaydi. Baho ko‘pgina amaliyotchi-pedagoglar tomonidan ta’lim jarayonini tartibga solish maqsadida qo‘llaniladi. Lekin pedagogik tajribaning ko‘rsatishicha, bunday tartibga solishlik talabani nafaqat o‘zining bilish faoliyatini o‘zi tartibga solishga undaydi, shu bilan birga barcha usullar bilan ijobiy baholarni olishga intilishga majbur qiladiki, bu ta’lim olish motivlarining o‘zgarishiga olib keladi.

O‘zini o‘zi baholashning muhimligi nafaqat uning kishiga o‘z ishining kuchli va zaif tomonlarini ko‘rishiga imkon berishidan iborat, shu bilan birga kishi bunday natijalarini idrok etish asosida bundan keyingi faoliyati dasturini qurish imkoniyatiga ega bo‘ladi.



O‘quv jarayonida o‘zini-o‘zi baholash qoidalarini rejalashtirish va tashkil etish zarur. O‘zining murabbiylik tajribasida o‘zini o‘zi baholashga oid o‘z bilimlarini nafaqat qo‘llanish, shu bilan birga o‘zini o‘zi baholashning quyidagicha bo‘lishini ham esda tutish maqsadga muvofiqliqdir:

- ❖ o‘zini o‘zi shaxs sifatida, o‘zining qobiliyatlarini baholashning emotsional tusi bilan tavsiflanadigan o‘zini o‘zi anglash elementi fe’l-atvorning muhim tartibga soluvchisidir;
- ❖ insonning o‘z atrofidagi kishilar bilan o‘zaro munosabatlarini, uning tanqidiyligi, o‘ziga talabchanligi, yutuqlar va mag‘lubiylatlarga munosabatini belgilaydi va bu bilan o‘zini o‘zi baholash inson faoliyati samaradorligiga va uning shaxsi rivojlanishiga ta’sir etadi;
- ❖ inson o‘z oldiga qo‘yadigan niyatlar, maqsadlar darajasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. O‘zini o‘zi adekvat baholash kishining o‘z kuchlarini har xil qiyinchilikdagi vazifalar va tevarak-atrofdagilarning talablari bilan to‘g‘ri moslashtirishiga imkon beradi;
- ❖ noadekvat baholash esa (oshirib yuborilgan yoki pasaytirilgan) shaxsning ichki olamini buzadi, uning motivatsion va emotsional-irodaviy sohalariga putur yetkazadi va bu bilan garmonik rivojlanishiga to‘sinqinlik qiladi.

Adekvat o‘zini o‘zi baholash fe’l-atvorning asosiy tartibga soluvchisi, shaxsning negizi bo‘lganligi sababli u o‘qishga to‘g‘ri munosabat bo‘lishiga yordam beradi. Adekvat o‘zini o‘zi baholashga ega talabalar o‘z ustunliklari va kamchiliklariga jiddiy yondashishadi. Ayni shu narsa ularga nafaqat yaxshi o‘qishga, bilimlarni egallashga, shu bilan birga pedagog bilan talaba o‘rtasidagi o‘zaro bir-birini tushunmaslikni istisno etishga, mushohadali ta’lim olishga yordam beradi. O‘z-o‘ziga bahoning yuqori bo‘lishi talabaning rivojlanishini to‘xtatadi. U haddan ortiq o‘ziga bino qo‘yishi sababli ko‘pincha professor-o‘qituvchilarga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘ladi. O‘z-o‘ziga bahoning past bo‘lishi talabadagi o‘ziga ishonchga putur yetkazadi, u o‘z bilimlarini namoyish eta olmaydi, o‘z fikrini aytishga, seminarlarda javob berishga tortinadi.

3.4. Talabaning tashqi ko‘rinishi

Oliy o‘quv yurtidagi akademik muhit talabalarning tashqi ko‘rinishi bilan bog‘liq korporativ madaniyatning alohida elementlarini nazarda tutadi. Korporativ madaniyat bir qator funksiyalarni bajaradi. Birinchidan, u tashkilotni har qanday boshqa tashkilotdan farqlaydigan muayyan imijini shakllantiradi, ikkinchidan, u tashkilot, shu jumladan, oliy o‘quv yurtining hamma a’zolarining yakdilligi hissida ifodalanadi.


U oliy o‘quv yurti ishlariga jalb etilganlik hissini kuchaytiradi va sadoqatni shakllantiradi. Eng asosiysi esa korporativ madaniyat tashkilotni jipslashtirishga ko‘maklashadi, unga xos fe’l-atvor andozalarini ta’minlaydi. U, shuningdek, ushbu tashkilot nuqtayi nazaridan olganda maqsadga muvofiq bo‘lgan fe’l-atvor va idrok etish shakllarini hosil qilish va nazorat etishga yordam beradigan vosita hisoblanadi.

Murabbiy oliy o‘quv yurti doirasida umumiy qabul qilingan, o‘quv jarayoniga to‘g‘ri keladigan kiyim-bosh bichimining ushbu korporativ madaniyatning bir qismi ekanligi haqidagi fikrni talabalar ongiga yetkazishi kerak bo‘ladi.

Shuningdek, murabbiy kiyim-boshning shaxsni tavsiflashi va har qanday oliy o‘quv yurtining nufuzini oshirishiga yordam berishi kerakligi haqidagi fikrni ham talabalarga tushuntirishi lozim. Talabalar axloq masalasi bo‘yicha ma’rifiy ishlarni yuritish maqsadida bir necha mashg‘ulotlarni o‘tkazish ham maqsadga muvofikdir.

Bu mavzudagi mashg‘ulotlarni mentor, nasihatomuz shaklda emas, balki axborotlarni ma’lum qilish tarzida quyidagi material yordamida taqdim etish mumkin. Masalan, mashg‘ulotni quyidagi axborotlar kabi bildirishdan boshlash mumkin:

Kiyim-bosh bir paytda bir necha vazifalarni bajaradi:



- Himoyalovchi
- Ijtimoiy
- Milliy
- Estetik

Himoyalovchi – inson organizmining salomatligini ta’minlaydi;

Ijtimoiy – kishining u yoki boshqa ijtimoiy yoki kasbiy guruhga mansubligini belgilaydi;

Milliy – turli xalqlarning badiiy an’analarini aks ettiradi;

Estetik – insonni bezab ko‘rsatadi.

Kiyim-bosh insonning qadr-qimmatini ta’kidlash va ehtimol bo‘lgan nuqsonlarini niqoblashga mo‘ljallangan.

Talabalar odatda moda yo‘nalishlarini kuzatib boradi va zamonaviy bo‘lib ko‘rinishga harakat qilishadi. Shu bilan birga, turli xil vaziyatlar va muhitlar talabaning tashqi ko‘rinishiga muayyan talablarni qo‘yadi. Talaba shuni tushunib olishi kerakki, kiyim-bosh uning vazifasiga ko‘ra

kundalik, tantanali, sport-kiyimi va uy sharoitidagi kiyimlarga bo‘linadi.

Oliy o‘quv yurtiga o‘quv yurtlarida umumiy qabul qilingan kiyimda borish kerak. Talaba o‘zining didiga qarab, lekin bunda klassik uslubdagi kiyimlarni kiyishi: yosh yigitlar tepe tomoniga ochiq rangli, pastki qismi qoramtilsiz tusli kiyimlarni kiyishi va, albatta, galstuk taqishi lozim. Murabbiy talabalarga shuni tushuntirishi kerakki, kiyim-bosh o‘ziga xos “ijtimoiy signal”, “tashrif varaqasi” hisoblanadi.

“Qanday kiyinish kerak” degan qoidani egallab olish – talaba madaniyatining ajralmas tarkibiy qismidir. Talaba kiyinishda, avvalo, xushbichimlilik, tartiblilik va hatto qandaydir qat’iylikni ham yaratishga intilishi kerak.

Talabalar ba’zan kiyinishda uchta katta xatoga yo‘l qo‘yishadi:

- o‘zining barcha kiyimlari fasonini ham modalar sanoati belgilab berishiga imkon beradi;
- o‘zining jozibadorligi ahamiyatini bo‘rttirib ko‘rsatishga moyil bo‘lishadi;
- o‘zining ijtimoiy kelib chiqishiga qarab kiyinishga ko‘proq e’tibor berishadi.

Talabalarning oliy o‘quv yurtiga to‘g‘ri kelmaydigan sport futbolkalarini kiyishi tavsiya etilmaydi. Bundan tashqari, har xil tusdagi yozuvlar yozilgan (darvoqe, ba’zan ancha nojo‘ya mazmunli) futbolkalarni xush ko‘radiganlar bunday shubhali tusdagi kiyimlarni tayyorlovchilar tilini bilmasligi sababli ham kiyimida nima deb yozib qo‘ylganligini bilishmaydi.

Talabalar oraliq va yakuniy sinovlarni topshirishda qat’iy va biroz tantanavor kiyinislari kerak. Har qanday sinov oluvchiga kostyum, yorqin ko‘ylak kiygan va galstuk taqqan yoshlarni uchratishi xush yoqadi, qizlarning esa qat’iy tusdagi ko‘ylak yoki jaket kiygani ma’quldir. Sinov kuni yoqasi ochilib turadigan, e’tiborni chalg‘itadigan matoli kiyimlarni kiymagan, bezak-taqinchoqlarni taqmagan, haddan ortiq yasan-tusan qilmagan ma’qul.

Ko‘pincha auditoriyada jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari uchun mo‘ljallangan mashq kiyimlarini kiyib kelgan talabalarni ham uchratib qolish mumkin. Sport mashqi kiyimlarini kiyimdagи sportcha uslublardan farqlash zarur. Sport mashqi kiyimlari sport, jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishga mo‘ljallangan. Kiyimdagи sportcha uslub modaga sport bilan shug‘ullanishda kiyiladigan qulay, gigiyenik va

chiroyli kiyimlarning ta'siri ostida yuzaga keldi.

Sportcha uslub amaliy kostyum yoki kundalik kiyim komplektida: cho'ntaklari ustidan tikilgan kurtka yoki jaket, pogonlar, molniyalar, jinsilar, kombinezon, yarim kombinezon, vodolazka, erkin turadigan sviter, uzun tasmali sumkalarda o'z aksini topishi mumkin. Talaba yoshlar shuni esda tutishi kerakki, erkaklar xonada bosh kiyimini kiyishmaydi. U yoki boshqa buyumning vazifasini bilish va ulardan ayni kerakli vaziyatlarda foydalanish kerak.

Ko'pgina yoshlar modaga berilib ko'pincha shuni esdan chiqarishadiki, moda hech qachon qaysidir bir aniq kishining didini mo'ljallab tikilmaydi. U umumiyligi, qiyofasiz andoza beradiki, bu odatda kishining individualligini yo'qotadi. O'zini, o'zining tashqi qiyofasini, temperamenti, fe'l-atvor tusini baholay bilish va shunga qarab kiyim uslubini tanlash kerak. Yoshlarning o'z uslubi, o'z qiyofasini izlashi to'g'ridir. Yosh yigitlar va qizlar yaxshi kiyim-bosh yordamida o'ziga e'tiborni qaratishga, ma'lum yoshda uchraydigan nuqsonlardan xalos bo'lishga intiladi. Shu sababli tajribalar, izlanishlar, g'oyat turli xildagi, ba'zan hatto qarama-qarshi tusdagi kiyimlarni kiyishni sinab ko'rish maqsadi paydo bo'ladi.

Yillar o'tgani sayin tashqi ko'rinish va kiyim-boshga munosabat o'zgarib boradi. Biroq tashqi qiyofa bilan ichki olamning muvofiq bo'lishiga doir talab o'zgarmasdan qolaveradi. "Yaxshi did, yaxshi tarbiya va sog'lom fikr o'zaro bir-biri bilan shunchalik chambarchas bog'lanib ketganki, bizning fe'l-atvorimizga ularning qaysi biri eng ko'p ta'sir qilishi mumkinligini aytib berish maholdir; chunki biz ko'rib turganimizdek, kishilarning fe'l-atvoriga tegishli masalalarda yaxshi did va yaxshi tarbiya – ayni bir narsadir", – deb XVIII asrdayoq ingliz faylasufi Tomas Rid shunday yozgan edi.

Har qanday muassasada kiyim-boshning muayyan andozalari amal qiladi. Qayd qilib o'tilganidek, oliy o'quv yurtida ular oliy o'quv yurti ma'muriyati qo'yadigan talablar majmui shaklida bo'ladi va talaba bunday qoidalarga bo'ysunishi lozim. Murabbiy esa buni tushuntirishi va o'ziga ishonib topshirilgan guruhdagi talabalarning lozim darajada kiyinib yurishini kuzatib borishi hamda talabalarni oliy o'quv yurtidagi korporativ madaniyat normalariga rioya etish zarurligiga ishontirishi lozim.

O‘zini baholash



Barqaror-beqaror

Yuqori-past

Haqiqiy ko‘rsatish uchun

Bilgan holda-bilmagan holda

Ishongan-ishonmagan



I V-BO‘LIM

MURABBIY TARBIYAVIY FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY YO‘LLARI

4.1. Talaba shaxsini kamolga yetkazishda oliy o‘quv yurtining roli

Jamiyatning normal faoliyat yuritishi va rivojlanishida ta’limning ijtimoiy instituti favqulodda muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy va madaniy o‘zgartirish funksiyasi hozirgi ta’lim institutining ustun yo‘nalishidir. Bunday funksiya ikkita o‘zaro bir-biriga bog‘liq usullar bilan amalga oshiriladi. Birinchidan, bu oliy o‘quv yurtlari bag‘rida o‘tkaziladigan ilmiy tadqiqotlar, ilmiy yutuqlar va kashfiyotlar jarayonida bajariladi.

Oliy maktab ilmiy taraqqiyotga yordam berish bilan birga jamiyatning madaniy merosining boyishi va kengayishiga ham o‘zining katta hissasini qo‘sadi. Bundan tashqari, oliy o‘quv yurtlarining ishlab chiqarish bilan teran aloqada bo‘lishi sababli fan, oliy ta’lim va ishlab chiqarishning integratsiyasi yuz beradi, buning natijasida fan-texnika taraqqiyoti jadallahadi. Oliy o‘quv yurtlari ko‘p jihatdan davlat idoralari va xo‘jalik yurituvi subyektlari firmalarining buyurtmasiga ko‘ra nazariy va amaliy tadqiqotlarni, eksperimental ishlanmalarni bajaradigan ilmiy-tadqiqotchilik markazlariga aylanib bormoqda. Shu bilan bir qatorda, oliy o‘quv yurtlari bag‘rida ilmiy tadqiqotlarning rivojlanishi oliy ta’lim tizimini takomillashtirishga yordam beradi, chunki yangi ilmiy g‘oyalar va kashfiyotlar o‘quv dasturlariga kiritiladi, mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirishni ta’minlaydi.

Yuksak kasbiy malakali mutaxassisni tayyorlashda tarbiyaviy ishdagi asosiy diqqat-e’tibor bilimli kasb egasini, fuqaro, o‘z Vatanining fidoyi farzandini tayyorlashga qaratiladi. Qo‘yilgan vazifalarning amalga oshirilishida ta’lim muassasasidagi tarbiyaviy faoliyat tizimi talabalarda kasbiy-shaxsiy fazilatlar va qobiliyatlarini shakllantirish, ularni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish, kelgusidagi kasbiy faoliyat yo‘nalishida o‘z malakalarini o‘zi amalga oshirish va o‘zini o‘zi takomillashtirishga yo‘naltirilishi lozim.

Oliy o‘quv yurtida talabalarni tarbiyalash jarayoni, bir tomonidan, bo‘lg‘usi mutaxassisning qobiliyatlarini hisobga oladigan va rivojlantiradigan, boshqa tomondan esa u o‘zining kasbiy faoliyatini ish

beruvchilar talabi va davlatning andozalariga muvofiq tarzda tashkil etishga tayyor bo‘ladigan darajada tashkil qilinishi kerak.

Murabbiy o‘zining tarbiyaviy ishdagi rolini idrok etgan holda talabalarda “kelgusini ko‘zlaydigan”: yuqori haq to‘lanadigan ish, qiziqarli mashg‘ulot, zavqli talabalik davri kabi motivlarning yaratilishiga yordam berishi lozim. Bunday motivlar ixtisoslikni egallash yo‘lida harakatlantiruvchi kuchlar bo‘lishi mumkin. Murabbiylar va oliv o‘quv yurti ushbu motivlarni harakatga keltirish: o‘quv jarayonini tashkil etish, ta’limning yuksak darajasini ta’minalash, professor-o‘qituvchi bilan talaba o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning etikasini shakllantirish va qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirishga qodirdir. Ayni shu narsa ko‘p jihatdan tez orada oliv o‘quv yurtini tugatganidan keyin mamlakat iqtisodiyotining hamma tarmoqlaridagi korxonalar rivojlanishini ta’minalaydigan insonning kasbiy va psixologik qiyofasini belgilab beradi. Iqtisodiyotning barcha sohalarida yuksak malakali kasb egalarining mavjud bo‘lishi esa jamiyatda ularning faoliyati qanchalik samarali, jamiyat ham naqadar farovon bo‘lishini tasdiqlashga imkon beradi.

4.2. Talabalar tarbiyasiga insoniy yondashuv

Insonparvarlik – inson atrofidagi qarashlar, e’tiqodlar, ideallarning umumlashgan tizimi sifatidagi falsafiy tushunchadir. Ta’limning insonparvarlashtirilishi fe’l-atvorda deviantli og‘ishishlar bo‘lmasligi uchun ma’naviy nuqtayi nazardan zarur. Oliy ta’lim, avvalo, shaxsga qarab yo‘naltirilishi, shaxsni rivojlaniruvchi bo‘lishi kerak.

Yuksak madaniyatli kishi u yoki bu hodisani o‘zlashtirar ekan, shu asnoda o‘zida ham kashfiyot qiladi. Agar u tashqi dunyo voqeasi va qonuniyatlarini bilish bilan bu jarayonni o‘zining yangi aqliy va ma’naviy kuchlarini, o‘zini bilishi va o‘zini rivojlanirishi hislarini uyg‘otishi sifatida idrok etadigan bo‘lsa, unda tegishli madaniyat sohasi uning “o‘z olamiga”, o‘zining imkoniyatlarini o‘zi amalga oshirishi mumkin bo‘ladigan makonga aylantiradi va buni egallash kuchli va ishonchli motivatsion negizga ega bo‘ladiki, an’anaviy ta’lim buni ta’minalay olmaydi. Shu munosabat bilan hozirgi vaqtida rivojlanib borayotgan texnokratiya va insonning degumanizatsiyasiga alternativ bo‘lib hisoblanadigan gumanistik psixologiya yo‘nalishiga murojaat

qilish zarur. “Gumanistik” degani – “insonparvarlik” deganidir. Bunday yondashuv real kishilarga qaratilgan. U insonni o’rganadi, uning laboratoriyadagi vaziyatlarda qanday namoyon bo’lishini emas, balki hayotda qay tusda mavjud bo’lishini tadqiq qiladi. Gumanistik yondashuv, shu jumladan, tarbiya sohasida ham manipulyativ boshqarishdan voz kechishlikni nazarda tutadi.

Gumanistik psixologiya rivojlantiradigan konsepsiyaga (A.Maslou, D.Olport, K.Rojers) muvofiq:

- ta’lim umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan;
- ta’lim o‘z imkoniyatlarini o‘zi amalga oshiradigan shaxsning shakllanishi jarayonidir;
- shaxsning rivojlanishi yaxlit holda, aql-idrok va his-tuyg‘ular, ruh va jismning birligida sodir bo‘ladi;
- ta’lim insonning o‘zining faoliyati orqali amalga oshiriladi;
- ta’lim tusi har bir kishi uchun individual tarzda o‘ziga xos bo‘ladi;
- ta’lim jarayoni ichki motivatsiyaga, shuningdek, shaxsning boshqa shaxslar bilan to‘laqonli muloqotga kirishish ehtiyojiga asoslanadi;
- inson rasmiy rahbarlik muhitida emas, balki g‘amxo‘rlik va qo‘llab-quvvatlash sharoitida yaxshi ta’lim oladi.

Talabani shaxs, individum va faoliyatning faol subyekti sifatida rivojlantirish yo‘nalishi faqat murabbiy bilan talabaning birgalikdagi faoliyatining tegishli strategiyasini qurish asosida amalga oshirilishi mumkin. O‘zi ham talaba shaxsini rivojlantirishga intiluvchi murabbiy talabalarning kelgusidagi muammolarini, shu jumladan, shaxsiy-kasbiy o‘zini o‘zi belgilashi, katta yoshdagi mustaqil hayotga psixologik tayyorlanish muammolarini samarali hal etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Inson hayotining markaziy psixologik muammosi – o‘zining imkoniyatlarini o‘zi amalga oshirishi va o‘zining ijodiy salohiyatini o‘zi rivojlantirishi muammosi. Shu asosda rivojlantiruvchi dasturning asosiy maqsadi – shaxsning faolligini uyg‘otish, uning o‘zini o‘zi rivojlantiruvchi mexanizmlarini ishga solish muhim bo‘ladi. Buning o‘zi – tarbiyaviy faoliyatga nisbatan gumanistik yondashuvning o‘zidir.

Oliy o‘quv yurtida gumanistik turdagи tarbiyaviy tizimning mavjudligi guruh murabbiysining tarbiyaviy faoliyatini tashkil etishdagi: tarbiya maqsadlari, uslublari va shaklini tanlash, talabalar bilan xushmuomala va ishonchli munosabatlarni o‘rnatish, jamoatchilik

ishlarini bajarish va ularning tarbiyaviy samarasini baholashdagi turlicha bo‘lgan bir qator qiyinchiliklarni istisno etadi.

4.3. Shaxsning ijtimoiy muhitdagi tarbiyasi

Shubhasiz, oliy o‘quv yurtida ta’lim olish davri insonning ijtimoiylashuvidan eng muhim davrdir. Ijtimoiylashuv – shaxsni muayyan ijtimoiy shart-sharoitlarda shakllantirish jarayoni, kishining ijtimoiy tajribani egallashi jarayoni bo‘lib, bu jarayonda inson mazkur tajribani o‘zining qadriyatlari va yo‘nalishlari qilib o‘zgartirib oladi, ushbu guruhda va jamiyatda qabul qilingan normalar va andozalarni o‘zining fe’l-atvor tizimiga tanlab singdirib yuboradi. Ijtimoiylashuv jarayoni insoniy munosabatlar madaniyati va ijtimoiy tajribani, ijtimoiy normalarni, rollarni, faoliyatning yangi turlari va muloqot shakllarini o‘zlashtirishni o‘z ichiga oladi. Talabalik yoshida ijtimoiylashuvning barcha mexanizmlari ishga solingan bo‘ladi: bular – talabaning ijtimoiy rolni egallashi va “kasbiy mutaxassis”ning ijtimoiy rolini o‘zlashtirishga tayyorgarlik, taqlid qilish va o‘qituvchilar hamda talabalar guruhi tomonidan ijtimoiy ta’sir qilish mexanizmlaridir. Talabalar muhitida ishontirish va konformizm hodisalar ham o‘z ifodasini topadi.

Ijtimoiylashuv tushunchasi “tarbiyalash” tushunchasiga nisbatan ancha keng. Ijtimoiylashuv tarbiyalashga teng emas, chunki tarbiya – bu shaxsning qabul qilingan idealga muvofiq pedagoglar, ota-onalar tomonidan ongli ravishda yo‘naltiriladigan har xil ta’sir ko‘rsatishlar (o‘git, ishontirish, emotsional hislantirish, shaxsiy ibrat, faoliyatning muayyan turlariga jalb qilish va psixologik-pedagogik ta’sirning boshqa usullari) ostida atayin shakllantirilishidir (ba’zan bunday ta’sirlar noadekvat yoki samarasiz yoki hatto tarbiyalanuvchining shaxsi uchun nojo‘ya bo‘lishi, individ esa passiv rolni o‘ynashi ham mumkin).

Ijtimoiylashuvda individ faol rol o‘ynaydi, muayyan idealni uning o‘zi tanlaydi va unga amal qiladi, unga ijtimoiylashtiruvchi ta’sir o‘tkazuvchi kishilar doirasi esa keng bo‘ladi va chegaralari noaniqligicha qolaveradi. Qayd qilinganidek, talabalik yoshi aynan u yoki boshqa hayotiy uslub va idealni mustaqil va faol tanlashga intilish bilan tavsiflanadi. Shunday qilib, oliy o‘quv yurtidagi ta’lim talaba shaxsini ijtimoiylashuvining kuchli omili bo‘lib, mazkur ijtimoiylashuv jarayoni talabalar va o‘qituvchilarning hayotiy faoliyatini jarayonida

amalga oshiriladi. Lekin shunday savol tug‘iladi: talabalarga o‘qituvchilar tomonidan aniq maqsadni ko‘zlaydigan tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishlar talab etiladimi va ular samarali bo‘ladimi?

Oliy maktab pedagogikasi va psixologiyasida talabalar tarbiyasi muammosidan boshqa bahsli muammo yo‘q. “Katta yoshga yetib qolgan kishilarni tarbiyalash kerakmi?” Ushbu savolning javobi tarbiyani qanday tushunishga bog‘liq bo‘ladi. “Agar uni shaxsda tarbiyachi, oliy o‘quv yurti, jamiyatga kerak bo‘ladigan xususiyatlarni shakllantirish maqsadida ta’sir ko‘rsatish sifatida tushuniladigan bo‘lsa, unda javob faqat salbiy bo‘ladi. Mabodo bu savolni oliy o‘quv yurtidagi ta’lim jarayonida shaxsning o‘zini o‘zi rivojlantirishi uchun shart-sharoitlarni yaratish sifatida tushunadigan bo‘lsak, unda javob ijobiy bo‘lishi lozim.

SHAXSNING SHAKLLANISHINI BELGILOVCHI OMILLAR

❖ **Ijtimoiylashuv** – individning ushbu jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur bo‘ladigan fe’l-atvor namunalari, ijtimoiy me’yorlar va qadriyatlarni o‘zlashtirishi jarayoni. Insonni o‘rab turgan ijtimoiy muhit shaxsga nisbatan aniq maqsadni ko‘zlab (ta’lim va tarbiyani tashkil etish yo‘li bilan) va oldindan biror maqsadni ko‘zlamasdan ham ta’sir qilishi mumkin.

Shaxsning ijtimoiy fe’l-atvori ikkita asosiy tushuncha: ijtimoiy mavqe va ijtimoiy rol tushunchalari bilan bayon qilinadi.

❖ **Ijtimoiy mavqe** – guruh yoki jamiyatning ijtimoiy tuzilmasidagi huquqlar va majburiyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan muayyan pozitsiyadir.

❖ **Ijtimoiy rol** – mazkur maqomga yo‘naltirilgan fe’l-atvor modeli, individdan kutiladigan xulq-atvordir.

Ijtimoiylashuv jamiyat va atrof-tevarakdagi kishilarning hushyor nazorati ostida kechadi. Ular yoshlarni nafaqat tarbiyalaydi, shu bilan birga ular o‘zlashtirgan fe’l-atvor namunalari (rollar)ning to‘g‘riligini ham nazorat qiladilar.

❖ **Ijtimoiy nazorat** – jamiyatning individlar fe’l-atvorini tartibga solishida va ijtimoiy tartibni tutib turishida asos bo‘ladigan vositalar majmui. Ijtimoiy nazorat elementlari – me’yorlar va sanksiyalardir.

❖ **Ijtimoiy normalar** – aniq vaziyatlardagi fe’l-atvor uchun ko‘rsatmalar, talablar, xohish-istiklar, kutishlar va andozalardir. Masalan, urf-odatlar, an’analar, ta’qiqlar, qonunlar va hokazolar.

❖ **Ijtimoiy sanksiyalar** – ijtimoiy me’yorlarga rioya qilinishiga yordam beradigan jazolash va rag‘batlantirish choralari. Masalan, **rag‘batlantiruvchi sanksiyalar**: mukofotlar, sovrinlar, lavozimlar, stipendiyalar, maqtovlar, chapaklar, tabassum; **jazolash sanksiyalari**: hibsga olish, ishdan bo‘shatish, jarima, lavozimini pasaytirish, tanbeh, shikoyat, boykot. Me’yorlar va sanksiyalar chambarchas bog‘liqdir. Har bir me’yorning orqasida sanksiya ham turadi.


O‘zini o‘zi nazorat qilish – insonning o‘z fe'l-atvorini o‘zining mustaqil tarzda tartibga solib turishi va me’yorlarni buzganligi uchun o‘ziga nisbatan o‘zining sanksiyalarini qo‘llanishi. Masalan, noqulaylik yoki aybdorlik hissi, vijdon azobi. Kishilarda o‘zini o‘zi nazorat qilish hissi qanchalik zaif bo‘lsa, unda ijtimoiy nazorat instituti: armiya, sud va davlat ishga soladi.

SHAXSNI RIVOJLANTIRISH, TARBIYALASH VA SHAKLLANTIRISH


Shaxs

Insonning muloqot va faoliyat jarayonida orttiradigan faollik hamda o‘zini anglashning zarur darajasiga erishishda o‘z ifodasini topadigan ijtimoiy mohiyati

INSON-SHAXS-INDIVIDUALLIKNING o‘zaro nisbati



Shaxsnинг kamolga yetishi	bu insonning anatomik-fiziologik yetilishida, uning asab tizimi va psixikasi shakllanishida, shuningdek, uning bilishga oid va ijodiy faolligi, dunyoqarashi, ma’naviy qarashlari va e’tiqodlari hosil bo‘lishida yuz beradigan miqdoriy hamda sifat o‘zgarishlari jarayonidir
---------------------------	--



Rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchlari

1. Ichki ziddiyatlar (shaxsning imkoniyatlari bilan uning ehtiyojlari o'rtasidagi)
2. Tashqi ziddiyatlar (shaxs imkoniyatlari bilan jamiyat talablari o'rtasidagi)

Rivojlanish omillari

1. Ichki (irsiy genotip, psixofiziologik xususiyatlar)
2. Tashqi (tarbiya, muhit)

Rivojlanishda biologik va ijtimoiy omillar o'zaro nisbatining asosiy konsepsivalari

Biologik

Shaxsning ma'naviy fazilatlari tabiiy negizda rivojlanadi; tarbiya bu jarayonni sifat jihatdan o'zgartira olmaydi

Bioijtimoiy

Shaxsning psixikasi jarayonlari tabiiy negizga ega, shaxsning yo'naltirilishi esa ijtimoiy muhit ta'sirida shakllantiriladi

Sotsiologik

Ijtimoiy muhit shaxs rivojiga belgilovchi ta'sir ko'rsatadi

4.4. Dunyoqarashning shakllantirilishi

Talabalarning dunyoqarashini shakllantirishga ta'sir qiladigan omillar

Dunyoqarashning shakllantirilishi shaxsning bazaviy madaniyatini tarbiyalashning muhim vazifalaridan biridir. Dunyoqarash dunyoga (ya'ni, tabiat, jamiyat va tafakkurga) nisbatan ilmiy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy, estetik qarashlarning butun bir tizimidan iborat bo'ladi. Dunyoqarash dunyo sivilizatsiyasi yutuqlarini o'zida mujassam etish bilan insonni olamning, jamiyatning bir tizimli in'ikosi sifatidagi manzarasi bilan quollantiradi.

Dunyoqarash insonning o'zini o'rab turgan voqelikka nisbatan qadriyatga oid munosabatlarining murakkab majmuasini o'zida biriktirib, shaxsning barcha xususiyat va fazilatlarini jamlaydi, ularni bir butun qilib birlashtiradi, uning ijtimoiy yo'naltirilganligi, shaxsiy pozitsiyasi, fuqarolik fe'l-atvori va faoliyati turini belgilaydi. Shular asosida dunyoqarashga oid e'tiqodlar shakllanadi.

Inson – ijtimoiy mavjudotdir. Uning dunyoqarashi jamiyat ta'sirida shakllantiriladi. Murabbiy shuni anglab olishi kerakki, u ham o‘z tarbiyalanuvchilariga ta'sir ko'rsatadigan muayyan ijtimoiy muhitni yaratadi. Bu holat murabbiylik soatlarida tilga olingan mavzular ta'sirida yuz beradi.

Bizning davlatimizda jamiyat har tomonlama barkamol shaxsning rivojlanishidan manfaatdor. Jamiyat bilan shaxsning o‘zaro aloqasi shunda namoyon bo‘ladiki, barcha ijtimoiy dasturlar shaxsning ma’naviy rivojlantirishi masalalarini o‘z ichiga oladi. Shu jihatdan olganda bizning milliy istiqlol g‘oyamiz ham jamiyatning har tomonlama kamolga yetgan, zamonaviy va faol shaxsning dunyoqarashini shakllantirish borasidagi maqsadlar va vazifalarini belgilovchi dasturdir.

Murabbiy oldida talaba shaxsining dunyoqarashini shakllantirish, ya’ni o‘zining shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalqning manfaatlari bilan uyg‘un tarzda qo‘sib olib boradigan har tomonlama rivojlangan insonni tarbiyalash vazifasi turadi.

Shu jihatdan olganda milliy istiqlol g‘oyasi ma’naviy shaxs dunyoqarashini shakllantirishni birinchi o‘ringa qo‘yadi, ma’naviyat esa bu o‘zini, o‘zining jamiyatdagi o‘rnini yanada teran bilib olishga intilishdir. Shuning uchun shaxs kamoloti katta ahamiyatga egadir.

Aniq maqsadga yo‘naltirilgan tarbiya dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi. Dunyodagi ijtimoiy-tarixiy tajriba tarbiyaning hozirgi jamiyatda tashabbuskor ijtimoiy va kasbiy faoliyat yuritishga tayyor, har tomonlama uyg‘un tarzda kamolga yetgan, ushbu jamiyat qadriyatlarini anglash va yanada boyitishga qodir shaxsni voyaga yetkazish sifatidagi bosh maqsadni belgilashga imkon beradi.

Ta’limning dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradigan tarbiyaviy komponentining qadriyatga oid ustuvor yo‘nalishlari:

- shaxsning umuminsoniy insonparvarlik qadriyatlariga tomon yo‘naltirilganligi;
- bag‘rikenglik (tolerantilik);
- milliy istiqlol g‘oyasi;
- shaxsning mohiyatga oid kreativ qobiliyatlarining ochilishi;
- ehtiyojlarni shakllantirish, intellektual va ijodiy salohiyatni amalga oshirishga qaratilgan tarbiya.

Ma’naviy ta’sirlarning psixologik o‘ziga xos xususiyatlari

Murabbiy – talabaning hayotini uning individual yo‘nalishiga muvofiq ravishda yo‘naltiradigan tarbiyachi, ma’naviy ustozdir. U talabani kasbiy jihatdan yetuklikka erishish qadriyatları olamiga olib kirishi, unga kasbiy mushohada yuritish va kasb egasi bo‘lib shakllanish texnikasini o‘rgatishi kerak.

Murabbiy talabani ana shu sohani egallash, o‘zining dunyoqarashlari tizimini mustaqil qurish va o‘z hayotidagi ijodiy, etik, estetik mazmunni qo‘sib olib borishga undashi lozim. Murabbiy o‘zining tarbiyalanuvchisiga o‘zini o‘zi bilishida yordam berishi, uning refleksiv qobiliyatlarini ochishi va rivojlantirishi zarur.

Ma’naviy ta’sirlarning psixologik xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Ta’sirlar uch nuqtayi nazardan: murabbiydan talabaga beriladigan qandaydir ma’naviy mazmun sifatida; ikkita yakdil fikrli kishining uchrashuvi va o‘zaro bir-birining olamiga kirib borishi jarayoni sifatida; murabbiy tarqatgan yangi ma’naviy mazmun kirib borishi oqibatida talaba ongingin o‘zgarishi sifatida tavsiflanishi mumkin.

2. Agar ta’sirning amalga oshirilishida murabbiy yutuqlarining talabaning ichki dunyosida sermahsul o‘zlashtirilishi yuz bersa, unda bunday ta’sir rivojlantiruvchi ta’sir bo‘ladi. Agar talaba qabul qilgan ta’sir uni hayotdagi rivojlanib boruvchi muammoli munosabatlar doirasiga, ijodiy faollik holatiga kirtsqa, ana shunday holat sodir bo‘ladi.

3. Ustozning o‘z shaxsiy hayotida orttirgan ta’sirlari, ijodkorlikning yangicha tamoyili, g‘oyani mujassamlashtirish usuli, boshqa kishilar bilan rivojlanuvchi munosabatlarni qura bilish qobiliyati talaba tomonidan, ayniqsa, teran ilg‘ab olinadi. Murabbiy ko‘rsatadigan bunday ta’sirlar talabaga ilhom, izlanishga, kasbiy yutuqlarga istak hissini baxsh etadi.

4. Talabada qiziquvchanlik, hali bilib, tushunib, izohlab ulgurmagan narsalar oldida hayratlanish, ta’sirlanish holatini uyg‘otadigan mazmun ta’sirga aylanadi. Mazmun uni o‘ziga jalb qiladi, ham ijodkorlik vaziyatlarini qidirishga undaydi.

5. Ma’naviy ta’sir ko‘rsatish uchun eng qulay hayotiy vaziyatlar – bevosita muloqot, birgalikdagi faoliyat, birgalikdagi kechinmalar ni boshdan o‘tkazish kabilardir. “Talabaning ustoz taklif etgan faoliyatga singib ketishi” ma’naviy ta’sir ko‘rsatishga yaxshi imkon beradigan

vaziyat bo‘lib, u talabaning ustoz hayotining uning harakatlari natijasida pinhon tutiladigan mantiqi va kuchini tushunib olishiga imkon beradi.

6. Talaba murabbiyning murakkab talabchan ta’sirlariga javob beradigan qizg‘in faoliyatda chinakamiga ma’naviy ta’sirni sezishi mumkin. Ta’sir ko‘rsatish turlari quyidagilardir:

- Murabbiy talabaning harakatlari va munosabatlarida uni yo‘naltirish bilan unga fe’l-atvorning har xil rivojlantiruvchi modellari, usullari, harakatlar variantlarini erkin tanlashiga imkoniyat yaratadi;
- Ustoz talabaning harakat usullari va natijalari bilan tanishib, ularni konstruktiv tanqid qiladi, fe’l-atvorni o‘zgartirish yo‘llarini ko‘rsatadi, unda yanada mukammalroq ishslash mumkinligiga ishonch hissini qo‘llab-quvvatlaydi;
- Murabbiy talabani ma’naviy yo‘nalishda ilgari undash bilan unga ijtimoiy fe’l-atvor usullarini beradi, uning “MEN”ini umumiyligida psixologik manzarada taqdim etadi.

7. Talaba murabbiydan ta’sir olgach, “Yuksak MEN” dunyosini sekin-asta yorita boradi, unda keyinchalik o‘zi oldida: “Men bilyapman, men anglayapman”, “Men hayotda erkin o‘z yo‘limni topishim mumkin”, “O‘zimning ma’naviy yaxlitligimni ehtiyot qilishim kerak” kabi masalalar yuzasidan hisobot beradi. Murabbiy ta’siri talabada psixologik jihatdan yetuklik hissini hosil qiladi, u rejalar, loyihamalar, dasturlar, o‘zgarishlar, maqsadlar, mazmun, qadriyatlargacha singadi.

8. Murabbiy talabaning kayfiyatini, ta’sir ko‘rsatish maqbulligi va o‘z vaqtidalilagini sezib turishi kerak. Bu o‘rinda mezon intuitsiya, ichki sur’at hissi orqali belgilanadi. Talaba bilan muloqot yuritishda nazokat, sezgirlik zarur. Murabbiyning haqiqiy rivojlantiruvchi ta’siri talabani: “meni qiziqtirishdi”, “menga ochib berishdi”, “meni tushunishdi”, “meni hayratga solishdi” kabi betakror o‘zini o‘zi his etish holatlariga soladi.

9. Qabul qilingan, idrok etilgan, o‘zining faoliyatida davom ettirilgan ta’sirlar talaba va murabbiyning intellektual, kasbiy, ma’naviy, estetik munosabatlarini rivojlantirish bo‘yicha shaxslararo markazlarga aylanadi. Shaxsda muqim o‘rnashgan har qanday rivojlantiruvchi ta’sir ijtimoiy munosabatlar tarkibiga kiradigan jonli yagona aloqa sifatida o‘zaro ta’sirlar negizini o‘zida mujassam etadi.

Ana shu haqiqiy ma’naviy ta’sirlarning umumiyligida psixologik xususiyatlari haqidagi bilim murabbiyni talaba shaxsining hayotda

kamolga yetishidagi qonuniyatlarni yangi jihatlardan o‘rganishga yo‘naltiradi.

Aynan shuning uchun o‘z mazmuniga ko‘ra g‘oyat boy “ma’naviy ta’sir” tushunchasi har bir murabbiy onidan o‘rin olishi kerak.

4.5. Fuqarolik – vatanparvarlik tarbiyasining samaradorligini belgilovchi omillar

Vatanparvarlik haqida so‘z yuritishdan avval Vatan tushunchasiga izoh berish maqsadga muvofiq. Vatan aslida arabcha so‘z bo‘lib, “Ona yurt” ma’nosini anglatadi, shu ma’noda olib qaraydigan bo‘lsak, O‘zbekiston – o‘zbek xalqining Vatani, muqaddas sajdagohidir:

Dunyo bo‘ldi chamanim manim,

O‘zbekiston Vatanim manim.

Vatan – bu inson va uning avlod-ajdodlari kindik qoni to‘kilgan muqaddas dargohdir. Vatan – bu ajdodlar maskani, el-yurt, xalq voyaga yetgan, uning tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlari, qadriyatlari chinakamiga shakllanib, o‘sib, kamol topib boradigan zamindir.

Vatan deganda hamisha o‘zimiz tug‘ilib o‘sgan, ko‘z ochib ko‘rgan, ta’lim-tarbiya olib voyaga yetgan, necha-necha avlod-u ajdodlarimiz yashab o‘tgan, ularning aql-idroki, mehnati sarf qilingan yurt ko‘z oldimizga keladi.

Vatan ona kabi aziz va mukarramdir. Vatan insonga baxt-iqbol beradigan zamindir. Abdulla Avloniy aytganidek: «Har bir kishining tug‘ilib o‘sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug‘ilgan, o‘sgan joyini jonidan ortiq suyar. Biz turkistonliklar o‘z vatanimizni jonimizdan ortiq suyganimiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik issiq cho‘llarini, eskimuslar shimal taraflar, eng sovuq qor va muzlik yerlarni boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi turonlik oson yerlarga o‘z vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi».

Vatan – bu xalqning o‘tmishi, buguni va kelajagidir. Vatan – muqaddas qadriyat. Taraqqiyot vatandan boshlanadi. U insonning kindik qoni to‘kilgan joy, insonni ijtimoiy yetimlikdan asrovchi manzil, ma’naviy kamolot va fuqarolik maydoni, hayot maktabi, farovonlik va baxt-saodat o‘chog‘idir.

Vatan mehrini, vatan sehrini, uning mo‘tabarligi-yu ulug‘vorligini so‘z bilan ifodalash qiyin.

Mustaqil Respublikamiz fuqarolari, xususan, yoshlari ruhiyatida vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish, ularni rivojlantirish demokratik, adolatli va huquqiy jamiyatni barpo etishning muhim kafolati sanaladi. Shuning uchun vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish butun tarbiyaviy ishimizning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmog‘i lozim.

Mustaqillik yillarida vatan, vatanparvarlik, qahramonona an’analarga sadoqat, burch, or-nomus, qadr-qimmat, o‘z xalqining tarixini bilish, o‘zini qurbon qilishga shaylik kabi va boshqa botiniy qadriyatlarga nisbatan munosabat jiddiy o‘zgardi. Yoshlar, shu jumladan, talaba yoshlarning aksariyat qismining ijtimoiy-ma’naviy yo‘nalishlaridagi asosiy diqqat-e’tibori pragmatizm tomonga keskin burildi.

Vatan manfaatlarini himoya qilishga shay va qodir vatanparvar fuqaro shaxsini shakllantirish va rivojlantirish g‘oyasi **murabbiy faoliyatidagi eng ustuvor yo‘nalishlardan biridir**.

Bugungi kunda vatanparvarlik yangicha vazifani, ya’ni mamlakatimizni g‘arbiy sivilizatsiya tamoyillari va me’yorlarining respublikamizning o‘zi, uning o‘ziga xos xususiyatlari va mustaqilligi uchun qanchalik maqsadga muvofiq ekanligidan qat’i nazar, ularga bog‘liq bo‘lib qolishlikdan himoya qilishni namoyon etmoqda.

Vatanparvarlik pozitsiyasi – iqtisodiyotni zamonaviylashtirish, uning samaradorligini keskin oshirish, davlatning shu kundagi va kelgusidagi buyukligiga erishish uchun barcha ijtimoiy kuchlarni jamlash, o‘zining bu sohadagi vazifasini idrok etishga intilishdir. Pedagogika fanida vatanparvarlik tarbiyasi muammosida an’anaviy tarzda harbiy-vatanparvarlik jihatni ustunlik qilib kelgan.

Hozirgi vaqtida vatanparvarlik tarbiyasining boshqa jihatlarini:

- diniy-sektantlik tajovuzkorligiga,
- terrorizm mafkurasining salbiy ko‘rinishlariga qarshi turishni tadqiq etish g‘oyat dolzarb ishdir.

Har bir kishi aniq bir davlatning fuqarosi hisoblanadi, muayyan xalqqa, millatga mansub bo‘ladi. Shuning uchun insonning umumiyl fuqarolik pozitsiyalaridan turib tarbiyalash uning fuqaro, o‘z Vatanining vatanparvari sifatida tarbiyalashni nazarda tutadi.

Vatanparvarlik o‘zining Vatani, uning tarixi va yutuqlari bilan faxrlanish hissi sifatida belgilanadi. Bu – o‘z Vatanining yanada farovonlikka erishishi, uning gullab-yashnashiga o‘z hissasini qo‘shishga intilishdir.

Fuqarolik-vatanparvarlik tarbiyasi, shunday qilib, o‘sib kelayotgan yosh avlodda shaxsning fuqarolik-vatanparvarlik xususiyatlarini shakllantirishni nazarda tutadiki, bunday shakllanganlik darajasi ta’lim muassasalarida talabalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mafkuraviy mazmunini tashkil etish samaradorligining mezonlaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Murabbiy fuqarolik-vatanparvarlik tarbiyasi maqsadlarida murabbiylik soatlari mavzulari qatoriga mamlakatimizning buyuk mutafakkir olimlari haqidagi hikoyalarni kiritishi, shuningdek, talabalardan vatanparvar kishi xarakterini ochib beradigan har bir tushuncha bo‘yicha ilmiy matnlarni tuzishni, vatanparvarlik mavzularida referatlarni tayyorlashni, shuningdek, ijodiy ishlarni bajarishni, mavzu bo‘yicha o‘qigan asarlari haqida taqrizlar, fikrlarni yozish, “Vatanga xizmat qilish burchi” mavzusida insho yozishni taklif etish kerak.

Shubhasiz, o‘z Vatanining fuqarosini tarbiyalash – bu ko‘p qirrali va ko‘p yo‘nalishli jarayon. Istalgan natijani olish uchun vatanparvarlik hissini singdirishning o‘zi kifoya qilmaydi. Tarbiyalanuvchilarni xalqimizning qahramonona tarixi bilan puxta o‘ylab oshno qilmasdan turib vatanparvarlik tarbiyasining dunyoqarashga doir yo‘nalishini kuchaytirib bo‘lmaydi.

Murabbiy talabalarni ijtimoiy faol qilib shakllantirish borasidagi o‘z mas’uliyatini to‘g‘ri idrok etishi kerak. U bu vazifani o‘zi oldiga talabalarda fuqarolik, Vatanga, oilaga muhabbat, vatanparvarlik va milliy o‘zini anglashni tarbiyalash va rivojlantirish bo‘yicha eng muhim vazifalardan biri sifatida qo‘yishi lozim. Tarbiyaning ayni shu jihatni oliy kasbiy ta’limning mamlakat va dunyodagi ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy tub o‘zgartirishlar bilan chambarchas o‘zaro aloqasini ta’minlaydi.

Aynan shu turdagи vatanparvarni tarbiyalash – har bir murabbiyning burchi.

Talaba shaxsida vatanparvarlikni shakllantirishda marosimlarning ahamiyati

Murabbiy davlat ramzlaridan foydalanganda talabalarda nafaqat o‘z davlat hokimiyatining ramzlariga nisbatan hurmat-ehtiromli munosabatni tarbiyalaydi, shu bilan birga umuman o‘sib kelayotgan yosh avlodning vatanparvarlik tarbiyasiga, uning fuqaro bo‘lib shakllanishiga yordam beradi.

Davlat gerbi (tamg‘asi), bayrog‘i va madhiyasi –Mustaqilligimizning asosiy ramzlari bo‘lib, xalqimizning tarixiy-madaniy merosini o‘zida aks ettiradi va fuqarolarning milliy ruhi va qadr-qimmatini ta’kidlab ko‘rsatadi. Ijtimoiy-madaniy bir xillashtirish jarayoni yoshlarda davlat ramzlari yordamida qadriyatga oid yo‘nalishlarni hosil qilish va vatanparvarlik ruhini tarbiyalash mexanizmlaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat ramzlari barcha xalqaro forumlar, simpoziumlar, xalqaro konferensiyalar, sport musobaqalarida va shu kabilarda uning timsoli bo‘lib qoldi.

Davlat ramzlari nafaqat taqdimot belgilari bo‘lib, shu bilan birga mamlakat haqida hikoya qiladi va shu sababli har bir fuqaro O‘zbekiston Gerbi, Bayrog‘i, Madhiyasi ramzlari nimani anglatishini yaxshi bilishi kerak.

Murabbiy shuni ta’kidlashi kerakki, Gerb O‘zbekiston tuprog‘ining jug‘rofiy afzalliklari, uning mahsuldorligi va go‘zalligi, Sirdaryo bilan Amudaryo oralig‘idagi ilgari hayot bo‘lmagan dasht-u sahrolar o‘rnida ajoyib bog‘-rog‘lar va gulzorlarni yaratgan xalqining mehnatsevarligi haqida hikoya qiladi. Gerb, shuningdek, xalqning o‘zining tarixiy ildizlariga sadoqatini, ajdodlar xotirasiga nisbatan hurmat-ehtiromini aks ettiradi. Undagi Humo qushi – bizning olis ajdodlarimizning baxtu saodati ramzi bo‘lib, yulduzlar – ishonchu e’tiqodlar ramzidir. O‘z Vatanining ma’naviy tarixini bilmasdan turib uni sevish mumkin emas. Bunda murabbiyning vazifasi – talabalarni ana shu tarixni o‘rganishga undash, bu bilan ularning vatanparvarlik tarbiyasiga yordam berishdir.

Marosimlarga amal qilishda vatanparvarlikni shakllantirishga yordam beradigan psixologik mexanizmlardan biri – bu identifikatsiyadir.

Identifikatsiya – individning o‘zini boshqa bir kishiga o‘xshatishi, subyektning obyekt bilan bunday o‘xhashlikni u yoki boshqa darajada

bevosita his qilishidir. Muayyan obyekt (jumladan, bayroq, madhiya va shu kabilar) bilan identifikatsiya guruhdagi kishilarning o‘zaro aloqasini ta’minlaydi, umumiyligi va birlikka mansublikni, xavfsizlik va himoya qilinganlikni his qilishga undaydi. Identifikatsiya obyekting asosiy xususiyati shundaki, u guruhdagi aksariyat a’zolar uchun ahamiyatli bo‘lishi kerak (oliy o‘quv yurtida mashg‘ulotlar boshlanishi oldidan birgalikda madhiyani tinglash). Bunday holda subyekt o‘zini obyekt bilan birlashtirib yuborish, uni o‘zining ichki olamiga olib kirish, uning mazmunini xuddi o‘zining mazmuni kabi qabul qilishga tayyor turadi.

Identifikatsiya obyektiga nisbatan munosabat ishonch, mehr-muhabbat, hurmat-ehtirom, sajda qilish, taqlid qilishga asoslanadi. Inson o‘zini o‘ziga nisbatan pastroq pog‘onada turadigan kishilarga o‘xshatishga moyil bo‘lmaydi.

Identifikatsiyada subyekt obyekt fe’l-atvorining tashqi shakllari, boshqa shaxsning fikrlari, hislari va harakatlaridan o‘ziga nusxa oladi.

Katta yoshdagilar olaming referentlilik rolining yo‘qotilishi ular siy wholemsida mavjud bo‘ladigan an’anaviy madaniyat qadriyatlarini keskin pasaytiradi. Biroq bir xillashtirishga bo‘lgan ehtiyoj saqlanib qolaveradi, shuning uchun yoshlar ularning o‘rnini bosadigan obyektlarni izlashadi va bunday obyektlar yoshlarning qadriyatlar yo‘nalganligini o‘zgarishiga sabab bo‘ladi.

Identifikatsiya mexanizmi shaxsning madaniy noyobligi va yaxlitligini, umuman xalqning milliy-madaniy o‘zini anglashini shakllantirishda belgilovchi omil bo‘lib hisoblanadi, chunki identifikatsiya jarayonida boshqa shaxs siy wholemsida aks etadigan qadriyatlar, me’yorlar, ideallar, rollar va ma’naviy xususiyatlar qabul qilib olinadi yoki o‘zlashtiriladi.

Talabalarning fuqarolik-vatanparvarlik tarbiyasi hozirgi vaqtida, ayniqsa, dolzarb bo‘lib turibdi. Talaba oliy o‘quv yurtida ta’lim olish davrida nafaqat kasbiy bilimlarni egallaydi, shu bilan birga o‘zining fuqarolik faolligi, vatanparvarlik, mas’uliyatlilik darajalarini ham yuksaltiradi. Har bir murabbiy buni yaxshi esda tutishi kerak. Talabalarning fuqarolik-vatanparvarlik tarbiyasi mavzusi, shuningdek, ancha teran ishlab chiqilishi va oliy o‘quv yurtining ma’muriyati va talabalar jamoatchiligining konseptual yondashuvlari obyekti bo‘lishi kerak.

4.6. Ma’naviy-estetik tarbiyaning maqsadlari

Shaxsning ma’naviy madaniyati – bu umumiy axloqiy tamoyillarni bilish, ularni teran his qilingan e’tiqodlarga aylantirish, fe'l-atvor normalarini qo’llash, ularga adekvat harakat qilish qobiliyatidir.

Ma’naviy madaniyatning oliy darajasi – bu ma’naviy ong, donolik, ma’naviy faoliyatning optimalligi va uyg‘unligini ta’minlash qobiliyati, har qanday vaziyatlarda ham munosib harakatlar qilishga shaylikdir.

Murabbiy o‘zining tarbiyaviy ishida ayni shu tamoyillarga amal qilishi va o‘z faoliyatida talaba shaxsining ma’naviy madaniyatini tashkil etadigan quyidagi tarkibiy qismlarini shakllantirishga intilishi lozim:

- etik fikrlash madaniyati – ya’ni axloqiy hukm chiqarish, axloqiy bilimdan foydalanish, yaxshilik bilan yomonlikni farqlashni bilish qobiliyati;
- his-tuyg‘ular madaniyati – axloqiy rezonans, birgalikda his qilish, hamfikrlik qobiliyati;
- fe'l-atvor madaniyati – niyatlar va his-tuyg‘ularni amaliyotda aniq amalga oshirish tarzi, ularni kundalik harakat normasiga aylantirish darajasi;
- etiket – shaxsning muloqotdagi fe'l-atvori shakli, ko‘rinishlarini tartibga soladigan qoidalarga amal qilish darajasi.

Axloqiy tarbiya – bu insonda voqelikka nisbatan estetik munosabatni shakllantirishga doir aniq maqsadga qaratilgan jarayondir. Bunday munosabat kishilik jamiyatni vujudga kelishi bilan u bilan birga rivojlanib, kishilarning moddiy va ma’naviy faoliyat sohasida mujassamlashdi. U kishilarning voqelikdagi go‘zallikni idrok etishi va tushunishi, undan zavq olishi, insonning estetik ijodi bilan bog‘liq. Murabbiy estetik ko‘nikmalarni rivojlantirish bilan talabaning yaxshi fazilatlarni egallahisha, uni san’atning turli ko‘rinishlariga oshno qilish orqali uning madaniyatini tarbiyalashga yordam berishi lozim.

Ma’naviy-estetik tarbiyaning maqsadlarini o‘z-o‘zidan o‘ylab topish yoki ilgari surish mumkin emas. Ular har doim jamiyatning inson shaxsining ideali haqidagi tasavvuriga mos bo‘ladi. Inson shaxsining ideali – adabiyot va san’at asarlari, xalq ijodkorligida mavjud bo‘ladigan mukammal inson haqidagi tasavvurdir.

Har qanday jamiyatda jamiyatning ikkita pedagogik ideali mavjud bo'ladi. Biri – yuksak, keng reklama qilinadigan, lekin erishib bo'lmaydigan idealdir. Uning vazifasi – mayoq, yo'nalish, oliv namuna bo'lishdir, murabbiy o'z tarbiyalanuvchilarini uning misolida tarbiya qiladi. Boshqa bir ideal, odatda, real timsoliga ega bo'ladi. Real ideal – zamona qahramoni bo'lib, ko'pchilik unga o'xshashni, uning kabi taqdirni boshdan kechirishni orzu qiladi.

Ma'naviy-estetik tarbiyaning mezonlari

Ta'lim tizimida quyidagilar ma'naviy-estetik tarbiya mezonlari hisoblanadi: axloq me'yorlarini bilish va ularga rioya qilish zarurligiga ishonch darajasi, talabalarda ma'naviy yo'nalishlarning shakllanishida namoyon bo'ladigan ma'naviylik, talabalarda axloqiy bilimlar, madaniy qadriyatlarni o'zlashtirish va yaratishga, insonparvarlik axloqining umuminsoniy me'yorlariga amal qilinishiga nisbatan qobiliyatlar, mala-kalar va ehtiyojlarning mavjudligi; ziyolilik, fuqarolik, mas'uliyatlilikda aks etadigan shaxs madaniyati; talabalarning pedagoglar, ota-onalar, do'stlari bilan o'zaro munosabatlarining insonparvarlashuvi va uyg'unlashuvi darajasi.

Talabalarning ma'naviy - estetik tarbiyasining asosiy yo'nalishlari

Quyidagilar talabalarning ma'naviy-estetik tarbiyasining asosiy yo'nalish-laridir:

- talabalarning ma'naviy-estetik tarbiyasida professor - o'qituv-chilarning rolini oshirish;
- madaniy-ommaviy tadbirlarni yuksak badiiy darajada o'tkazish, mutolaa, axborot resurslari fondidan foydalanish, qadriyatga oid yo'nalishlarni shakllantirish orqali talabalarda estetik didni rivojlantirish;
- oliy o'quv yurtidagi ijodiy jamoalar faoliyatini rivojlantirish;
- an'analarni saqlab qolish, o'z xalqining o'tmishiga hurmat-ehtiromni tarbiyalash, oliy o'quv yurtining ma'naviy, madaniy va ilmiy qadriyatlarini saqlash va boyitishga intilishni tarbiyalash;
- faol fuqarolik pozitsiyasi, yuksak ma'naviy ideallar va vatanparvarlikni shakllantirish;

- oliy o‘quv yurtlararo, idoralararo, shaharning madaniyat muassasalarini bilan o‘zaro harakatlarni tashkil qilish;
- o‘qishdan tashqari ishlar tashkilotchilarining ma’naviy-estetik tarbiya masalalari bo‘yicha axborot-uslubiy ta’minoti tizimini rivojlantirish;
- oliy o‘quv yurtining madaniyat obyektlari, moddiy-texnika bazasini saqlash, rivojlantirish va undan samarali foydalanish.

Ma’naviy-estetik tarbiyada ibratning ahamiyati

Pedagogik ta’sir ko‘rsatish uslubi sifatidagi ibrat tarbiyalanuvchilarning taqlid qilishga bo‘lgan intilishiga asoslanadi, lekin buning psixologik-pedagogik samarasi ularning moslashuvchanlik faoliyatini rag‘batlantirish bilan cheklanmaydi. Murabbiylik soatlarida ayrim mavzularni ko‘tarish, yuksak ma’naviyatlilik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, mahorat, burchga sadoqat bo‘yicha namunalarni kuzatish va tahlil etish bilan talabalar ijtimoiy-ma’naviy munosabatlarning mohiyati va mazmuni ustida yanada teranroq va ko‘rgazmaliroq fikr yuritishga o‘rganadilar.

So‘z ko‘plab ustunliklar va imkoniyatlarga ega bo‘lishiga qaramasdan, baribir muayyan insonlarning aniq jonli namunalari kabi ta’sir ko‘rsata olmaydi. Ota-onalar, qarindosh-urug‘lar, o‘qishdagi o‘rtoqlar, fan va madaniyat arboblari taqlid qilish uchun munosib ibrat bo‘lishi mumkin.

Ma’naviy-estetik tarbiya tizimi har doim bundan oldingi avlodlarning an’analari va tajribasiga tayanadi. Ma’naviy tamoyillarning shakllantirilishi tarbiyaviy ishning yetakchi roli hisoblanadi. Bu yuksak ma’naviy-etik maqsadlar talab qiladigan pedagogik amallarning turlituman elementlari, tashkiliy shakllar tizimini o‘z ichiga oladigan kompleks jarayondir.

Murabbiyning idrok etilgan va fikr qilingan, yaxshi va puxta o‘ylab chiqilgan ishi talabalarni ijodiy izlanishga, ma’naviy-madaniy, axloqiy va estetik ravnaq topishga yo‘naltiradigan tadbirlar, oliy o‘quv yurtidagi o‘qishdan tashqari ishlarga nisbatan kompleks yondashuvning amalga oshirilishini nazarda tutadi. Estetik tarbiya, avvalo, madaniy dam olish joylari – muzeylar, ko‘rgazmalar, konservatoriya, konsert zallariga tashrif buyurishni ko‘zda tutadi.

TARBIYA MAZMUNI

Tarbiya
mazmuni

Tarbiyada tarkibiy elementlar, xususiyatlar, ichki aloqalar, ziddiyatlar va tendensiyalarning birligi

Aqliy tarbiya

1. O'quv-bilish faoliyatiga (O'BF) motivatsiya
2. O'BFda qobiliyat va ko'nikmalarni shakllantirish
3. Eruditsiyani va o'zining ta'limg olishiga ehtiyojlarni rivojlantirish

Ma'naviy tarbiya

1. Ma'naviy ideallar, normalar, baholashlarni shakllantirish
2. Ma'naviy e'tiqodlar, histuyg'ular va xususiyatlarni rivojlantirish
3. Ma'naviy fe'l-atvor tajribasini hosil qilish

Fuqarolik-vatanparvarlik tarbiyasi

1. Jamiyat siyosiy hayotining asoslarini bilish
2. Fuqarolik hissini, o'zining fuqarolik vazifalarini bajarishga shaylikni shakllantirish

Huquqiy tarbiya

1. Jamiatning huquqiy normalarini bilish va ularga amal qilish
2. Huquqiy madaniyatni, qonunlarga hurmatni shakllantirish

Tarbiyalanganlik mezonlari

- Tashqi qiyofa, imo-ishoralar va plastik obraz
- Nutq va fe'l-atvor
- Ijtimoiy hodisalarga munosabat
- Tevarak-atrofdagilar bilan o'zaro munosabatlar tizimi
- Qadriyatlar tizimi va axloqiy normalar
- Xulq motivlari va e'tiqodi

4.7. “Murabbiy-talaba”, “talaba-talaba” o‘zaro munosabatlarini inobatga olish

Pedagogik muloqotning kasbiy jihatdan muhim xususiyatlari:

- ❖ Kishilarga va ular bilan ishlashga qiziqish, muloqot qilishga ehtiyojlar va qobiliyatning mavjudligi, xushmuomalalik, kommunikativ xususiyatlar;
- ❖ Emotsional empatiya va kishilarni tushunish qobiliyati;
- ❖ Qayishqoqlik, muloqot paytida o‘zgaradigan holatlarda tez va to‘g‘ri yo‘nalish olishni, muloqotdagi vaziyatga, talabalarning individual xususiyatlariga qarab nutqiy ta’sir ko‘rsatishni jadal o‘zgartirishni ta’minlaydigan tezkorlik-ijodiy fikrlash;
- ❖ Muloqotda teskari aloqani sezish va qo‘llab turish;
- ❖ O‘zini o‘zi boshqarish, o‘zining psixik holati, gavdasi, histuyg‘ularini boshqarish, muskullardagi keskinlarni yo‘qota bilish qobiliyati;
- ❖ Spontan (tayyorlanmasdan) kommunikatsiyada bo‘lish qobiliyati;
- ❖ Ehtimol bo‘lgan pedagogik vaziyatlarni, o‘zining ta’sir ko‘rsatishining oqibatlarini prognoz qilish qobiliyati;
- ❖ Yaxshi verbal qobiliyatlar: madaniyat, nutqning rivojlanganligi, boy leksik zaxira, til vositalarining to‘g‘ri tanlanishi;
- ❖ Pedagogning hayotiy, tabiiy kechinmalari va talabalarga talab etiladigan yo‘nalishda ta’sir qiladigan pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq kechinmalar majmuidan iborat pedagogik kechinmalar san’atini egallash;
- ❖ Pedagogik improvizatsiya qilish qobiliyati, ta’sir ko‘rsatishning barcha turli xil vositalarini (ishontirish, pand-nasihat qilish, yuqtirish), “moslashuvlar” va “yaqinlashuv”larni qo‘llay bilish qobiliyati.

Oliy o‘quv yurtidagi pedagogik muloqot tizimida ikkita omil qo‘sib olib boriladi:

yetaklanuvchi - yetakchining o‘zaro munosabatlari;
ta’lim oluvchi bilan ta’lim beruvchining hamkorligidagi o‘zaro munosabatlar.

Ayni shu ijtimoiy-psixologik omil oliy o‘quv yurtidagi o‘zaro munosabatlarga alohida emotsiyonal mahsuldarlik baxsh etadi. Talabalar faoliyatidagi sheriklikni idrok etmasdan turib ularni mustaqil ishga jalb etish, ularga kasbga nisbatan qiziqishni singdirish, ma’naviy negizlar,

vatanparvarlik hissini, umuman shaxsning kasbiy yo‘nalishini tarbiyalash oson bo‘lmaydi. Oliy o‘quv yurtidagi tarbiya va ta’limning eng unumli jarayoni aynan shu oliy o‘quv yurti miqyosida ishonchli qurilgan o‘zaro munosabatlar tizimi orqali ta’milanadi.

Murabbiy bilan talabalar o‘rtasidagi, talabalarning o‘zlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlariga asosiy talablar

“Murabbiy-talaba”, “talaba-murabbiy” munosabatlariga nisbatan asosiy talablarni quyidagi tarzda ifodalash mumkin:

- tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda hamkorlik va yetakchilik omillarining o‘zaro ta’siri;
- pedagoglar bilan korporativlik, kollegiallik, kasbiy umumiylilik ruhini shakllantirish;
- pedagogik muloqot tizimining katta yoshdagi o‘zini o‘zi anglash darajasini yuqori shaxsga yo‘naltirilishi va bu bilan avtoritar tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishga barham berish;
- tarbiya va ta’limni boshqarish omili va pedagogik va tarbiyaviy ishning negizi sifatida talabalarning kasbiy qiziqishlaridan foydalanish.

Muloqot va o‘zaro ta’sirning ijobiy natijasiga erishish bir-biri to‘g‘risidagi axborotlarni to‘plash va to‘g‘ri umumlashtirish, pedagogning kommunikativ qobiliyatlarining rivojlanishi darajasi, uning empatiya va kuzatuvchanlikka refleksiya ko‘nikmalari, “sensorlik o‘tkirligi”, hamsuhbatining reprezentativ tizimini hisobga olish qobiliyati, talabani tinglay bilish, tushunish, unga ishonish, muayyan fikrni singdirish, emotsional yuqtirish, muloqot uslublari va pozitsiyalarini o‘zgartirish, manipulyatsiya va konfliktlarni bartaraf etish mahorati yo‘li bilan ta’sir ko‘rsatishiga bog‘liq bo‘ladi. O‘qituvchining muloqotga doir psixologik xususiyatlari va qonuniyatlari o‘zaro ta’sir sohasida psixologik-pedagogik ahamiyatliliginini bilish muhim rol o‘ynaydi.

Muloqot yuritish uslubi murabbiyning shaxsi, salohiyati, imkoniyatlari, o‘zini o‘zi baholashini ko‘rsatib turadi.

Uslubda quyidagilar o‘z ifodasini topadi:

- a) pedagogning kommunikativ imkoniyatlarining o‘ziga xos xususiyatlari;

- b) o‘zaro munosabatlarning erishilgan darajasi;
- d pedagogning ijodiy individualligi;
- e) talabalar jamoasining o‘ziga xos xususiyatlari.

Muloqot yuritish uslubi jamiyat, oliv o‘quv yurtining ijtimoiy-etik ko‘rsatmalarini o‘zida mujassam etadi, u pedagogning shaxsiy va pedagogik darajasi, uning emotsional-psixologik o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

Talabalar bilan muloqot qilish uslubi

Muloqot yuritishning optimal uslubi – bu o‘qituvchi bilan talabalarning birgalikdagi ijodiy faoliyat bilan mashg‘ulligiga asoslanadigan muloqot bo‘lib, u oliv o‘quv yurtida mutaxassis shaxsini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi va pedagogning ijtimoiy-etik ko‘rsatmalari bilan kasbiy-pedagogik muloqot malakalarining o‘zaro ta’sirini o‘zida mujassam etadi.

Murabbiylit soatlaridagi samarali pedagogik muloqot

Quyidagi kommunikativ usullardan foydalanish murabbiylit soatlarida va boshqa mashg‘ulotlarda optimal pedagogik muloqotni o‘rnatishga yordam beradi.

Muloqot davomida kommunikativ tormozlanib qolishlik, noqulaylik, tanglik, ishonchsizlikning oldini olish va ularni istisno etish usullari:

- mashg‘ulotlarda talabalarning o‘qituvchilar bilan muloqot qilishida himoya qilinganlik muhitining yaratilishi;
- javob berishga harakat qilishning o‘ziga, muloqotda ishtirok faktining o‘ziga qadriyat tusini berish orqali ma’qullah, qo‘llab-quvvatlash;
- talabalarning yordam so‘rab o‘qituvchiga yoki o‘rtoqlariga murojaat etishi amaliyotini ma’qullah;
- talabalar o‘z tashabbusi bilan beradigan og‘zaki javoblarni rag‘batlantirish;
- kommunikativ tormozlanishi yaqqol ifodalangan talabaning javob berishida unga zarur shart-sharoitlarni yaratish;

➤ ayrim talabalarning mashg‘ulotlarda o‘z o‘rtoqlarining ijodiy faolligiga xalaqit beradigan harakatlariga yo‘l qo‘ymaslik.

Muloqot jarayonida kommunikativ qo‘llab-quvvatlash usullari:

➤ adekvat nutqni tanlash, fikrlarini to‘g‘ri tuzishda o‘z vaqtida yordam berish;

➤ aniq bir muloqot vaziyatida kommunikativ me’yorlar ma’nosini tushuntirish;

➤ kommunikativ usullar, nutq so‘zlash va muloqot yuritish texnikasini o‘rgatish (bevosita yoki bilvosita);

➤ talabaning o‘qituvchi bilan muloqotida fe’l-atvorning ta’kidli pozitiv tanqidi (agar bu zarur bo‘lsa);

➤ talabalarga nisbatan manfaatli diqqat-e’tiborning verbal va noverbal vositalarini namoyish qilish, ularning o‘qituvchi bilan muloqotga kirishishga bo‘lgan intilishlarini qo‘llab-quvvatlash;

➤ talabalarga “ko‘tarilgan qo‘lning chidamsizligini oqlash” imkoniyatini tezkorlik bilan taqdim etish;

➤ talabalarga vaziyatni idrok qilib olish, “fikrlarini bir joyga qo‘yishi” uchun imkoniyat berish.

O‘qituvchi bilan ta’lim oluvchilar o‘rtasida ijobiy pedagogik muloqot o‘rnatishga to‘sinqinlik qiladigan eng ko‘p tarqalgan beshta sabab mavjud, bullar:

▪ pedagog talabaning individual o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborga olmaydi, uni tushunmaydi va intilmaydi ham;

▪ talaba o‘z o‘qituvchisini tushunmaydi va shu sababli uni murabbiy sifatida qabul qilmaydi;

▪ o‘qituvchining harakatlari talabaning fe’l-atvori sabablari va motivlariga yoki qaror topgan vaziyatga muvofiq kelmaydi;

▪ o‘qituvchi kekkaygan, talabaning izzatiga tegadi, uning qadr-qimmatini haqoratlaydi;

▪ talaba o‘qituvchining yoki, yanayam og‘irrog‘i, jamoaning talablarini ongli ravishda qabul qilmaydi.

4.8. Murabbiy va talabalar hamkorlik faoliyatining shakl va usullari

Birgalikdagi faoliyat uslublari va shakllaridan foydalanish

Talabalarning ma’naviy-shaxsiy ehtiyojlari va qiziqishlariga tayangan holda ularning kasbiy ongini shakllantirish uslublari:

- ishlab chiqarishdagi mashg‘ulotlar;
- sayohatlar;
- kasbiy yo‘nalishdagi umumiy o‘qishdan tashqari tadbirlar;
- davra suhbatlari;
- korxonalardan amaliyotchi xodimlarni taklif qilish va hokazolar.
- talabalarni ma’naviy, fuqarolik, dunyoqarashli tusdagi bilimlar bilan oshno qilish uslublari:

- sayohatlar;
- bayramlar va qiziqarli kishilar bilan uchrashuvlar va boshqalar.

Talabalarni tarbiyalanuvchilarning mustaqilligini va tashabbus-korligini shakllantirishga yordam beradigan jamoa shaklidagi ijodiy faoliyatning har xil turlariga jalb qilish uslublari:

- tanlovlari;
- bayramlar;
- festivallar;
- bo‘sh o‘rinlar ko‘rgazmalari va boshqalar.

Shaxsning ijodiy ravnaqi, emotsional qoniqish, shaxsining mohiyatini anglash omillariga tayangan holda talabalarning tarbiyaviy faoliyatdagi ishtirokini ijobjiy jihatdan rag‘batlantirishdan iborat ustuvor yo‘nalishni amalga oshirishga imkon beradigan uslublar va shakllar:

- o‘qishdan tashqari qiziqishlar bo‘yicha ishlarning turlicha shakllari;
- o‘tkaziladigan barcha darajalardagi mashg‘ulotlarning emotsional mazmuni va shu kabilar.

O‘qituvchilar va talabalarning tarbiyaviy ishlarda birgalikda faoliyat yuritish uslublari:

- o‘quv mashg‘ulotlari;
- predmetli va ijodiy to‘garaklar;
- olimpiadalar;
- ko‘rgazmalar va ijodiy ishlar taqdimotlarining tashkil etilishi va hokazolar.

O‘qituvchilar, talabalar va ota-onalarning tarbiyaviy jarayondagi birgalikdagi faoliyatini amalga oshirish uslublari:

- ota-onalar bilan uchrashuvlar;
- individual maslahatlar;
- ochiq eshiklar kunlari va hokazolar.

4.9. Murabbiy va iqtidorli talabalar

Iqtidorli talabalarni aniqlashda murabbiyning roli va bunday talabalar bilan ishlash

Bugungi kunda jamiyatimizga o‘z shaxsini va faoliyatini doimiy tarzda takomillashtirib boradigan tashabbuskor va mustaqil fikrlaydigan mutaxassislar g‘oyatda zarur. Ayni shunday kishilar o‘z vazifalarini adekvat ravishda bajarib, yuksak idrokliligi, ijtimoiy-kasbiy mobilliligi, o‘z bilimlarini tezlik bilan yangilash, faoliyatning yangi sohalarini o‘zlashtirishga qodir bo‘ladi va murabbiyning bu vazifani hal etishdagi roli juda muhim va mas’uliyatlidir.

Murabbiy qanday talabalarni iqtidorli deb bilish xususidagi eng oddiy bilimlarga ega bo‘lishi va bu bilan o‘zining davlat ahamiyatiga molik vazifalar yechimiga qo‘shilishini tushunishi kerak, chunki iqtidorli va iste’dodli yoshlari O‘zbekiston Respublikasida “Kadrlarni tayyorlash milliy Dasturi”da ifodalangan uzlusiz ta’lim tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Dasturda qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun davlatning va jamoatchilikka oid turli xil tuzilmalar mavjud va muvaffaqiyatli faoliyat olib borishmoqda, ular ushbu masalaning o‘rtacha muhimligini anglagan holda intellektual salohiyat muammolari bilan shug‘ullanishadi.

Hozir ko‘pchilik psixologlarning e’tirof etishicha, iqtidorni rivojlantirish darajasi va tusi – bu har doim nasliylik bilan ijtimoiymadaniy muhitning murakkab o‘zaro ta’siri natijasidir. Mutaxassis-larning qayd qilishicha, katta yoshdagi iqtidorli kishilar soni iqtidorli yoshlari soniga nisbatan juda kam. O‘z vaqtida aniqlanmagan va zarur darajada rivojlantirilmagan iqtidor, pirovard oqibatda, jamiyat uchun to‘ldirib bo‘lmaydigan moddiy yo‘qotishlarga aylanadi. Aynan shuning uchun iqtidorli talabalarga milliy mulk sifatida qaralishi va ular uchun alohida ijtimoiy huquqlar berilishi lozim.

Olimlar va amaliyotchilarning ko‘pchiligi iqtidorli bolalar va talabalar o‘zining iqtidorini namoyon etadigan va o‘zi ustun deb hisoblaydigan faoliyat bilan berilib shug‘ullanishi orqali tavsiflanadi, degan fikrga moyillik bildirishadi. Ya’ni, agar talaba faqat past baho olgani uchun koyimasliklari, stipendiya olish yoki o‘zining a’lochi degan nufuzini yo‘qotmaslik uchungina shug‘ullanadigan bo‘lsa, unda

bunday faoliyat nari borsa vijdonan bajariladi, bunday talaba haqida u shunchaki bir qobiliyatli talaba deyish mumkin. Mabodo talaba o‘zi shug‘ullanadigan sohasidan qoniqish his qilib, tashqaridan nima deb baholashlari haqida qayg‘urmasdan, rohatlanadigan bo‘lsa, unda bu xildagi talaba uchun bilishning o‘zi maqsad va bu holda gap iqtidor to‘g‘risida borishi turgan gap.


Murabbiy avvalo shuni bilishi kerakki, iqtidorli talabalarning ko‘pchiligiga ularni aksariyat kursdoshlaridan ajratib turadigan alohida xususiyatlar xos bo‘ladi. Odatda ular qiziquvchanligi va faol tadqiqot-chiligi bilan ajraladi. Bunday talabalar o‘zlarining g‘alatiroq savollari yoki harakatlari bilan ba’zan o‘qituvchilarni noqulay ahvolga solib qo‘yishlari ham mumkin. Darvoqe, ular bilan birga ishlaydigan murabbiylar va pedagoglar talabalarning ulardan aqlliyoq bo‘lishi ham mumkinligiga shay bo‘lishlari kerak. Iqtidorli talabalarni, shuningdek, sabab-oqibatli aloqalarni qidirish va tegishli xulosalar chiqarish qobiliyati ham ajratib turadi. Odatda ularning xotirasi a’lo bo‘ladi va mavhum fikrlay oladi. Ular axborot va tajribani tasniflash, to‘plangan bilimlaridan keng foydalanish malakasiga ega bo‘lishadi. Ko‘pincha iqtidorli talabalar so‘z va lug‘at boyligining kengligi, murakkab gaplar, fikrlar tuza bilishi, shuningdek, mantiqiy savollarni qo‘yishi bilan ham ajralib turadi.


Shuningdek, iqtidorli talabalar qaysidir bir narsaga alohida diqqat-e’tibor berishi, o‘ziga qiziqarli sohada natijaga erishish uchun faol harakat qilishi bilan ham ajralib turadi. Biroq ularning ko‘pchiligiga xos bo‘lgan qiziqishlarning turli-tumanligi shunga olib keladiki, ular ayni bir vaqtning ichida bir necha ishlarga qo‘l urishadi va juda murakkab vazifalar yechimini izlab urinishadi. Ularda, shuningdek, aniq chizmalar va tasniflarga qiziqish katta bo‘ladi. Ular amaliy seminar mashg‘ulotlarida javob berishda o‘z nuqtayi nazarini aynan shu tarzda izohlashga harakat qilishadi. Masalan, ular har xil jadvallar tuzishni, tarixiy faktlar, sanalarni bir tizimga keltirishni yoqtirishadi.

Umuman olganda, iqtidorli talabalarni mabodo ular o‘z fikrlarining mustaqilligi bilan ajralib tursa, hazil-mutoyibani yoqtirsa, tartibga va ishning tashkil etilishiga beparvoroq bo‘lishsa, ularni tashxis qilish mumkin. Ularning umumiy qabul qilingan tasavvurlarga shubha ostida qarashi, umumiy qabul qilingan nuqtayi nazarlarni qabul qilavermasligi – bunday talabalarning eng asosiy belgilaridir.

Shuning uchun ular bolaligida maktab, litsey va kollej o‘qituvchilariiga, talabaligida universitet pedagoglariga, yana ham kattaroq yoshida o‘z rahbarlariga anchagina tashvish orttirishadi. Aynan shunday kishilar haqida taniqli pedagog va psixolog Sh.Amonashvili lo‘nda qilib shunday degan edi: “Sho‘xchan bolalar – taraqqiyotni ilgari suruvchilar”. Murabbiy iqtidorli talabalar bilan o‘zaro munosabatlarini alohida tarzda qurishi lozim. Ularning tadqiqot yuritish yoki biron bir fanni mustaqil o‘zlashtirishga intilish kabi tashabbuslarini o‘z vaqtida qo‘llab-quvvatlash kerak.

Murabbiylarning tarbiyaviy ishini tashkil etishga asosiy yondashuvlar





Dunyoqarashning shakllanishi

Umuminsoniy qadriyatlar

Bag‘rikenglik

Milliy g‘oya

Ijodiy qobiliyatlarni ro‘yobga chiqarish

Ijodiy salohiyatni amalga oshirish

Talaba shaxsi

Shaxsning shakllanishini belgilovchi omillar

Ijtimoiylashuv

Ijtimoiy nazorat

Ijtimoiy normalar

Ijtimoiy sanksiyalar

O‘zini-o‘zi nazorat qilish

V-BO'LIM

5.1. Bo'sh vaqtni o'tkazish va dam olish

Oltindan qadrli, javohirdan qimmatli narsa – vaqtdir. Oqib ketgan suvni qaytarib bo'lmanidek, o'tib ketgan vaqtni ham qaytarib bo'lmaydi. Shuning uchun biror soniya vaqtni bekor o'tkazmasdan foydali ish qilib qolish kerak. Vaqtning qadriga yetish va uning har bir daqiqasidan unumli va oqilona foydalanish darkor.

Dono xalqimizning: "Vaqting qadriga yet", "Vaqting ketdi – naqding ketdi" kabi hikmatli so'zlari ham xuddi ana shu bo'sh vaqtni qadrlay olish, undan unumli foydalanishni ko'zda tutib aytilgan hikmatlardan bo'lsa, ajab emas. Oliy ta'lim muassasasida talabalar darsdan bo'sh vaqtida turli ishlarga jalb qilinadilar. Bu ishlar o'z maqsadi bo'yicha turli shaklda bo'ladi:

1. Darsdan tashqari ishlar:

- a) kutubxonada shug'ullanish;
- b) uyda mustaqil tayyorlanish;
- d) o'qituvchilar bilan suhbat;
- e) do'stlar bilan dars tayyorlash;
- f) to'garaklarga qatnashish.

2. Madaniy ishlar:

- a) sport bilan shug'ullanish;
- b) kino, teatrlarga borish;
- d) badiiy adabiyotlar o'qish;
- e) badiiy to'garaklarga qatnashish;
- f) jamoat ishlarida qatnashish.

3. Xo'jalik ishlari:

- a) xonani tartibga keltirish;
- b) kiyimlarni tartibga keltirish;
- d) do'stlari bilan uchrashish;
- e) shanbalik, navbatchilik ishlari.

Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni o'z yurtining fidoyisi, milliy istiqlol g'oyasining ongli tarafdori, tanlagan sohasining yuqori malakali ustasi bo'lib yetishishiha tarbiya sohasida tarkib topgan samarali shakl va usullardan keng foydalanish, ularni rivojlantirish, yangi tarbiyaviy texnologiyalarni joriy etish zamon talabidir. Talabalarni yetuk va

barkamol insonlar qilib tarbiyalash, ona Vatanga muhabbat, tarixiy va milliy urf-odatlarimizga, an'analarimizga va umuminsoniy qadriyatlarga yuksak hurmat ruhida tarbiyalash, ularni ma'naviy-ma'rifiy jihatdan yuksaltirish, insonlarga bo'lgan mehr-muruvvatni yanada mustah-kamlash, yoshlarning jamoat ishlaridagi faolliklarini oshirish va ularning bo'sh vaqtlarini unumli va sermazmun o'tkazishni tashkil etish, milliy-ma'naviy qadriyatlarni talabalar ongiga singdirish har bir tarbiyachining Vatan ravnaqi yo'lidagi muqaddas burchidir-ki, zero ma'naviy qadriyatlar ustuvor ahamiyat kasb etgan jamiyat taraqqiyotning ravon yo'liga tushgan hisoblanadi.

Yangilanayotgan fikr, o'zgarayotgan zamon, poklanayotgan jamiyat ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning yetakchi bo'lishini istaydi. Ta'lim-tarbiyaning qamrovini kengaytirish bilan emas, balki chuqurlashtirish yo'li bilan kutilgan natijalarga erishish mumkin. Ta'lim-tarbiya jarayoni talabalar uchun hayotga tayyorgarlik bosqichi emas, balki hayotning o'zi bo'lishi kerak.

Murabbiylar tomonidan yangicha yondashuv asosida talabalarning ma'naviy madaniyatini shakllantirishda asosiy yo'nalish beruvchi metodologiya asosida ish olib borilsa, berilayotgan ta'lim-tarbiya o'z samarasini beradi.

Bunda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

❖ har bir talaba-o'quvchi xatti-harakati, xulq-atvorida umum-insoniy, milliy-ma'naviy qadriyatlarni tarkib toptirish, talaba-o'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatgan holda ularga milliy, umumbashar yo'llanma berish, talaba-o'quvchini madaniy qadriyatlar orqali jahon miqyosidagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jarayonlarga intilishini ta'minlashda to'g'ri yo'llanma berish;

❖ yoshlarning o'zliklarini chuqur anglashini, mustaqillikning qadrini tobora teran tushunishini, milliy tafakkurning kengayishi va takomilini, tarixiy hurlik, mustaqillik ruhining uyg'onishini ta'minlash ma'naviyat sohasidagi siyosatimizning asosiy maqsadiga aylanishiga erishish;

❖ mamlakat aholisini istiqlol g'oyalariga cheksiz sadoqat, ona diyorga mehr-muhabbat, ozod va obod Vatan barpo etishdek ulug' va oljanob maqsadga e'tiqod, jasurlik va fidoyilik ruhida tarbiyalashga mo'ljallangan targ'ibot-tashviqot ishlarining strategiyasini belgilash, harakat uslublari ustida ishlash va amalga oshirish;

- ❖ barcha ta’lim-tarbiya muassasalari, aholi turar joylari va ishlab chiqarish sohalarida ma’naviy-ruhiy muhitning ahvolini, ommaning kayfiyatini, intilish va muddaolarini hisobga olgan holda ijobiy an’ana va tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash, mavjud muammolarni, ularning ijtimoiy-siyosiy muhitga ta’sirini tahlil qilish, bartaraf etish choralarini hayotga tatbiq etish;
- ❖ ma’rifiy targ‘ibot ishlarining shaklan va mazmunan uyg‘unligini, muntazamliligini, haqqoniylikka asoslanishini ta’minalash, ya’ni ma’ruza, suhbat, babs-munozaralar, seminarlar va konferensiylar o’tkazish, ommaviy axborot vositalarida faol ishtirok etish yo‘li bilan mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy islohotlarning, qabul qilinayotgan farmonlar, qarorlar va qonunlarning mohiyatini keng jamoatchilikka tezkorlik bilan yetkazish va kundalik faoliyat dasturiga aylantirishga rahbarlik qilish;
- ❖ o‘zbek xalqining ulug‘ mutafakkirlari qutlug‘ merosidan butun xalqimiz, jumladan, yoshlarimizning ham muntazam va to‘laqonli bahramand bo‘lishiga, ularning mana shunday ma’naviyat muhitida kamol topishiga sharoit yaratish;
- ❖ milliy mafkuraning asosiy maqsadlarini xalqqa, yoshlarga sodda, haqqoniy va tushunarli tarzda yetkazish uchun el-yurt orasida obro‘-e’tibor qozongan, yuksak saviyali, ko‘pni ko‘rgan, jonkuyar, otashin, eng muhimi haqqoniy so‘zi, yorqin fikri bilan yoshlar qalbi va ongiga yo‘l topa oladigan fidoyi insonlarni safarbar etish;
- ❖ o‘zbek xalqining boy tarixi, ilmiy-falsafiy, madaniy va axloqiy merosiga milliy o‘zligini tanish orqali yuksaltirish yo‘lini bosib o‘tgan peshqadam davlatlarning tajribasiga tayangan holda milliy istiqlol g‘oyalarini ommaning ongi va qalbiga teran singdirish. Mustaqillik mafkurasini umummillat mafkurasiga, g‘oyaviy, ruhiy va ma’naviy kuch-qudrat manbaiga aylantirish;
- ❖ yosh avlodning dunyo va mamlakat miqyosidagi siyosiy jarayonlarga mustaqil va ongli muhabbatini shakllantirish, faol fuqarolik va fidoyi vatanparvarlik tuyg‘usini kamol toptirish;
- ❖ mamlakat ozodligini himoya etish, bosqinchilarga qarshi kurashdagi buyuk ajdodlarning ibrati, o‘tmish saboqlari, mustaqillik davrida erishilgan zafarlar tahlili asosida jamiyatning har bir a’zosi qalbida milliy g‘urur tuyg‘usini uyg‘otish va tarbiyalash;

- ❖ har bir xonadonda kattalarga hurmat-ehtirom, kichiklarga izzat-e'tibor ustuvor bo'lgan sog'lom ma'naviy muhit yaratilishiga, o'zaro mehr-oqibat jamiyatning ommaviy va ezgu fazilatiga aylanishiga ko'maklashish;
- ❖ «Sog'lom ona – sog'lom bola», «Sog'lom bola – sog'lom kelajak» tushunchasini har bir oila, ota-onaning, yigit va qizlarning qalbiga singdirish orqali yaxshi oilaviy farovonlikka erishish;
- ❖ Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko'zda tutilgan asosiy maqsadlarni, milliy dasturning har bir fuqaro, oila taqdiri, kelajagi bilan chambarchas bog'liqligini ta'minlash, erishilgan yutuqlarni ommaga yetkazish;
- ❖ jahon fani, madaniyati, jamiyatda ilg'or andazalarga intilishlarini rag'batlantirish orqali milliy fan va madaniyatning zamonaviy taraqqiyot cho'qqisiga ko'tarilishiga yordam berish;
- ❖ xorijiy mamlakatlarning hayotida ro'y berayotgan hodisalarning mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish, fuqarolarning loqayd tomoshabindan faol mushohada va teran idrok etuvchi zamon va makon farzandiga aylantirishga imkon yaratish;
- ❖ O'zbekistonning tashqi va ichki siyosatida erishilayotgan yutuqlarni, bu yutuqlarning bugun va kelajak uchun ahamiyatini anglatish orqali milliy iftixor tuyg'usini tarbiyalash, faol fuqarolik munosabatini rivojlantirish;
- ❖ talaba-yoshlarning huquqiy ongini yuksaltirish yo'li bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunlariga hurmat hissini tarbiyalash, ayni paytda o'zining fuqarolik huquqi va burchini chuqur anglagan holda yashashi, jamiyat hayotida faol ishtirok etishi va ishlashiga ko'maklashish;
- ❖ jamiyatda diniy mutaassiblik va aqidaparastlikning barcha ko'rinishlariga, yurtning tinchligi, osoyishtaligiga raxna soladigan, vatandoshlarimizning imon-e'tiqodi va ishonchiga putur yetkazadigan har qanday g'oyalar, nazariyalar va tushunchalarga nisbatan ayovsiz kurashuvchanlik ruhi va vaziyatini yaratish;
- ❖ jamiyatda yashayotgan barcha millatlarning o'ziga xos jihatlari va mushtarak maqsadlarini hisobga olgan holda millatlararo o'zaro hurmat, totuvlik va hamjihatlikni mustahkamlash;
- ❖ fikrlar xilma-xilligi zaminida paydo bo'lgan ilg'or ijtimoiy fikrlar, tashabbuslarni ommalashtirish;

❖ xalqning tarixiy an'analari, xususiyatlari, milliy ong va turmush tarzining hayotiy tamoyillariga asoslangan holda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish, jamoatchilikning ta'sir kuchini jamiyat axloqiy-ma'naviy hayotining mezoniga aylantirish;

- ma'naviy meros va diniy qadriyatlarni chuqur o'zlashtirish, millatimizning o'z-o'zini anglashiga erishish, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini izchillik bilan mustahkamlash;

- mustaqillik sharoitida milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirish hamda ularni xalqimiz dunyoqarashiga aylanishiga erishish;

- ta'lim tizimini isloh qilish, kadrlar tayyorlashning milliy dasturini amalga oshirish asosida barkamol avlodni shakllantirish, sog'lom avlod dasturini amalga oshirish asosida jismonan baquvvat, ruhi, fikri sog'lom, iymon-e'tiqodi butun, bilimli, ma'naviyati yuksak, mard va jasur vatanparvar avlodimizni shakllantirish;

- milliy-ma'naviy salohiyatimizning jahon sivilizatsiyasidagi o'rnini tiklash va bugungi kunda ma'naviyat, ma'rifat, fan, texnika, texnologiya yutuqlarini chuqur o'zlashtirish asosida hozirgi zamon umumjahon ma'naviyati tizimi rivojiga hissa qo'shish;

- ekologik tarbiyani ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy tarbiyaning uzviy va uyg'un qismi darajasiga ko'tarish.

Milliy g'oyamiz bizning iymonimiz mezoniga aylanib, qaramlik, boqimandalik kayfiyatidan ozod bo'la boshladik. Kelajak taqdirimiz o'z faoliyatimizga bog'liq ekanligiga ishonch hosil qilmoqdamiz.

5.2. Murabbiylar faoliyatining obyektiv ko'rsatkichlari:

- guruhdagi sog'lom muhit;
- guruhdagi o'quv intizomi, talabalar tomonidan universitet ichki tartib-qoidalariga rioya qilinishi;
- guruh talabalari tomonidan o'quv jarayonining bajarilishi va fanlarni o'zlashtirish darjasи;
- guruh talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlarida, tadbirlarda, sport musobaqalarida va ko'rik tanlovlarda qatnashishdagi faolligi.

Murabbiylar tomonidan yuritiladigan hujjatlar ro‘yxati:

- murabbiy jurnali (barcha talabalar haqida to‘liq ma’lumot bo‘lishi shart);
- Oliy ta’lim muassasasi odob-axloq qoidalari (talabalarga tushuntirilganlik haqida bayonnomalar);
- murabbiyning o‘quv yili uchun talaba bilan o‘quv ma’rifiy va ma’naviy ishlar bo‘yicha yillik ish rejasi;
- har bir murabbiy soatiga o‘tkazilgan tadbir bayonnomasi;
- barcha bayramlar, huquq savodxonligi bo‘yicha o‘tkazilgan tadbirlar bayonnomalari;
- TTJda yashovchi talabalar bilan muntazam olib borilgan ishlar bo‘yicha bayonnomalar;
- ijarada yashovchi talabalar bilan olib borilgan ishlar bo‘yicha bayonnomalar;
- talabalarni tarixiy obidalar bilan tanishtirish bo‘yicha bayonnomalar (tegishli hujjatlar bo‘lishi shart);
- “Axborot soati” mavzulariga tegishli barcha materiallari mavjudligi;
- Ijarada yashovchi talabalar bilan olib borilgan ishlar bo‘yicha bayonnomalar;
- Ota-onalar bilan olib borilgan ishlar bo‘yicha bayonnomalar;
- Tarbiyasi og‘ir, davomati past bo‘lgan talabalar bilan olib borilgan ishlar bo‘yicha bayonnomalar.

Murabbiylarga ish hajmidan kelib chiqqan holda shaxsiy ish rejasi asosida vaqt me’yorlari bo‘yicha 100 soat ajratiladi. Har o‘quv yilining yakunida universitet “Murabbiylar Kengashi” tomonidan kafedra ustoz-murabbiylari mas’ul xodimi va guruh ustoz-murabbiylarining ish faoliyati bo‘yicha hisobotlarni qabul qiladi, tahlil qiladi, baholaydi, rag‘batlantiradi.

O‘z vazifasini vijdonan, mas’uliyat bilan bajargan murabbiylar universitet Murabbiylar Kengashi tavsiyasi bilan rahbariyat tomonidan rag‘batlantiriladi.

Orzuimiz – barkamol avlod

Barkamol avlodni tarbiyalash insoniyatning eng yorqin orzusi bo‘lgan. Bunday orzudagi insonlar azaliy ma’rifatga, madaniyatga mansub bo‘lgan yurtlarning donishmandlari, eng mo‘tabar ziyolilari hisoblanadilar. Ular orasida O‘zbekiston deb atalmish muazzam zaminimizda yashagan bobolarimizning o‘z o‘rni, hurmati bor. Bu jahon hamjamiyati tomonidan tan olingan haqiqatdir. Barkamol avlodni tarbiyalash orzusiga o‘z tariximizdan ko‘p dalillar keltirishimiz mumkin. Al-Forobiyning «Fozil kishilar shahri» asaridagi g‘oyani yodga oling. Unga ko‘ra jamiyatning har bir fuqarosi mansabi, tutgan o‘rni, ya’ni kim bo‘lishidan qat’i nazar fozil kishi bo‘lmog‘i lozim. Fozil inson o‘z davlatining barcha qonun-qoidalarini yaxshi biladi, unga amal qiladi, fikrlaydi, o‘z kasbining ustasi, lozim bo‘lganda Vatan uchun jon fido qiladi. Fozil shahar aholisi bir-biriga hurmatda bo‘ladi. Ota-ona va farzand, ustoz-u shogird o‘rtasida sharqona nazokat, mehr va ehtirom bo‘ladi. Bu narsa bobolarimizning ma’naviy darajasi naqadar yuksak bo‘lganligini ko‘rsatadi. Demak, bizning barkamol avlodni tarbiyalash haqidagi g‘oyamiz uchun ma’naviy asos bor.

Millatimiz urf-odatlari, ilm va bilimga intilish xislati bir necha ming yillar davomida shakllangan, sayqal topgan.

Bobolarning shu kabi o‘y-fikrlari, yoshlar tarbiyasiga e’tibori tildan tilga ko‘chgan, kitoblarda yozib qoldirilgan. Sohibqiron Amir Temur davlatida fan rivoji uchun sharoit yaratilgan, madaniyat rivojlangan, minora-yu masjidlar bunyod etilgan.

Demak, kelajak avlod haqida qayg‘urish, sog‘lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimiz bo‘lib, avloddan-avlodga o‘tib kelyapti.

«Mamlakatimizning istiqboli yo‘lidagi birinchi qadamlardanoq ma’naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash, zamon talablari bilan uyg‘unlashtirish asosida jahon andozalari va ko‘nikmalari darajasiga chiqarish maqsadiga katta ahamiyat berib kelinmoqda», – deb ta’kidlar edilar yurtboshimiz Islom Karimov.

O‘qituvchi va talaba munosabatidagi majburiy itoatkorlik o‘rnini ongli intizom egallashi kerak.

Sog‘lom avlod g‘oyasi

Jamiyat taraqqiyotida turfa toifa kishilarning mushtarak maqsad-muddaolari ifodasi bo‘lgan g‘oyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois milliy mafkura xalqning umumiy manfaatlari asosida shakllanadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sog‘lom avlod g‘oyasi xalqimizning asriy maqsad-muddaolarini aks ettiradi.

Bu g‘oya, avvalo, farzandlarimizning ham jismoniy, ham ma’naviy kamoliga xizmat qiladigan ta’lim-tarbiya tizimini shakllantirish borasida bizni ulkan ishlarni amalga oshirishga da’vat etmoqda. Sog‘lom avlod va bozor iqtisodiyoti yoshlarimizda tadbirkorlikni, ijodkorlikni va buniyodkorlik fazilatlarini kamol toptiradi. Bu g‘oya bizni vatanparvarlik tamoyillari asosida yashashga undab turadi. Shunda har bir fuqaroning ko‘z o‘ngida mudom yurt va millat sha’ni gavdalanib turadi, jamiyatda tenglik va poklik qaror topadi.

Sog‘lom avlod g‘oyasi kishilarni ogohlilikka undaydi. Bu esa yurtimiz sha’niga dog‘ tushiruvchi, millat manfaatlariga qarshi boruvchi, ularni ataylab oyoqosti qiluvchi kimsalarga murosasiz bo‘lishni taqozo etadi. Sog‘lom avlod g‘oyasi ijtimoiy adolat va huquqiy madaniyat tamoyillariga tayanadi. Ma’lumki, respublikamizda huquqiy demokratik jamiyat barpo etish, inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini tashkil etadi.

Obodonchilik - hammamizning ishimiz

Ta’lim muassasasi va uning tevarak-atrofini toza tutish, asrab-avaylash va obodonlashtirish talabalarning sharaflı burchidir.

Ta’lim muassasasi ichki tartib-qoidalarini mustahkamlash to‘g‘risida rektorning buyrug‘iga asosan ta’lim muassasasi, o‘quv laboratoriya binolari, talabalar turar joylari hududlari ichkilik ichilmaydigan va chekilmaydigan hududlar deb e’lon qilingan. Ushbu qoidaga rioya qilmagan talabalar safidan chetlashtirilishi, professor-o‘qituvchilarga, xodimlarga esa qonun asosida intizomiy choralar ko‘rilishi buyruqda o‘z ifodasini topgan.

5.3. TALABALARNING QADRIYATLAR YO‘NALGANLIGINI O‘RGANISH UCHUN SO‘ROVNOMA

1. *Familiyasi, ismi, otasining ismi, guruhi* _____

2. *Sizning hayotingizga qanday narsalar mazmun baxsh etadi?*

3. *Siz faxrlanadigan yutuqlar nimalardan iborat?*

4. *Siz universitetda o‘qish davrida shaxsiy hayotingizda qanday taraqqiyotga erishdingiz?*

5. *Siz talabalar turar joyida va uyda bo‘sh vaqtingizda nima bilan shug‘ullanishni yoqtirasiz?*

6. *Siz so‘nggi yillarda qanday kitoblarni o‘qib chiqdingiz?*

7. *Siz qanday adabiyotlarni o‘qishni ko‘proq xush ko‘rasiz: siyosiy, badiiy, tarixiy, ajoyib kishilar hayoti haqidagi, sarguzashtlar haqidagi va boshqalar (tagini chizing, qo‘srimcha yozib qo‘ying...)*

8. *Sizga eng ko‘p yoqadigan yozuvchi va uning asarlarini ko‘rsating va nima uchunligini izohlang*

9. *San’atning qaysi turi Sizga ko‘proq yoqadi: rang-tasvir, musiqa, raqs, teatr, kino, suratkashlik? (tagiga chizing, qo‘srimcha yozib qo‘ying)*

10. Nima uchun? _____

11. Rassom yoki haykaltaroshning qaysi asari Sizga yoqadi? Uning nomini yozib qo‘ying _____

12. Fikringizcha, kimni “Zamonamiz qahramoni” deyish mumkin?

13. O‘z hayotingizni zerikarli deb o‘ylaysizmi yoki qiziqarli debmi? Nima uchun? _____

14. Gazeta va jurnallardagi qaysi bo‘limlar materiallari Sizni ko‘proq qiziqtiradi (siyosat, iqtisodiyot, sport, madaniyat yangiliklari, hodisalar, kriminal axborotlar, shou-biznes yangiliklari) _____

15. Sizning oliy o‘quv yurtini tanlashingizga nima ta’sir ko‘rsatdi:

- a) ota-onas maslahatlari;
- b) do’stlar maslahatlari;
- d) maktabdagi, litseydagi va kollejdagi o‘qituvchilar maslahatlari;
- e) qaysi o‘quv yurtiga o‘qishga topshirishning farqi yo‘q edi;
- f) o‘zim anglagan holda tanladim.

16. Ta’lim jarayonidagi fanlardan qaysi biri Sizga ko‘proq yoqadi?

17. Ular Sizga nima uchun ko‘proq yoqadi:

- a) mazmuni juda qiziqarli;
- b) professor-o‘qituvchimiz juda ajoyib;
- d) kelgusidagi kasbimiz uchun zarur.

18. Sizning shu fanlar bo‘yicha yutuqlaringiz (qanday baholar olishingizni ko‘rsating) _____

19. Siz o‘zingiz tanlagan kasbdan boshqa yana qanday kasbda ishlab ko‘rishni xohlaysiz? _____

20. Fikringizcha, quyidagilardan qaysi birini eng yaxshi pedagog deyish mumkin:

- a) talabalarga nisbatan qiziqish bilan qaraydi va har bir kishiga individual tarzda yondashadi;
- b) o‘z fanini juda sevadi va shu sababli talabalar ham o‘z bilimlarini orttirishni yaxshi ko‘radi.

21. Fikringizcha, olingan bilimlarni kasbiy faoliyatda amalda qo‘llanish uchun ta’limning qanday tizimi ko‘proq yordam beradi:

- a) vaziyatlarni ko‘rib chiqish va ularni amalda ko‘rish, amaliyotchi xodimlarning taklif qilinishi;
- b) boshqachavariantlar. _____

22. Professor-o‘qituvchilarning iste’dodli talabalarni psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlashi masalasi yuzasidan Siz o‘z konsepsiyangizni taklif qila olasizmi?

5.4. Testdan o‘tkaziluvchining varaqasi

A ro‘yxati (talaba kayfiyati):

1.Qo‘pol muomaladan tutaqib ketasizmi?

A. Ha, indamay tura olmayman (2 ball)

B. O‘zimni nazorat qilishga harakat qilaman (1 ball)

D. Ba’zan shunday bo‘ladi (0 ball)

2.Kayfiyatningiz yo‘qligini xatti-harakatlaringizdan sezdirib qo‘yasizmi?

A. Ha (2 ball)

B. Gohida (1 ball)

D. Yo‘q (0 ball)

3.Biror nimadan jahlingiz chiqsa ovoz ohangida o‘zgarish bo‘ladimi?

M-n: o‘zingiz sezmagan holda baqirib yuborishingiz mumkinmi?

A. Ko‘pincha shunday bo‘ladi (2 ball)

B. Aksincha o‘zimni o‘zim arang eshitaman (1 ball)

D. Ba’zan, bo‘lib turadi (0 ball)

4.Siz xalqona qo‘sishlarni, urf-odatlarni yomon ko‘rasiz.

Yevropacha yashashni istaysizmi?

A. Doimo (2 ball)

B. Gohida (1 ball)

D. Hech qachon (0 ball)

5.Siz jamiyat qonunlarini buzgan holda o‘zingizga yoqqan narsa uchun faoliyat yuritishni ma’qul ko‘rasizmi?

A. Doimo (2 ball)

B. Gohida (1 ball)

D. Hech qachon (0 ball)

6.Atrofdagilarning fikrini inobatga olib o‘tirmay, hayolingizga kelgan gaplarni qo‘pollik bilan aytib tashlayverasizmi?

A. Doimo (2 ball)

B. Gohida (1 ball)

D. Hech qachon (0 ball)

7.Uydagilaringiz qarshi bo‘lishsa-da, g‘ayrioddiy hayot kechiruvchilar bilan birga bo‘lishni xush ko‘rasizmi?

A. Haqiqat (2 ball)

B. Bu gapda jon bor (1 ball)

D. Unday emas (0 ball)

8. Ichki olamingiz bo‘m-bo‘sh bo‘lsa-da, bilganingizdan qolmaysiz, o‘zingizni gapingizda turib olasiz, shundaymi?

A. Haqiqat (2 ball)

B. Bu gapda jon bor (1 ball)

D. Unday emas (0 ball)

9. Sizning barchadan sir tutadigan g‘ayrioddiy mashg‘ulotlaringiz bormi?

A. Ha (2 ball)

B. Gohida bo‘ladi (1 ball)

D. Yo‘q (0 ball)

10. Siz odamning g‘ashiga tegadigan kiyimlarni kiyib, o‘zingizni erkin tuta olasizmi?

A. Ha (2 ball)

B. Gohida bo‘ladi (1 ball)

D. Yo‘q (0 ball)

11. Do‘srlaringiz bilan restoran yoxud qahvaxonaga tez-tez borishni yoqtirasiz, shundaymi?

A. Ha (2 ball)

B. Gohida bo‘ladi (1 ball)

D. Yo‘q (0 ball)

12. Sevimli taomlaringiz pivo, non, yarim tayyor mahsulotlardan iboratmi?

A. Ha (2 ball)

B. Gohida bo‘ladi (1 ball)

D. Yo‘q (0 ball)

13. Garchi arzirli bahonangiz bo‘lmasa-da, dars va uchrashuvlarga doimo kechikib borasizmi?

A. Ha (2 ball)

B. Gohida bo‘ladi (1 ball)

D. Yo‘q (0 ball)

14. Sizda sigaret chekish va ichishga moyilligingiz bormi?

A. Ha (2 ball)

B. Gohida bo‘ladi (1 ball)

D. Yo‘q (0 ball)

15. Agar sizga aroq, qahva va oddiy suvni taklif qilishsa, qay birini tanlaysiz?

A. Aroq (2 ball)

B. Qahva (1 ball)

D. Suv (0 ball)

16. Chekasizmi?

A. Ha, kuniga 3 quti (2 ball)

B. Kuniga 1 quti (1 ball)

D. Yo‘q, chekmayman (0 ball)

17. Spirtli ichimlik iste’mol qilasizmi?

A. Ha (2 ball)

B. Faqat bayramlarda (1 ball)

D. Yo‘q (0 ball)

18. O‘zingiz bajarishga qo‘rqayotgan ishni amalga oshirish uchun do‘stingizni yordamga chaqirasizmi?

A. Ha (2 ball)

B. Ba’zida (1 ball)

D. Yo‘q (0 ball)

19. Hech kimga bildirmay ayyorlik qila olasizmi?

A. Ha (2 ball)

B. Ba’zida (1 ball)

D. Yo‘q (0 ball)

20. Restoranda o‘tiribsiz-u, beixtiyor ofitsiantning qo‘lidagi patnisiga tegib ketib, oqibatda stakandagi vinoni ustingizga to‘kib yubordingiz. Bunga:

A. Ofitsiantni ayblayman (2 ball)

B. O‘zimni koyiyman (1 ball)

D. Hazilga buraman (0 ball)

21. Chekayotgan, ichayotgan o‘smirlarni ko‘rib qoldingiz qanday yo‘l tutasiz?

A. Kayfiyatim buzilib ketadi (2 ball)

B. Tanbeh beraman (1 ball)

D. E’tibor bermayman (0 ball)

22. Restoranda ofitsiantning sizdan ko‘proq pul olib qo‘yganini sezib qolsangiz?

A. Pul bermayman (2 ball)

B. Qayta hisoblataman (1 ball)

D. Hisobni to‘layman (0 ball)

23. O‘tmishdagi xatolar uchun o‘zingizni aybdor deb hisoblaysizmi?

- A.** Ko‘p o‘ylab yuraman (2 ball)
- B.** Beparvoman (1 ball)
- D.** Yo‘q (0 ball)

24. Qo‘lingizga katta pul tushib qolsa, nimaga sarflaysiz?

- A.** Tijoratga sarflayman (2 ball)
- B.** O‘quv anjomlariga (1 ball)
- D.** Do‘stlar bilan ko‘ngilxushlikka (0 ball)

25. O‘zingiz istagan narsaga erishish uchun har doim ham to‘g‘ri yo‘l topa olasizmi?

- A.** Ha hohishimga qarab (2 ball)
- B.** Ba’zan (1 ball)
- D.** Yo‘q (0 ball)

26. Hech kimga sezdirmay ayyorlik bilan ishlaringizni bitkazasizmi?

- A.** Albatta bor (2 ball)
- B.** Ba’zida bo‘lib turadi (1 ball)
- D.** Yo‘q, aslo (0 ball)

27. Spirtli ichimlikni tez-tez iste’mol qilib turasizmi?

- A.** Ha, tez-tez (2 ball)
- B.** Ba’zan (1 ball)
- D.** Yo‘q, aslo (0 ball)

28. Sizga qolsa, hayotingizni qanday qurardingiz?

- A.** Shaxmat kabi (2 ball)
- B.** Boks jangi kabi (1 ball)
- D.** Karta kabi (0 ball)

29. Jamoat transportida mast kishi sizga tegajonlik qildi. Bunday holatdan qanday chiqasiz?

- A.** Baland ovozda odamlarning yordamga chaqiraman (2 ball)
- B.** Navbatdagi bekatda tushib qolaman (1 ball)
- D.** Ko‘rmaganlikka olaman (0 ball)

30. Hayotingizda yuz berayotgan barcha voqealarga o‘zingizni javobgar his etasizmi?

- A.** Ha (2 ball)
- B.** Ba’zida (1 ball)
- D.** Yo‘q (0 ball)

31. Yuzaga kelgan muammolarni o‘ylaganingizdan ko‘ra tezrok hal etishga harakat qilasizmi?

- A.** Ha (2 ball)
- B.** Ba’zida (1 ball)
- D.** Yo‘q (0 ball)

32. Ba’zida o‘zingizni “baxtsiz yulduz” ostida tug‘ilgandek his qilasizmi?

- A.** Ha (2 ball)
- B.** Ba’zida (1 ball)
- D.** Yo‘q (0 ball)

33. Hayotimda ko‘pgina ishlarni boshqa odamlarning ta’siri ostida qilganman va buning uchun ular javobgarlar deb o‘ylaysizmi?

- A.** Ha (2 ball)
- B.** Ba’zida (1 ball)
- D.** Yo‘q (0 ball)

34. Shamollab qolsangiz bilganingizcha davolanishni ma’qul ko‘rasizmi?

- A.** Ha (2 ball)
- B.** Ba’zida (1 ball)
- D.** Yo‘q (0 ball)

35. Har qanday muammoni hal qilish mumkinmi?

- A.** Ha (2 ball)
- B.** Ba’zida (1 ball)
- D.** Yo‘q (0 ball)

36. Birov bilan janjallahib qolsangiz aybni avval o‘zingizdan izlashga harakat qilasizmi?

- A.** Ha (2 ball)
- B.** Ba’zida (1 ball)
- D.** Yo‘q (0 ball)

37. Inson har qanday sharoitda ham irodali mustaqil fikr yurita oladigan bo‘lishi kerakmi?

- A.** Ha (2 ball)
- B.** Ba’zida (1 ball)
- D.** Yo‘q (0 ball)

38. Ko‘ngilsizliklardan qattiq siqilasizmi?

- A.** Ha (2 ball)
- B.** Ba’zida (1 ball)

D. Yo‘q (0 ball)

39. Suhbatdoshingiz sizni eshitmasa achchig‘ingiz chiqadimi?

A. Ha (2 ball)

B. Ba’zida (1 ball)

D. Yo‘q (0 ball)

40. Yaqin do‘srlaringiz bilan keragidan ko‘proq spirtli ichimliklarni iste’mol qilishingiz mumkinmi?

A. Ha (2 ball)

B. Ba’zida (1 ball)

D. Yo‘q (0 ball)

41. Sog‘ligingiz yomonlashgani tufayli vrach chekishni, spirtli ichimliklarni ichishni yoki boshqa bir cheklanishlarni (yog‘li, achchiq, sho‘r narsalarni yemaslikni) buyursa bularga amal qilasizmi?

A. Ha (2 ball)

B. Ba’zida (1 ball)

D. Yo‘q (0 ball)

42. Qaytadan tug‘ilishni va hamma narsani boshidan boshlashni xohlaysizmi?

A. Ha (2 ball)

B. Ba’zida (1 ball)

D. Yo‘q (0 ball)

43. Ishingiz yurishmasa, bu holat men bilan yuz berishi mumkin deb o‘ylaysizmi?

A. Ha (2 ball)

B. Ba’zida (1 ball)

D. Yo‘q (0 ball)

44. Siz hayotda oldingizga aniq maqsad qo‘yib yashaysizmi?

A. Ha (2 ball)

B. Ba’zida (1 ball)

D. Yo‘q (0 ball)

45. Ertalab siz o‘zingizni yaxshi his qilmaydigan darajada spirtli ichimliklarni iste’mol qilasizmi?

A. Ha (2 ball)

B. Ba’zida (1 ball)

D. Yo‘q (0 ball)

46. O‘tgan kunlar haqida ko‘proq yaxshi narsalarni eslaysizmi?

A. Ha (2 ball)

B. Ba'zida (1 ball)

D. Yo'q (0 ball)

47. Har doim bir xil do'stlaringiz bilan uchrashasizmi?

A. Ha (2 ball)

B. Ba'zida (1 ball)

D. Yo'q (0 ball)

48. Yaqin do'stlaringiz bilan keragidan ko'proq spirtli ichimliklarni iste'mol qilishingiz mumkinmi?

A. Ha (2 ball)

B. Ba'zida (1 ball)

D. Yo'q (0 ball)

49. Har doim bir xil do'stlaringiz bilan uchrashasizmi?

A. Ha (2 ball)

B. Ba'zida (1 ball)

D. Yo'q (0 ball)

50. O'zingizni muammolaringizni ruhshunoslarga aytishga ishonasizmi?

A. Ha (2 ball)

B. Ba'zida (1 ball)

D. Yo'q (0 ball)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: O‘z-n, 2008.
2. Karimov I. A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash-bizning oliy maqsadimiz. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 16 yilligiga bag‘ishlangan ma’ruzasi. Toshkent, 6 dekabr 2008 yil.
3. Karimov I.A. Har tomonlama barkamol avlod – taraqqiyot negizi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 29 avgust 9-sessiyasidagi nutqi.
4. Karimov I.A. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushunchalar va tamoyillar. –T.: O‘zbekiston, 2000 у.
5. Смирнов С.Д. Педагогика и психология высшего образования: от деятельности к личности -М.: Аспект Пресс. 1995.
6. Цапкин В.Н. Личность как группа - группа как личность. // Московский психотерапевтический журнал, 1994. № 4.
7. Чернов Э.Д. Совершенствование самостоятельной работы студентов. // Высшее образование в России, 1994. № 4. С. 76-79.
8. Дружинин В.Н. Психология. Учебник для гуманитарных вузов. – СПб.: Питер, 2006.
9. Столяренко Л.Д. Педагогика и психология высшей школы. – Ростов н/Д.: Феникс, 2006.
10. Радугин А. АПсиология и педагогика. центр, 2004.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I BO'LIM	
Ma'naviyat va ma'rifat sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirish va samaradorligini oshirish omillari.....	5
II-BO'LIM	
Murabbiy faoliyatining mazmuni.....	21
III BO'LIM	
Talabaning oliy o'quv yurtidagi qadriyatlarga moslashishining psixologik xususiyatlari.....	50
IV BO'LIM	
Murabbiy tarbiyaviy faoliyatini tashkil etishning asosiy yo'llari.....	70
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	120
Mundarija.....	121

Muharrir: Sidikova K.A.

Musahhih: Miryusupova Z.